



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023, № 6

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **X.I.Ibragimov, N.M.O'rinova**
Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mazmuni
- 7 **R.B.Yarmatov**
Uzluksiz ta'lim tizimida tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish usullari
- 10 **J.M.Kapaxanova**
Организация исследовательской деятельности школьников в общеобразовательных учреждениях
- 15 **M.Y.Egamnazarov**
Uzluksiz ta'limda shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish
- 18 **S.Maxmudova**
Bo'lajak muziqa o'qituvchilarining musiqiy bilimlarni rivojlantirishda uzviylikni ta'minlash
- 22 **N.R.Abdanbekova**
Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish yoshlar ongini yuksalishida ahamiyati
- 24 **M.N.Kurbanov**
Umumiy o'rta ta'lim maktabi pedagogik jamoasini maqsadli boshqarish funksiyalari tahlili
- 29 **M.A.Kosimova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanishda o'qituvchining muomala va mulqot usullarining ahamiyati
- 33 **Sh.B.Xasanova**
O'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishi va innovatsion faoliyati
- 37 **M.P.Djumaniyazova**
Biologiya darslarida innovatsion metodlar va ulardan foydalanishda uzviylikni ta'minglash
- 41 **Z.Palibayeva**
Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni jismoniy faollik va sog'lom turmush tarziga o'rgatish
- 46 **A.O.Gulyamova**
Talabalarni kasbiy faoliyatga uzluksiz tayyorlashda tanqidiy fikrlashning turlari
- 50 **K.M.Gulyamov**
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini badiiy-ijodiy qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirishda amaliy bezak san'atining dadaktik imkoniyatlari
- 54 **N.B.Sultanova**
Uzluksiz ta'lim tizimida amaliy mashg'ulotlarda «Case-Study» texnologiyasidan foydalanish
- 58 **D.Sh.Temirov**
Jamoatchilik nazorati asosida umumta'lim maktablarining ta'lim-tarbiya sifati uzviyligini ta'minlash imkoniyatlari
- 62 **P.X.Luxypaev**
Технологическая подготовка школьников с включением дизайн-образования

MA'NAViy TARBIYA

- 67 **F.S.Usmonova**
Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining madaniyat kompetentligini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari
- 72 **G.K.Mardiyeva**
Ijtimoiy muhitning yoshlar tarbiyasiga ta'siri
- 76 **M.Z.Hamdamova**
Kommunikativ ta'limni rivojlantiruvchi innovatsiyalardan foydalanish usullari
- 80 **D.A.Norbutayeva**
Bo'lajak o'qituvchilarning dizaynerlik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 84 **G.B.G'ofurova**
Talabalarining og'zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish
- 87 **U.M.Dadaboyev**
Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlari o'rtasida millatlararo bag'rikenglikni shakllantirish modeli
- 91 **M.T.Madraximova**
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida xalqaro baholash dasturlari standartlarida talab etilgan kompetensiyalarni rivojlantirish
- 95 **O.S.Qodirov**
Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashning psixologik mexanizmlari
- 98 **Sh.K.Urakova**
Maktab o'qituvchilarida inklyuziv kreativ kompetentlikni rivojlantirish
- 102 **E.A.Jazau**
Формирование базовых и предметных компетенции как основа профессиональной подготовки студентов-филологов

XORIJIY TA'LIM

- 106 **M.Y.Begmatov**
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining fanga doir kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy tajribalari va ularni ommalashirish
- 109 **M.I.Ibodova**
Академик litsyellarda biologiya fanini o'qitishda integrativ texnologiyalardan foydalanishni tashkil etishning metodik tizimi



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI

X.I.IBRAGIMOV,

O'zPFITI direktori, p.f.d., professor

N.M.O'RINOVA,

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, p.f.n.

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga psixologik, nazariy va amaliy tayyorlash mohiyati, ularning komponentlari hamda tayorgarlikni baxolash mezonlari va darajalari yoritib berilgan.

***Kalit so'zlar:** tyutor; psixologik, nazariy va amaliy tayyorgarlik, baxolash mezonlari va darajalari.*

В данной статье освещается сущность психологической, теоретической и практической подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности, их компоненты, а также критерии и уровни оценки подготовки.

***Ключевые слова:** тьютор психологическая, теоретическая и практическая подготовка, критерии и уровни оценки.*

This article highlights the essence of psychological, theoretical and practical training of future teachers for tutoring, their components, as well as criteria and levels of assessment of training.

***Key words:** tutor; psychological, theoretical and practical training, evaluation criteria and levels.*

Kadrlar tayyorlashning ijtimoiy buyurtmasi, mutaxassisning shaxsiy va kasbiy sifatleri hamda amaliy kasbiy kompetentligini shakllantirishning tuzilmasi va mazmunini tahlil qilgan holda zamonaviy tyutorlarni kasbiy tayorlash tuzilmasi tadqiqi etildi. Bunda biz tyutor shaxsini amaliy kasbiy kompetentlikka ega, yuksak darajada madaniyatli, yondash fanlar sohalarini tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish metodlarini puxta egallagan va mutaxassisligi bo'yicha amaliy faoliyat yuritadigan, maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis sifatida tavsifladik.

Psixologik tayyorgarlik bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi, ular: motivlar, maqsadlar, qadriyatlarini tanlash, kasbiy burchini bajarishga yuqori mas'uliyat hissi, qat'iyatlilik, qaror qabul qilishda faollik va mustaqillik.

Nazariy tayyorgarlik esa ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari, munosabatlar psixologiyasi, talabalar faoliyatini monitoring qilish shakl va usullari, pedagogik etika, tarbiya nazariyasi va metodikasi, talabalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, tyutorlik texnologiyalariga doir bilim va tajribalarni egallashdan iborat.



Biz tyutorning kasbiy tayyorgarligiga doir turli funksiyalarni o'zlashtirishi va ularni pedagogik faoliyatda amalda qo'llash bilan bog'liq ko'nikmalarni amaliy tayyorgarlik tushunchasiga kiritamiz.

Umuman olganda, pedagogika universiteti bitiruvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligini uning kasbiy mahoratning mavjudligi yoki yo'qligi, tyutor sifatida kasbiy faoliyat motivlari, shaxsning eng muhim kasbiy ahamiyatga ega ko'nikmalari va fazilatleri, nazariy va tashkiliy-amaliy tayyorgarlik sifati hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni egallaganlik darajasi kabi parametrlar bo'yicha baholash mumkin.

Tyutor funksiyalarini amalga oshiradigan bo'lajak o'qituvchilarining tayyorgarligining asosiy mazmunini ularning malakasiga qo'yiladigan psixologik va pedagogik talablar tashkil etadi, bu talablar Davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi namunaviy Nizomda keltirib o'tilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qish davrida talabalarni tyutorlik funksiyalarini amalga oshirishga tayyorlash muammosini hal qilish imkoniyatlari talabalik davrining yosh xususiyatlarida ko'rinadi. Bu davrda o'z-o'zini anglashning sezilarli o'sishi, qaror qabul qilishda mustaqillik va kasbiy faoliyatga qiziqishning yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Bizning fikrimizcha, kasbiy yo'nalishning muhim belgisi talabalarning pedagogik faoliyatga, yangi «Tyutorlik» faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan qiziqishni yuqori bo'lishi bilan bog'liq. Ma'lumki, kasbiy yo'nalishni shakllantirish o'qituvchini tayyorlashda asosiy o'rinni egallaydi, chunki bilim, ko'nikma va malakalar tizimida kasbiy va pedagogik yo'nalish bog'lovchi rol o'ynaydi va kelajakdagi mutaxassis shaxsini o'z-o'zini tarbiyalashining asosiy shartidir.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ta'lim motivatsiyasi sifatida ehtiyojlar, qiziqishlar, mazmun, qadriyatlar, ideallar va boshqalar tushuniladi. Maqsadni aniqlashga qaratilgan shaxsning ehtiyojlari biz tomonimizdan motivatsion yo'nalishning dastlabki shartlari sifatida qaraldi. Boshqacha qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayorlashning motivatsion komponenti tyutorlik funksiyalarini amalga oshirish uchun asosiy omil bo'lib, uning atrofida o'qituvchining professional sifatida asosiy xususiyatlari va shaxsiy fazilatleri quriladigan yadrodidir.

Yuqorida keltirilgan bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligi tavsifiga muvofiq, uning tarkibiy komponentlarining namoyon bo'lishining integral belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin. Motivatsion komponentning integral ko'rsatkichi talabanning shaxsiga yo'naltirilgan paradigmgaga muvofiq kasbiy faoliyatni takomillashtirishga yo'naltirilganligidir.

Kognitiv komponentning asosiy ko'rsatkichi sifatida esa bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayorlashni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar tizimini ajratib ko'rsatamiz.

Davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi



to'g'risidagi namunaviy Nizomda [1] keltirilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi mutaxassis quyidagilarni bilishi kerak: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari; pedagogikaning nazariy asoslari; yosh va ijtimoiy psixologiya; munosabatlar psixologiyasi; ta'lim oluvchilarning individual va yosh xususiyatlarini; yosh fiziologiyasi; talabalar faoliyatini monitoring qilish usul va shakllarini; pedagogik etika; tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasini; talabalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishni; ochiq ta'lim va tyutorlik texnologiyalarini; ta'lim menejmenti usullarini; kasbiy kompetentlikni shakllantirish usullarini (metodik, kommunikativ, huquqiy, informatsion); tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi, interfaol ta'limning zamonaviy texnologiyalarini; talabalar va ularning ota-onalari, pedagogik jamoa bilan hamkorlik qilish usullarini; konfliktli vaziyatlarning sabablarini tashxislash, ularning oldini olish va hal qilish texnologiyalarini.

Operatsion komponentning integral ko'rsatkichi diagnostik; analitik-motivatsion, loyihalovchi, amalga oshiruvchi, uslubiy, kommunikativ va refleksiv funksiyalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi ko'nikma va malakalarni nazarda tutadi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorligining mazmuni va tuzilishi uning kvalifikatsiya talablarini tashkil etadi. Shunga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorligi mazmunida pedagogik hamkorlik texnologiyalari, talabalar shaxsini rivojlantirishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatini rivojlantiruvchi talaba shaxsning alohida sifati yani, kognitiv, motivatsion va faoliyatli komponentlarning integral birligini nazarda tutadi.

Tadqiqotimizning muhim vazifalaridan biri bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligi mezonlari va darajalarini aniqlashdir.

Mezonlar bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligining sifat va miqdor ko'rsatkichlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Har bir mezon tegishli ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi. Ko'rsatkichlarni tanlash quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi: adekvatlik, obyektiv ko'rsatkichlardan foydalanish, bir nechta ko'rsatkichlardan foydalanish.

Ishlab chiqilgan mezonlar bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini baholashning ma'lum bir etaloni hisoblanadi.

S.L.Rubinshteynning [4] tadqiqotlariga asoslanib kasbiy tayyorgarlikning bosqichma-bosqich shakllanishi to'g'risida quyidagilarni izohlash mumkin:

- tayyorlik faoliyat jarayonida shakllanadi, oldingi bosqichda to'plangan hamma bilimlar, keyingi bosqichda tobora yuqori darajaga o'tadi;
- oldingi daraja keyingi darajani shakllanishiga asos bo'ladi;
- konkret shaxsda tayyorgarlik darajasini aniqlash kamchiliklarni tuzatish imkonini beradi;



– bo‘lajak o‘qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayorligi, umumiy kasbiy faoliyatga tayorlikning tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi.

Shunday qilib, shaxsda ma‘lum bir sifatlarini rivojlanishi quyidagicha amalga oshiriladi: past darajadan yuqori darajaga, yani bosqichma-bosqich. Biz tadqiqot natijasida quyidagi tayyorgarlik darajasini aniqladik: past, o‘rta va yuqori.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayorligi darajasi quyidagilar bilan belgilanadi: ushbu faoliyatni amalga oshirishga barqaror ehtiyojning mavjudligi; talaba shaxsini aniq shakllanishda tyutorlik faoliyatining mohiyatini anglab etganlik; standart va nostandart pedagogik vaziyatlarni hal qilish tajribasining mavjudligi; tyutorlik funksiyalarini amalga oshirishda optimal pedagogik texnologiyalardan mohirona foydalanish.

Yuqorida sanab o‘tilgan mezonlar bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayorligini baholash uchun nisbiy bo‘lsada bizning fikrimizcha, ulardan talabalarning kasbiy tayyorgarligi darajasi baholashda foydalanish mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish uchun talabalarda bilim va ko‘nikmalarni egallashga motivatsiya darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, tizimlashtirilgan bilim va tyutor sifatida faoliyat maqsadlarini rivojlantirish, shuningdek, tyutorlik funksiyalarini amalga oshirish bo‘yicha harakatlarning darajasi va murakkabligini oshirish.

Xulosa sifatida qayd etish zarurki, bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorligini yuqori darajaga ko‘tarish, ularda pedagogik fikrlashni shakllanishi va talabaning muvaffaqiyatli bo‘lishiga imkon beradi. Tyutorlik faoliyatining maqsadi talabaga olingan bilimlardan kelajakda qanday foydalanishni anglab yetishiga ko‘mak berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <http://manaviyat.tstu.uz/wp-content/uploads/2021/10/Tyutorlik-faoliyatini-tashkil-etish-boyicha-Nizom.pdf>
2. Muhammadovna, O. R. N. (2022). Talaba shaxsini individual rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining asosiy konseptsialari. Ta‘lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 144-149.
3. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии.- СПб. : Питер, 2006. - 23 с.
4. Рубинштейн, М. М. Проблема учителя : учеб. пособие для высш. пед. учеб: заведений / под ред. Сластенина В. А. - М. : Академия, 2004. - 176 с.
5. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. ACADEMICA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2344-2348.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TARIX O'QITUVCHILARINING LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

R.B. YARMATOV,
JDPU, p.f.d (DSc) professor

Mazkur maqola uzluksiz ta'lim tizimida tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning mazmun mohiyati, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilar bilimini oshirish bo'yicha o'qitishning loyihalashtirish qoidalari, usullari, vositalaridan foydalanish yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *Pedagogik mahorat, kompetensiya, kompetensiyaviy yondoshuv, loyihalashtirish, ta'lim tizimi, loyihaviy faoliyat, madaniy tarixiy fenomen, ijtimoiy loyihalash mantig'i.*

В данной статье освещается использование правил проектирования, методов, средств обучения для повышения знаний обучающихся, исходя из содержания, целей и задач развития проектной компетенции учителей истории в системе непрерывного образования.

Ключевые слова: *Педагогическое мастерство, компетентность, компетентностный подход, проектирование, система образования, проектная деятельность, культурно-историческое явление, логика социального проектирования*

This article highlights the use of design rules, methods, teaching tools to improve students' knowledge, based on the content, goals and objectives of the development of the project competence of history teachers in the system of continuing education.

Key words: *Pedagogical skills, competence, competence approach, design, education system, project activity, cultural and historical phenomenon, logic of social design.*

Uzluksiz ta'lim tizimida tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning maqsadi, tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasiga doir bilimlarini takomillashtirish, loyihalash bosqichlari va shakllarini o'zlashtirishga doir zamonaviy yondoshuvlarni o'zlashtirish, joriy etish va ta'lim amaliyotida qo'llash ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

Tarix o'qituvchilarida loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish vazifalari:
– loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari va algoritmini aniqlash;

– loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasiga doir bilimlarini takomillashtirish;

– tarix o'qituvchilarida loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga doir bilimlarini takomillashtirish;

– tarix o'qituvchilarida pedagogik faoliyatning turli ko'rinishlarida loyihalash kompetensiyasini tarkib toptirish.



Uzluksiz ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida amalga osiriladigan masalalar doirasida:

Tarix o'qituvchisi:

- loyihalash va loyihaviy faoliyat;
- loyihalashtirishning o'ziga hos xususiyatlari;
- loyihalash kompetensiyasi va uning tarkibiy qismlari;
- o'quv loyihalari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi;

Tarix o'qituvchisi:

- o'quv jarayonini loyihalashtirish;
- o'quv loyihalarining xilma-xil turlaridan foydalanish;
- bo'lajal tarix o'qituvchilarining loyihaviy faoliyatini tashkil etish;
- o'quv loyihalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini egallash;

Tarix o'qituvchisi:

- pedagogik faoliyatning qayta tushinilishi va mustaqil takomillashtirilishini ta'minlovchi mustaqil tahlilni egallash (refleksiv);
- mustaqil ta'lim va o'z kasbiy-metodik darajasini oshirib borish (kognitiv);
- konstruktiv ravishda harakat qilishga imkon beradigan axborotni olish, qayta ishlash va tadbiiq qilish, texnologik qarorlar, tamoyil va yondashishlar tizimini loyihalashtirish (axborot);
- kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi og'zaki va yozma muloqot texnologiyalarini egallash (kommunikativ) kompetensiyalarni ham egallashi lozim.

Uzluksiz ta'lim tizimida tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish usullari – ta'lim tizimini loyihalashtirishga qaratilgan pedagogik g'oyalar, pedagogik jarayonlar va texnologiyalar majmuasi, shuningdek ularning amaliy joriy etilish dasturlaridir. Bu jarayonda loyihalash – bor narsani nimaga aylantirish zarurligi yuzasidan g'oyalar va harakat dasturini ishlab chiqishdan iborat. Loyihalashning ko'p qirrali madaniy tarixiy fenomeni o'z faoliyatining barcha sohalarida hozir bo'lgan istalgan kishining hayotiy faoliyatining tub mohiyatidan kelib chiqadi. Ilmiy va amaliy jihatdan kasbiy pedagogik faoliyat bu qatordan mustasno emas.

Uzluksiz ta'lim tizimida tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasi usullari yangilanish darajasiga oid faoliyat bo'lib, tegishli texnologiyalar negizida quriladiki, uni doimiy o'zgartirish, o'zlashtirish va doimiy takomillashtirib borish mumkin. Loyihalash kompetensiyasini o'zlashtirish dolzarb, chunki, birinchidan, mazkur kompetensiya ta'lim tizimini tashkil qilishning barcha bosqichlariga keng qo'llanishga ega. Ikkinchidan, ijtimoiy loyihalash mantig'i va texnologiyasini bilish, tahlilii, tashkiliy boshqarish vazifalarini samarali amalga oshirishni imkon beradi.



Uchinchidan, loyihalash kompetensiyasi pedagogning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tarix o'qituvchilariga ta'lim tarbiya berishning muvaffaqiyatlilik va natijaga egaligiga pedagog tomonidan loyihaviy kompetensiyani qanchalik o'zlashtirib olganligiga bo'g'liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir, yangi ta'lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Uzluksiz ta'lim tizimida tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish usullari quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi va shakllantiriladi:

– fikrlash faoliyati: g'oyalarni ilgari surish (aqliy hujum), muammoni qo'yish, maqsadlarni aniqlash va vazifalarni qo'yish, farazni shakllantirish;

– faoliyatda samarali usul, uslub va yo'llarni tanlashning asoslanganligi;

– o'zining faoliyatini rejalashtirish va o'z-o'zini ruhiy holatini tahlil qilish;

– faoliyat natijasini (mahsulotni) ko'rgazmali shakl va usullarini tanlash;

– axborotlarni qabul qilish, izlash, saqlash, natijalar mohiyatiga yetish.

Uzluksiz ta'lim tizimida tarix fani o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasi tarix fanlarini o'qitishning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, unga tarixning yangilangan mazmunini, uni o'qitish uslubiyatini mukammal bilishiga, ta'lim va tarbiya ishlarini ilmiy asosda uyushtira olishiga bo'g'liqdir. Ta'lim tizimida tarix fanining asosiy maqsadi eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan Vatanimiz va jahon tarixiga oid eng muhim voqealar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularni O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniy va ma'naviy merosiga, ilg'or an'analariga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk merosimizning davomchilari hamda uni boyituvchilari bo'lmish munosib vorislarni tarbiyalashdan iborat.

Shu asosda uzluksiz ta'lim tizimining barcha sohalarida tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish – ta'lim maqsadi, o'quv-tarbiya jarayonining kreativ rivojlanishi, shaxsga yo'naltirilganligi sifatidagi shaxsga yangicha qarashdir. Bu quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

– shaxs pedagogik jarayonning obyekti emas, subyekti sifatida aks etadi;

– shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta'lim tizimi maqsadi;

– har bir ta'lim oluvchi qobiliyatli va iqtidorli;

– shaxsning muhim sifatleri sifatida yuksak axloqiy qadriyatlarni aks ettirish.

Uzluksiz ta'lim tizimida aynan tarix o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish usullari asosida pedagogik faoliyatni rejalashtirishga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) pedagog oldida turgan asosiy maqsad, tarixiy muammo nuqtai nazaridan pedagogik xolatni baholash;



b) oldinda turgan vaziyat va ishning natijalarini oldindan ko‘rish, shunga bog‘liq xolda maqsad va vazifalarni aniqlash;

c) tarixiy-tadrijiy asosga ega harakatlar ketma-ketligi dasturini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish uchun eng unumli uslublar, usullar va jihozlarni tanlash;

d) muammoning tarixga oid qismlari, vaqti bo‘yicha hisob-kitobini qilish, uning nazorat shakllari va uslublarini belgilash.

Xulosa o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, tarix o‘qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish, o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix o‘qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat. Tarix o‘qituvchisi kompetensiyaviy yondashuv, o‘zini o‘zi rivojlantirish negizida loyihalash kompetensiyasini rivojlantirar ekan, bu tarix o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi qonuniyatli aloqalar, ta’lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, ta’lim shakllari, maqsadi, mazmuni, o‘qitish metod va usullari hamda vositalaridan yuqoridarajada foydalana olishga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida». 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775

2. «Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623

3. Sh.M.Mirziyoyev Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T-«Ozbekiston»-2020.

4. O‘zbekiston tarixi fani dasturi. Universitetlar va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining tarix fakultetlari uchun. T. 1996.

5. Педагогические технологии. Учебное пособие. Т.П.Сальникова - М.:ТЦ Сфера, 2005.

6. Муслимов Н.А., Уразова М.Б. Проективная деятельность будущего учителя. Учеб.пособие. - Т.: GrandPaper, 2011.

7. N.H.Hakimov, M.M.Aliqulova. Yuqori sinflar ta’lim jarayonini ijtimoiy pedagogik loyihalashtirish metodikasi. T-2015.



ОРГАНИЗАЦИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Л. М. КАРАХАНОВА,
УзНИИПН, (PhD), старший научный сотрудник

Исследовательская деятельность учащихся строится в соответствии с теми же этапами, что и взрослое научное исследование: постановка проблемы; изучение теории, связанной с выбранной темой; выдвижение гипотезы; подбор методик и практическое овладение ими; сбор материала, его анализ, обобщение, собственные выводы.

Ключевые слова: исследовательская деятельность, подробных рецептов организации исследовательской деятельности, исследовательская позиция ученика, образовательная практика, функция исследования как инструмента повышения качества общего образования, оценивать результаты выполненных исследований.

Students' research activities are built in accordance with the same stages as adult scientific research: problem statement; studying theory related to the chosen topic; putting forward a hypothesis; selection of techniques and practical mastery of them; collection of material, its analysis, generalization, own conclusions.

Key words: research activity, detailed recipes for organizing research activities, the student's research position, educational practice, the function of research as a tool for improving the quality of general education, evaluating the results of completed research.

В республике существуют давние традиции исследовательской деятельности школьников. В советское время была создана разветвленная система внешкольных учреждений, важное место в деятельности которых занимали ученические исследования в разных областях науки. Широкое распространение получили юношеские научно-технические общества и малые академии наук. Но деятельность многих из них нередко сводилась к копированию модели функционирования взрослых исследовательских коллективов и упрощенной реализации их задач. Этому способствовала установка государства на массовое воспроизводство научных и инженерных кадров для промышленного комплекса. Но сейчас часто приходится слышать такое: зачем нам школьные исследования? Ведь теперь не нужно столько ученых. В результате приобретает особую актуальность развивающий, самоактуализирующий смысл исследовательской деятельности, что, впрочем, всегда имело место в педагогике.

Актуализируется и функция исследования как инструмента повышения качества общего образования, развития общих способностей и становления компетентностей молодого человека.

Исследовательская деятельность учащихся строится в соответствии с теми же этапами, что и взрослое научное исследование: постановка проблемы; изучение теории, связанной с выбранной темой; выдвижение гипотезы; подбор методик и практическое овладение ими; сбор материала, его анализ, обобщение.



ние, собственные выводы. Готовясь применять исследовательскую технологию на уроке, факультативе, в каникулярной поездке, учителям необходимо определить: 1) повысится ли эффективность и какой конкретно стороны педагогической работы; 2) какие формы организации целесообразны в условиях данной школы; 3) как оценивать результаты выполненных исследований.

Исследовательская деятельность учащихся налицо, если в практике работы школы можно выделить и зафиксировать эти смысловые компоненты. Они задают общие принципы проектирования этой деятельности, но не являются практическим руководством для ее реализации. Важно отметить, что нельзя дать подробных рецептов организации исследовательской деятельности. Учитель должен сам занять позицию исследователя и вместе с детьми «удивиться» какому-то парадоксу или увидеть интересную проблему. Иначе так называемое «исследование» превратится в учебное задание по инструкции.

Для профессиональной организации исследований учащихся нужно: провести инвентаризацию своего опыта; выяснить, какие функции, направления и формы будут эффективно работать у вас; включить отобранные формы работы в учебный и годовой план своего учреждения. Скажем, в лицее главной функцией исследовательской деятельности может быть организация на ее основе профильного обучения. Значит, необходимо разработать курсы по выбору, ввести в базисную сетку часы на выполнение исследовательских проектов, организовать системы индивидуального консультирования и защиты проектов.

В школе исследовательская деятельность эффективна для разновозрастных групп дополнительного образования. В учреждении дополнительного образования наиболее успешны выездные формы, включая экскурсии и экспедиции. Задачи и формы должны соответствовать контингенту учащихся - возрастным особенностям их развития и специфике мотивации. В противном случае учебные исследования могут оказаться неэффективными и даже вредными.

Функции исследовательской деятельности различны на разных ступенях обучения. В начальной школе – это сохранение исследовательского поведения учащихся как средства усиления познавательного интереса и мотивации к учебе. В школе исследовательская позиция ученика способствует его умению самостоятельно ставить и достигать учебную цель в обязательном и дополнительном образовании. В старшей школе развивает исследовательскую компетентность и предпрофессиональные навыки. В дополнительном образовании – это развитие способностей и склонностей в соответствии с потребностями ребенка при гибких образовательных программах и индивидуальном сопровождении, а также допрофессиональная подготовка детей с особенностями в развитии.

Ход исследовательской работы (ее часто называют исследовательским проектом) учащийся проектирует вместе со своим руководителем. В качестве основы берутся модель и методология исследования, принятые в сфере науки. Исследовательская деятельность школьника направлена на достиже-



ние образовательного результата – освоение новых знаний, развитие способностей, мотивации к познанию и осознанной деятельности.

Актуальные для взрослой науки задачи, например, научной новизны, актуальности, практической значимости, снимаются. Наиболее эффективно то учебное исследование, в котором ученик узнал, причем самостоятельно, что-то неожиданное, новое для себя и испытал искреннюю радость, стимулирующую его на дальнейшую работу.

Руководитель при этом реализует свой проект – педагогический; с его помощью он организует образовательный процесс со школьником на основе учебного исследования. Ведущая цель проекта – достижение заданного образовательного результата: развитие способностей учащихся, формирование исследовательской позиции. Руководитель изучает склонности, способности и возрастные особенности психического развития учеников, «подталкивает» их к формулированию темы работ, адаптирует «взрослые» методики научных исследований, создает условия для познавательной инициативы учащихся.

Наиболее распространенными и эффективными являются следующие:

- проблемное ведение уроков базисного компонента. Учитель знакомит учеников с различными точками зрения по изучаемому вопросу, инициирует дискуссию, в которой учащиеся анализируют их, высказывают свои мнения и делают свои выводы. Ученики могут подготовить дома письменные доклады проблемно-реферативного характера, в которых тоже отражаются различные точки зрения на проблему. По ним организуется дискуссия с формулировкой учащимися обоснованных выводов;

- специальные учебные предметы в сетке базисного компонента. Как, например курс «Методология научных исследований», где на конкретных примерах дается методология этой деятельности, в домашних заданиях отрабатывается постановка и выполнение исследовательских задач, а на уроках проходят презентации решений;

- элективные курсы предпрофильного и профильного обучения в рамках школьного компонента. В их основе – работа над исследовательскими проектами, вытекающими из данной образовательной программы;

- программы дополнительного образования: могут предусматривать полный цикл реализации исследований, необходимые учебные занятия, итоговый контроль в виде защиты каждым учащимся своей исследовательской работы;

- исследовательский подход в применении к экскурсии. Каждому ученику ставятся индивидуальные задания – что-то пронаблюдать, измерить, спросить у экскурсовода, сделать собственные выводы. Результат оформляется как творческий отчет о работе;

- общешкольный проект: интегрирует программы общего и дополнительного образования или проекты по определенной теме либо про-



блеме. С помощью исследовательской деятельности на уровне школы тесно увязываются различные формы образовательной деятельности, реализуется годовой цикл ИД;

– походы и экспедиции. Это самостоятельные формы организации исследовательской деятельности во время каникул. Включаются как элементы в годовой цикл учебных исследований;

– научно-практические конференции и конкурсы – формы презентации результатов учебных исследований; выполняют образовательную и коммуникативную функции;

– тематические клубы и молодежные объединения (научные общества, малые академии наук и т. д.).

Результаты исследовательского обучения могут быть оценены по двум направлениям. Первое, или формальное, – соответствие нормам проведения исследования и структуре научно-исследовательской работы. Второе направление – уровень развития способностей и мотивационно-личностных характеристик (субъектных качеств) в процессе исследовательского обучения. Например, таких как способность видеть и выделять проблему, рефлексивно мыслить; уровень познавательной мотивации; наличие и выраженность авторской позиции. В целом качество образовательного результата определяется эффективностью освоения содержания. По каждому из параметров содержания она может определяться, во-первых, формальным продуктом – исследовательской работой и ее презентацией в форме доклада или сообщения; во-вторых – степенью развитости субъектных качеств учащегося.

Литература:

1. Гафитулин М.С. Проект «Исследователь». Методика организации исследовательской деятельности учащихся // пед. техника. 2005. №3. -С. 21-26.

2. Опыт организации исследовательской деятельности младших школьников: «малая Академия наук» / авт.-сост. Г.И.Осипова. Волгоград: Учитель, 2007.

3. Поддяжков А.Н. Исследовательское поведение. Стратегия познания, помощь, противодействие, конфликт. -М.: Просвещение, 2000. -С.45.

4. Л.М.Караханова. Рақамли таълим муҳитида биологияни лойиҳа усулида ўқитишни ташкил этиш масалалари// «Рақамли таълимнинг замонавий тенденциялари ва уларни таълим-тарбия жараёнига тадбиқ қилиш йўллари» республика илмий-амалий анжуман материаллари. 19-20 октябрь, 2023 йил. -Б. 166-168 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10035510>.

5. Л.М.Караханова. Биология дарсларида ахборотлашган муҳитни ташкил этиш самарадорлик омили// Узлуксиз таълим. - Тошкент, 2021. - № 3. - Б. 64-69. (13.00.00. № 9).



UZLIKSIZ TA'LIMIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN O'QITISH TEKNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARDA KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKILLANTIRISH

M. Y. EGAMNAZAROV,
Jizzax Davlat Pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va ta'limi kafedrası
o'qituvchisi (PhD)

Ushbu maqolada uzliksiz ta'lim sharoitida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish muammolari haqida tushuncha va dars jarayonini qay tarzda olib borilishi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar ularning afzal taraflari, doir mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, o'qitish texnologiyalari, kreativ fikrlash, ta'lim-tarbiya, dars tizimi, kommunikativ metodlar, metodlar, tashkil etish, boshqarish, layoqatlilik, tushunish va idrok etish, hamdardlilik.

В данной статье в условиях непрерывного образования раскрывается понимание проблем формирования способности творческого мышления у учащихся посредством персонализированных технологий обучения и способов проведения урокового процесса. Представлены преимущества и недостатки лично-ориентированных технологий.

Ключевые слова: личность, технологии обучения, креативное мышление, воспитание, система уроков, коммуникативные приемы, методы, организация, управление, компетентность, понимание и восприятие, эмпатия.

In this article, in the conditions of continuous education, the understanding of the problems of forming the ability of creative thinking in students through personalized teaching technologies and how to conduct the lesson process. Advantages and disadvantages of personal-oriented technologies are presented.

Key words: personality, teaching technologies, creative thinking, education, lesson system, communicative methods, methods, organization, management, competence, understanding and perception, empathy.

Uzliksiz ta'lim sharoitida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish muammolari hal etishda avvalo shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etadigan metodologik tushunchalar muhim sanaladi.

Uzliksiz ta'lim sharoitida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari zamirida qanday ta'limni tashkil etish tushunchalari yotadi.

Shaxga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining kommunikativ asosi-pedagogik jarayonda talabaga insoniy-shaxsiy yondashishdir. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilarini qarab chiqamiz:



1. Har bir o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.

3. Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;

4. Ta'limda muvaffaqiyat muhitini tashkil etish, bolaga o'qishda muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish.

5. Talabaning hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

Ta'lim jarayonini shaxsiga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarni qo'llash asosida tashkil etish muammolari X.Ibraimov tomonidan ham keng tarzda yoritib o'tilgan.

Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o'tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo'lgan moyillikni qaror toptirish, ta'limdagi innotvasion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g'oyalarning tug'ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta'lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo'naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi

O'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini qo'llab-quvvatlash ularga o'zlari yashayotgan jamiyatning bugungi va kelajakdagi ishchilari sifatida rivojlanishiga hissa qo'shishga yordam beradi: dunyodagi turli tashkilotlar va jamiyatlar yuzaga kelayotgan murakkab muammolarni hal qilish uchun innovatsiyalar va bilimlarni yaratishga tobora ko'proq tayanib, jamoaviy uyushma sifatida innovatsiyalar va ijodiy fikrlashga ahamiyat bermoqda.

Ta'limni tashkil etishda ananaviylikdan qoshich darsda qo'llaniladigan metodlarini guruxning ehtiyojidan kelib chiqqan holda belgilashimiz lozim.

Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta'lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta'lim – ta'lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan «subyekt-subyekt» munosabatlariga asoslangan o'qitish metodlari tizimidir. Bunda o'zaro harakat ta'lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o'rnatish kabi tamoyillarga tayanadi.



Jamoaviy yondashuv qobiliyati bilim va ko'nikmaning hosil qilinishida ham, ta'lim olish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim talabalarining boshqa tengqurlari bilan fikr-mulohazalarini o'rganish jarayonida o'zlari uchun kashf etishlari yoki rivojlantirishlari hamda yangidan-yangi bilim va konikmlalarni birgalikda o'zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Uzliksiz ta'lim sharoitida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakillantirish muammolari ayni vaqtda ta'lim muammolarini bartaraf etishda va jamiyat kelajagini kafolatlashda ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi. Ta'lim sohasida ma'lumki shaxs ijtimoiylashuvi eng avvalo ijtimoiy muhit ta'siri yetakchilik qiladi shunday ekan ta'lim jarayoni shaxs hayotining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda pedagogika oliy o'quv yurti talabalarini o'qitish tizimida quyidagi omillarga e'tibor berilsa ta'lim faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakillantirish muammolarini bartaraf etishga imkon berilgan bo'lar edi. Xususan

– Ixtissoslik fanlar bo'yicha yo'nalishidan kelib chiqqan holda dasturlar fan ma'ruzalarini ishlab chiqish

– Fanlar yuzasidan yoki mavzular yuzasidan talabalar shaxsiy fikrlari va ilmiy tushunchalar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash va umumiy mulohazaga to'xtalish ko'nikmasini hosil qildirish.

– Talabalar o'rtasida fikrlar qarama qarshiligini ishlab chiqish va fikrlariga asosnomalarni keltirish muhitini yaratish.

– O'zaro sog'lom raqobat muhitini yaratish va tashkillashtirish

– Guruhli ishlash va himoya qilish texnologiyasini yaratish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli ukitish texnologiyalari. T.: «Fan va texnologiyalar» nashrieti, 2007. - 97 b.

2. Ishmudamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. - T.: «Iste'dod» jamgarmasi, 2008. - 180 b.

3. Ibraimov X. I, Abdullayeva Sh. A, Pedagogika nazariyasi (darslik). Toshkent. «Fan va texnologiya», 2008, 288 b

4. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол укитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. / Монография. - Т.: «Фан ва технологиялар», 2016. - Б. 77.

5. Egamnazarov M. Yu. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi. Mavzusidagi dissertatsiya ishi. 2023, -123 b



BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING MUSIQIY BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASH

S. MAXMUDOVA,
tadqiqotchi

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurlarini shakllantirish, musiqa tilini tushunish, har bir o'quvchining o'z sevimli musiqiy asarlari doirasini hosil qilish, ularda musiqiy asarlarning mualliflariga nisbatan minnatdorlik hissini uyg'otish, milliy va mumtoz musiqaqa nisbatan qiziqish uyg'otish muhim vazifalardandir.

Kalit so'zlar: musiqiy ta'lim va tarbiya, musiqa madaniyati, o'quv jarayoni, musiqa madaniyatini uzviy tashkil etish, musiqa o'qituvchisi, o'quvchilar.

Forming the musical thinking of schoolchildren, understanding the language of music, forming a circle of each student's favorite musical works, instilling in them a sense of gratitude towards the authors of musical works, and arousing interest in national and classical music are among the important tasks.

Key words: musical education and upbringing, musical culture, educational process, organic organization of musical culture, music teacher, students.

В число важных задач входит формирование музыкального мышления школьников, понимание языка музыки, формирование круга любимых музыкальных произведений каждого ученика, воспитание у них чувства благодарности к авторам музыкальных произведений, пробуждение интереса к национальной и классической музыке.

Ключевые слова: музыкальное образование и воспитание, музыкальная культура, образовательный процесс, органическая организация музыкальной культуры, учитель музыки, учащиеся.

Musiqa ta'limining bugungi muammolaridan biri oldindan kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va samarali amalga oshirish bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda ayrim tadqiqotchi olimlar, maktab o'qituvchilari musiqa ta'limi sohasida rejalashtirilgan natijalarni olishni kafolatlaydigan musiqiy-pedagogik siklni o'z ichiga olgan texnologiyalarni ishlab chiqib ma'lum darajada amalga qo'llashga ham muvofiq bo'ldi. Agar shu texnologiyalar mohiyatiga e'tibor bersak, ular:

- musiqa mazmunini mantiqiy o'zlashtirishga qaratilgan tayanch ijroviy-i-musiqiy-nazariy o'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi;
- integrativ aloqa va bog'liqlikda bo'lish texnologiyalari;
- o'quvchilarni musiqiy faoliyatlarga faol ishtirok ettirish va nafasatli tarbiyalash texnologiyalari turlariga bo'linganligini guvohi bo'lamiz.

O'zbekistonda yangi pedagogik texnologiyalarning ma'lum bir bo'g'inlari qo'llanilayotganligini e'tiborga olib aytadigan bo'lsak, hozirgi paytda musiqa



ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilishi kerak. Bizningcha, bunday texnologiyalar quyidagi yo'nalishda ishlab chiqilsa, musiqiy ta'lim samaradorligi yanada oshishi mumkin.

Uzviylik va uzluksizlik didaktikaning eng asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. O'quvchilar bilim va ko'nikmalarining izchil va asosli tarzda bo'lishi ularning dars jarayonidagi faoliyatlari uzviylikiga bog'liqdir.

Maktablarda musiqa madaniyati darslari bir-biri bilan bog'liq bo'lgan to'rt jarayon orqali amalga oshiriladi. Musiqa madaniyati o'qituvchisining asosiy maqsadi – o'quvchilar bilan muloqotda bo'lish orqali ularni musiqani sevishga o'rgatishdir. Shuningdek, dasturning asosiy tamoyillarini saqlagan, musiqiy material hamda ishlash uslubini yangilagan holda musiqiy tarbiya jarayoniga ijodiy yondashilishi kerak.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari darslardagi barcha faoliyatlarning uzviylikini ta'minlashlari, bosqichlararo uzluksizlikni ta'minlashlari, har bir darsni avvalgi va keyingilari bilan bo'lishiga ahamiyat berib, mashg'ulotlarni yuqori saviyada olib borishlari kerak.

Buning uchun oliy o'quv yurtlarida talabalarni darslarni to'g'ri rejalashtirishga, pedagogik texnologiyalardan foydalanishga, zamon bilan hamohang tarzda saboqlarni tashkil etishlariga zamin yaratib bermoq'imiz lozim.

Oliy o'quv yurtlarida talabalar o'z kasblarini egallash uchun bir qancha fanlarni o'zlashtiradilar. Jumladan, vokal-xor malakalari, dirijyorlik malakalari, ijro san'ati, notadan bevosita o'qish san'ati, musiqa o'qitish metodikasi, musiqiy pedagogika, musiqiy psixologiya, maktab repertuari kabi fanlardan majmuaviy bilimlarni egallaydilar. Talaba kelajakda o'z bilimlarini to'la-to'kis o'quvchilarga yetkazib berishi uchun pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak. Hozirda barcha pedagogika oliygohlarida «Pedagogik texnologiya» va «Pedagogik mahorat» kurslari olib borilishi bo'lajak o'qituvchilarini dunyo andozasi darajasida, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishiga zamin yaratmoqda.

«Musiqiy tarbiya – bu musiqachi tarbiyasi emas, avvalom bor inson tarbiyasidir», degan V.A.Suxomlinskiy. Talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari, emotsiyalari, didlarini (musiqiy-estetik tafakkurlarini) shakllantirish orqali biz ularda musiqa madaniyatini rivojlantirishimiz mumkin.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonining ilmiy-nazariy, uslubiy jihatdan pishiq, mukammal bo'lishi muhimdir. Uning samarali, muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlovchi asosiy omil puxta ishlab chiqilgan dars tizimidir. Darslarni tizimli tarzda olib borish, bosqichlararo uzviylikni ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 1-sinfda o'tilgan mavzular 2-sinfda takrorlash orqali esga olinadi va yangi mavzularni o'rgatishga zamin yaratiladi. Avval o'tilgan mavzularni qaytarmay, yangi mavzuni o'tish mumkin emas.

Musiqa madaniyati darslarida musiqiy bilimlarning o'ylangan va asoslangan



tizimda o'zlashtirilishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Beriladigan bilimlar soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lmog'i darkor. Ushbu tamoyilning buzilishi o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatib qolmay, ularning musiqa madaniyati darslariga bo'lgan qiziqishlarini ham so'ndiradi.

Musiqiy bilimlarni tushuntirishda o'qituvchi avval o'tilgan mavzularga tayanmog'i lozim. Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida beriladigan bilimlar aniq tizimga solinishi kerak. Yangi tushuncha va bilimlar avval o'zlashtirilgan bilimlarga asoslangan bo'lishi bilan birga, asta-sekin kengaytirilib va chuqurlashtirilib boriladi.

Tizimlilikka asoslangan holda darslarni tashkil etish, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma, malakalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilarda o'zlariga bo'lgan ishonchni uyg'otadi, ruhlari ko'tariladi va musiqa madaniyati darslariga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Tizimlilik buzilsa, o'quvchilar tez charchab qoladilar, darsga nisbatan diqqat va qiziqishlari bo'shshib boradi, dars materialini o'zlashtirish pasayadi. Musiqiy ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish lozim, toki bugun o'rganilgan bilimlar kecha o'rganilganlarini mustahkamlasin, ertaga o'rganiladiganlariga zamin yaratsin. Darslarni tizimlashtirilgan holda olib borish, bosqichlararo uzviylikni ta'minlashga yordam beradi.

Kuzatishlarga ko'ra, 1-2-sinf o'quvchilari musiqiy asarlarni ko'tarinki ruhda, umumiydushgan holda qabul qiladilar. Bu bosqichda o'quvchilarga temp, dinamika, registr va tembr terminlari biroz tushunarliroq bo'ladi.

3-4-sinfda o'quvchilar musiqaning mohiyati va mazmuniga qiziqqa boshlaydilar. Bu davrda «so'z» – asar nomi, asar matni haqida o'qituvchining tushuncha berishi muhim. Chunki bu davrda o'quvchilarda asarlar mazmuni haqida mushohada (fikir) yuritish ko'nikmalari shakllana boshlaydi.

1-sinf o'quvchilariga musiqa va musiqiy atamalarning kelib chiqish tarixidan, kompozitorlar hayot va ijodi, milliy cholg'u asboblari haqida ma'lumotlar berish, musiqiy tovushlar va ularning notaga yozilishi, ular ketma-ketligini kompleks sxematik ravishda ko'rsatish orqali umumiy tushunchalarni hosil qilish hamda nota yozuvini o'rganish uchun zamin yaratiladi.

2-sinf o'quvchilari asosan 1-sinfda o'tilgan mavzularni takrorlab, mustahkamlaydilar va butun, yarim, chorak, nimchorak va o'n olitalik notalarning sanalishi, yozilishi va amaliyotda qo'llanilishi haqida tushunchalarga ega bo'ladilar. Bir xil cho'zimli nota va pauzalarni, major va minor ladlari, musiqaning ifoda vositalari va dirijyorlik harakatlari qoidalarini bir tizimda mantiqiy tushunadilar.

3-sinf o'quvchilari 1-2-sinfda o'tilgan mavzularni tizimlashgan holda takrorlab, oddiy intervallar, tonika, kuy, takt chizig'i, major va minor ladlari tushunchalarining mazmun va mohiyatini anglay boshlaydilar; notaga qarab kuylash qoidalarini o'rganadilar.

4-sinf o'quvchilari quyidagi sinflarda o'tilgan mavzularni takrorlab,



mustahkamlash bilan birga, yengil nutqlash mashqlaridan murakkab mashqlarga o'ta boshlaydilar. Musiqaning elementar nazariyasi va ularning tarkibiy qismlari haqida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ta'riflarni keltirib chiqarish va umumlashtirishni o'zlashtiradilar; avvalgi sinflarda o'tilgan bilimlarni takrorlab, mustahkamlash orqali o'quvchilarning ko'nikma va malakalari shakllana boradi.

Demak, bo'lajak musiqa o'qituvchilari «Musiqi madaniyati» darslarida amaliyotni o'tash davrida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishga e'tibor bergan holda, o'quvchilarni darsga qiziqtirib, ularda musiqiy madaniyat, did va dunyoqarashni shakllantirish orqali o'quvchilarni yetuk inson qilib tarbiyalashga o'rganishlari zarur.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari yuqorida sanab o'tilgan shartlarni bajarishlari uchun ham xonanda, ham sozanda, ham dirijyor, ham pedagog, ham psixolog, ham artistlik qobiliyatlarini egallagan bo'lmog'i kerak. Mana shunda musiqa madaniyati darslari samaradorligi oshadi va kelajakda yangi usul va uslublar ishlab chiqarishga zamin yaratiladi.

Yuqorida keltirilgan texnologiyalardan ko'rinib turibdiki, musiqa ta'limda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar o'z xususiyatlariga ko'ra oldindan kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari darajasida bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Tursunov.Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti Toshkent 2003.
2. Mualliflar guruhi. «O'zbekiston san'ati». T., «Sharq» nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2001.
3. Sharipova. G. Musiqa o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). T. 2008.
4. Nurmatov. X, Norxo'jaev. N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2- sinfi uchun darslik. (qayta ishlangan 11 - nashri).
5. A.Jabborov, A. Boyqo'ziev. O'zbeknavo: ustozlar, yulduzlar, shogirdlar. T., «Cho'lpon» nashriyoti, 2000.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANISHI YOSHLAR ONGINI YUKSALISHIDA AHAMIYATI

N.R.ABDANBEKOVA,

TDPU, Aniq va tabiiy fanlar yo'nalishlarda
xorijiy tillar kafedrasida v.b. dotsent

Ushbu maqolada, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlanishi yoshlar yuksalishida ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Tez texnologik taraqqiyot, globallashuv va rivojlanayotgan ijtimoiy dinamika bilan ajralib turadigan davrda uzluksiz ta'limning bugungi yoshlarning rivojlanishidagi ahamiyatini oshirib bo'lmaydi. Ta'limning an'anaviy modeli, bu yerda rasmiy ta'limni yakunlaydi va ishchi kuchiga kiradi, asta-sekin umrbod ta'lim tushunchasiga yo'l beradi.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, yoshlar, rivojlanish, ta'lim tizimi, yuksalish, ta'lim modeli, ko'nikmalar, qobiliyat, ta'lim islohotlari.

В данной статье рассматривается важность создания инклюзивной системы образования для развития молодежи. В эпоху быстрого технологического прогресса, глобализации и изменяющейся социальной динамики значение инклюзивного образования в развитии современной молодежи трудно переоценить. Традиционная модель образования, завершающая формальное обучение и ориентированная на потребности рынка труда, постепенно уступает место более гибкому пониманию образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, молодежь, развитие, система образования, рост, образовательная модель, навыки, способности, образовательные реформы.

This article explores the significance of developing an inclusive education system in the growth of the youth. In an era marked by rapid technological advancements, globalization, and evolving social dynamics, the importance of inclusive education in the development of today's youth cannot be overstated. The traditional model of education, which concludes formal education and caters to the workforce, gradually gives way to a more flexible understanding of education.

Key words: inclusive education, youth, development, education system, growth, education model, skills, abilities, educational reforms.

Uzluksiz ta'lim tizimi yosh ongni zamonaviy dunyo muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, moslashuvchanlik va chidamlilik bilan jihozlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugungi yoshlar oldingi avlodlarnikidan ancha farq qiladigan dunyoga duch kelishmoqda. Avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va gig iqtisodiyoti sanoat va ish bozorlarini qayta shakllantirmoqda, ba'zi an'anaviy



ko'nikmalarni eskirgan va yangi, maxsus tajribaga talab yaratmoqda. Doimiy ravishda moslashish va o'rganish qobiliyati muvaffaqiyat uchun zaruriy shartga aylandi. Shunday qilib, uzluksiz ta'limning mustahkam tizimini rivojlantirish nafaqat kerakli, balki yoshlarni ushbu o'zgarishlarga qarshi gullab-yashnashga tayyorlash uchun zarurdir.

Uzluksiz ta'limga bo'lgan ehtiyojning asosiy omillaridan biri bu texnologiyaning jadal rivojlanishi. Mehnat bozorida talab qilinadigan ko'nikmalar doimiy ravishda o'zgarib turadi, ma'lumotlar fanlari, sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik kabi rivojlanayotgan sohalar mashhurlikka erishmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimi yoshlarning bu yutuqlardan xabardor bo'lib, mahoratning eskirishini oldini oladi va ularning ish qobiliyatini oshiradi.

21-asr talablariga mos o'quv dasturi zarurligini e'tirof etgan holda, O'zbekiston ta'lim mazmunini har tomonlama chuqur o'rganib chiqdi. Maqsad nafaqat an'anaviy bilimlarni beradigan, balki raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi zamonaviy ko'nikmalarni birlashtirgan o'quv dasturini yaratishdir.

Bundan tashqari, o'quv dasturini qayta ko'rib chiqishda O'zbekistonning boy merosini asrab-avaylash va nishonlashga qaratilgan madaniy va lingvistik xilma-xillikka ko'proq e'tibor qaratilgan. Ushbu yaxlit yondashuv talabalarning nafaqat akademik bilimlarga ega bo'lishlarini, balki ularning madaniy o'ziga xosligini chuqur anglash va qadrlashni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Malaka oshirish dasturlari zamonaviy o'qitish metodologiyalari bo'yicha o'qitish, texnologiyani sinfga kiritish va inklyuziv va talabalarga yo'naltirilgan o'quv muhitini tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Maqsad o'qituvchilarga ta'limning rivojlanayotgan ehtiyojlariga moslashish va talabalarida o'rganishga bo'lgan muhabbatni kuchaytirish.

Yuqori sifatli o'qituvchilarni jalb qilish va saqlab qolish uchun hukumat raqobatbardosh ish haqi tuzilmalari va imtiyozlarini ham amalga oshirdi. O'qituvchilarning ta'lim ekotizimida hal qiluvchi rol o'ynashini e'tirof etgan holda, ushbu chora-tadbirlar eng yaxshi va eng yorqin o'qituvchilik kasbiga jalb qilinishini va kelajak avlod ongini tarbiyalashga sodiq qolishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan.

Uzluksiz ta'lim doimiy o'rganish va qiziquvchanlik tafakkurini rag'batlantiradi, innovatsiya va ijodkorlikni rivojlantiradi. O'zgarish sur'ati misli ko'rilmagan dunyoda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati bebahodir. Doimiy ta'lim bilan shug'ullanish orqali yoshlar jamiyatning umumiy taraqqiyotiga hissa qo'shib, muammolarga yangicha nuqtai nazar bilan yondashish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Talabalar va o'qituvchilar uchun turli xil ta'lim tizimlari va o'qitish



metodologiyalariga bevosita ta'sir qilish uchun almashinuv dasturlari tashkil etilgan. Ushbu ta'sir nafaqat istiqbollarni kengaytiradi, balki butun dunyodagi eng yaxshi amaliyotlarni moslashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, xalqaro universitetlar bilan hamkorlik qo'shma ilmiy loyihalar, o'qituvchilar almashinuv dasturlari va filiallar shaharchalarini tashkil etishga yordam beradi. Ta'limga bunday global yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki O'zbekistonni xalqaro akademik maydondagi o'yinchi sifatida ham egallaydi.

Kasbiy rivojlanishdan tashqari, uzluksiz ta'lim ham dolzarb ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Iqlim o'zgarishi, tengsizlik va ijtimoiy adolat kabi masalalar barqaror echimlarni topishga mazmunli hissa qo'sha oladigan ma'lumotli va ma'lumotli shaxslarni talab qiladi. Uzluksiz ta'lim yoshlarga ushbu murakkab muammolar bilan shug'ullanish, ijtimoiy mas'uliyat va faollik hissini tarbiyalash imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlarning yaxlit rivojlanishini ta'minlashda uzluksiz ta'limning kompleks tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Dunyo tobora o'zaro bog'liq va murakkablashib borar ekan, moslashish, doimiy o'rganish va tanqidiy fikrlash qobiliyati har qachongidan ham qimmatlidir. Uzluksiz ta'lim kasbiy rivojlanishdagi rolikdan tashqari, shaxslarni zamonaviy dunyo muammolarini hal qilishga qodir, har tomonlama barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolarga aylantiradi. Hukumatlar, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar yoshlar uchun doimiy ta'lim imkoniyatlarini targ'ib qiluvchi va osonlashtiradigan tashabbuslarni yaratish va qo'llab-quvvatlash uchun hamkorlik qilishlari va shu bilan kelajak avlodlar uchun yanada yorqin va barqaror kelajakka sarmoya kiritishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurinskiy, A. N. pedagogika tarixi: darslik. pedvuz talabalari uchun qo'llanma A. N. Jurinskiy. - M.: gumanitar nashr. Vados markazi, 1999 yil. 432 s.
2. Erkinovna, G. U. (2020). Methodological Recommendations on the Organization of Teaching a Foreign Language based on Blended Learning at the Professional Development Courses for Pedagogical Staff from Higher Education Institutions (HEIS). *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(10), 170-177.
3. Gulnoza, S. (2022). PROFESSIONAL AUDITORY ABILITY OF STUDENTS. *Confrencea*, 6(6), 18-19.
4. Ilkhamova, I. (2022). Issues of improving socio-cultural competence of students in foreign language lessons. *Oriental Journal of Philology*, 2(1), 30-42.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI PEDAGOGIK JAMOASINI MAQSADLI BOSHQARISH FUNKSIYALARI TAHLILI

M.U.KURBANOV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Maqolada boshqaruv faoliyati bilan bog'liq «menejment», «boshqaruv», «boshqaruv funksiyalari», «faoliyat», «boshqaruv faoliyati» hamda pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi pedagoglarni pedagogik menejment funksiyalari hamda pedagogik jamoada ishlash haqidagi bilimlarini shakllantirish kabi tushunchalar muhokama qilinadi. Boshqaruv funksiyalarini tasniflashga turli xil yondashuvlar o'rganilayotgan modellarning xususiyatlariga e'tibor qaratgan holda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *menejment, boshqaruv funksiyalari, faoliyat, bo'lg'usi pedagoglar, boshqaruv faoliyati, boshqaruv funksiyalarining tasnifi, boshqaruv sikli.*

The article discusses concepts related to management activities such as «management», «management», «management functions», «activities», «management activities» and the formation of knowledge of future educators in higher educational institutions in the direction of pedagogy on pedagogical management functions and work in the pedagogical community. Various approaches to the classification of control functions have been shed light on the characteristics of the models under study.

Key words: *management, management functions, activities, future teachers, management activities, classification of management functions, management cycle.*

Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichidagi ehtiyojlari maktab tomonidan hal qilinayotgan vazifalar mazmunining doimiy murakkablashuvini keltirib chiqarmoqda va pedagogik ta'sir obyekti – o'quvchi shaxsiyati ham murakkablashib bormoqda. Shunga ko'ra, pedagogik jarayon va maktab ichidagi boshqaruv sifatiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Tez o'zgaruvchan sharoitlarda maktabni modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishdagi asosiy ko'rsatkich ta'lim muassasasi rahbaridir. «O'quv jarayonini boshqarishda asosiy rol maktab ichidagi boshqaruv munosabatlari tizimida asosiy o'rinni egallagan maktab rahbariga tegishli. Shuning uchun uning faoliyatini takomillashtirish maktabni boshqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi shartidir» [1, 4-bet].

Ushbu muammo bilan bog'liq so'nggi tadqiqotlar va nashrlarni tahlil qilish orqali umumiy va xususiy jihatlarni o'rganish; umumiy muammoning ilgari hal qilinmagan qismlarini aniqlash. Olingan ilmiy natijalarni to'liq asoslagan holda asosiy tadqiqot materialini taqdim etish. Shunday qilib, R.H.Shakurov «Boshqaruv



bu – maktab rahbarlari, uning jamoat tashkilotlari va o‘qituvchilarining o‘quv jarayonini ijtimoiy talablar darajasida amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik jamoada bunday psixologik holatlar va xususiyatlarni shakllantirish va saqlashga qaratilgan faoliyati» deb ta’riflaydi. [1, 41-bet].

L.I.Fishman, I.S.Fishman «agar mohiyatan menejment tizimning o‘zi uchun belgilangan maqsadlarning amalga oshirilishini ta’minlasa, u holda bu uchta asosiy bosqichdan iborat axborot jarayoni: boshqariladigan quyi tizimning ishlashi to‘g‘risida ma’lumot to‘plash (teskari aloqa elementi), uni qayta ishlash va qaror qabul qilish» deb ta’kidlaydilar. V.K.Terentevning so‘zlariga ko‘ra, menejmentni «boshqaruv obyektiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish, ularning zarur harakatlarni bajarishini va belgilangan maqsadlarga erishishini ta’minlash» deb tushunish kerak. V.A.Slastenin menejmentni yechimlarni ishlab chiqish, belgilangan maqsadga muvofiq boshqaruv obyektini tashkil etish, boshqarish, tartibga solish, ishonchli ma’lumotlarga asoslangan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirishga qaratilgan faoliyat sifatida tushunishni taklif qiladi. Ta’lim tizimlarini boshqarish muammosini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan bir qator mualliflar (T.I.Shamova, P.I.Tretyakov, N.P.Kapustin) boshqaruvni rejalashtirilgan natijaga (maqsadga) erishish uchun nazorat qilinadigan va boshqariladigan quyi tizimlarning maqsadli o‘zaro ta’siri sifatida ko‘rib chiqadilar. Menejmentni tushunishga boshqacha yondashuv bu jarayonni mentalitetni ifodalash shakli, insonga singdirilgan ichki ijtimoiy-psixologik dasturning namoyon bo‘lish shakli sifatida ko‘rib chiqadi. V.V.Lebedev ta’lim kontekstida menejment deganda subyektlar (o‘quvchilar) faoliyati tizimi orqali ongli natijaga (operativ asoslangan ta’lim natijalari) erishishga qaratilgan subyektning (o‘qituvchining) tuzilgan faoliyati tushunilishi kerak, bu ularning hamkorligi orqali to‘liq aloqa asosida amalga oshiriladi deb ta’kidlaydi.

Shunday qilib, «menejment» tushunchasining ta’riflarini tahlil qilish olimlar orasida keng tarqalgan quyidagi yondashuvlarni aniqlashga imkon beradi:

- menejment faoliyat sifatida;
- menejment jarayon sifatida;
- boshqaruv ta’sir sifatida;
- menejment o‘zaro ta’sir va hamkorlik sifatida.

Pedagogik lug‘atda boshqaruv funksiyalari quyidagicha belgilanadi: boshqaruv ta’sirining ma’lum tarkibini aks ettiruvchi harakatlarning to‘liq sikli; operatsiyalar, boshqaruv siklining bosqichlariga mos keladigan boshqaruv subyektining harakatlari.



Bizning fikrimizcha, yuqoridagilarga asoslanib, boshqaruv funksiyasi – bu boshqaruv ta'sirining ma'lum bir mazmunini aks ettiradigan faoliyat. Ko'rinib turibdiki, «menejment», «boshqaruv funksiyasi» tushunchalari «faoliyat» tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

Pedagogik jamoani boshqarishning ijtimoiy-psixologik konsepsiyasi muallifi R.H.Shakurov boshqaruv funksiyalarini tizim-tarkibiy yondashuv asosida tasniflashga asoslangan [1]. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan modelga ko'ra, boshqaruv funksiyalarini uch guruhga bo'lish mumkin: maqsadli, ijtimoiy-psixologik va operatsion. O'z navbatida, maqsadli funksiyalar jamiyat ehtiyojlarini aks ettiradi va ularning mazmuni ijtimoiy vazifalarga – siyosiy va tashkiliy-pedagogik (o'quv jarayonini tashkil etish)ga olib keladi. Pedagogik jamoani tashkil etish, uni maqsadli yo'naltirish, faollashtirish, faoliyatni takomillashtirish, jamoani shakllantirish va unda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish boshqaruvning ijtimoiy-psixologik funksiyalarining ajralmas qismidir. Rejalashtirish, ko'rsatma berish va monitoring operatsion funksiyalardir. Shunday qilib, R.H.Shakurov tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv funksiyalari modeli ijtimoiy-psixologik funksiyalarni aks ettiradi, bu muallifning fikriga ko'ra, rahbarlik muammosini ijtimoiy-psixologik tadqiq qilishning uslubiy jihatdan to'g'ri yechimi hisoblanadi.

C.K.Islamgulova boshqaruvni loyihalash, tashkil etish, boshqarish, tuzatish va yordamchi (hamrohlik qiluvchi) funksiyalarning asosiy funksiyalari – ma'lumot to'plash va tahlil qilish, vazifalarni belgilash, motivatsiya. Muallif o'zgaruvchan boshqaruv funksiyalarining ma'lum bir ketma-ketligi mavjudligini va «samarali boshqaruv talab qilinishini» ta'kidlaydi:

- pedagogik faoliyat, aloqa, munosabatlarni ilmiy asoslangan rejalashtirish (loyihalash, modellash);
- pedagogik faoliyat, aloqa, munosabatlarni tashkil etish;
- loyihani amalga oshirish sifatini nazorat qilish, pedagogik faoliyat samaradorligi, aloqa, munosabatlar;
- tuzatishlar kiritish, ya'ni tuzatish, pedagogik faoliyatni tartibga solish, aloqa, munosabatlar.

Biroq, G.G.Gabdullinning fikriga ko'ra, boshqaruv siklini alohida funksiyalarga ajratish juda shartli, nisbiydir.

Maktabni boshqarish, inson faoliyatining boshqa turlari singari, ilmiy asosga asoslanishi kerak, ya'ni boshqaruv bilimlari arsenali maktab rahbarining o'z ishini muvaffaqiyatli, samarali va sifatli bajarish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.



Olimlar orasida rivojlangan «menejment» tushunchasini aniqlashga yondashuvlar quyidagicha:

- menejment faoliyat sifatida;
- menejment jarayon sifatida;
- boshqaruv ta'sir sifatida;
- menejment o'zaro ta'sir va hamkorlik sifatida. Boshqaruv funksiyasi-bu boshqaruv ta'sirining ma'lum mazmunini aks ettiruvchi faoliyat.

«Menejment», «boshqaruv funksiyasi» tushunchalari «faoliyat», «boshqaruv faoliyati» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi vaqtda boshqaruv funksiyalarini tasniflashda mavjud yondashuvlar ko'plab olimlarning tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Barcha funksiyalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq, bir-biriga bog'langan. Shu sababli, boshqaruv funksiyalari o'rtasida aniq chegaralarni belgilash mumkin emas, lekin har bir funksiyaning mazmunini bilish kerak, chunki ilmiy menejment boshqaruv faoliyatining barcha turlarining yaqin munosabatlariga, boshqaruv funksiyalarini o'zaro ta'minlashga, bu boshqaruv funksiyalari ekanligini tushunishga asoslanganligi bilan ajralib turadi Bundan tashqari, boshqaruv funksiyalari modelini yaratishda turli xil yondashuvlarning mavjudligi nafaqat yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek eski modellarni yanada takomillashtirish zarurligi haqida gapirishga asos beradi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Шакуров Р.Х. Социально-психологические проблемы руководства педагогическим коллективом / Науч.-исслед. Ин-т профессионально-технической педагогики Акад. пед. наук - М.: Педагогика, 1982. - 208 с.

2. Лазарев В.С. Руководство педагогическим коллективом: модели и методы / В.С. Лазарев. - М.: Центр социальных и экономических исследований, 1995.

3. Поташник М.М., Моисеев А.М. Управление современной школой (В вопросах и ответах): Пособие для руководителей образовательных учреждений и органов образования - М.: Новая школа, 1997. - 352 с.

4. А.М. Моисеев. Качество управления школой: каким оно должно быть. - М.: Сентябрь, 2001. - 160 с.

5. Кричевский В.Ю. Профессиональная деятельность директора общеобразовательной школы как предмет междисциплинарного исследования: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01 / В. Ю. Кричевский. - СПб., 1993. - 40 с.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA HAMKORLIKDA O'QITISH TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING MUOMALA VA MULOQOT USULLARINING AHAMIYATI

M.A.KOSIMOVA,

*Buxoro davlat universiteti, maktabgacha
ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

Mazkur maqola uzluksiz ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanishda o'qituvchining muomala va muloqot usullarining ahamiyati, uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar orasidagi hamkorlik, o'zaro pedagogik muomala va muloqot usullarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari, Ta'limning zamonaviylashuvi jarayonida uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchi va o'quvchining pedagogik hamkorlikdagi muomala va muloqot sifat va samaradorlik mohiyatini belgilovchi muhim omillar haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: muomala, muloqot, muloqot usullari, uzluksiz ta'lim jarayoni, ta'lim oluvchilar, ta'lim beruvchilar, hamkorlik.

В настоящей статье рассматривается значение методов общения и общения педагога при использовании технологии совместного обучения в процессе непрерывного образования, педагогические и психологические возможности сотрудничества между педагогом и обучающимися в системе непрерывного образования, формирования и развития методов взаимного педагогического общения и общения, роль педагогического взаимодействия и общения педагога и учащегося в системе непрерывного образования в процессе модернизации образования. определяющая сущность качества и эффективности речь идет о важных факторах.

Ключевые слова: диалог, общения, сотрудничество, методы общения, процесс непрерывного образования, учащихся, преподаватели.

This article will talk about the importance of the teacher's methods of treatment and communication in the use of collaborative teaching technology in the process of continuing education, cooperation between educators and educators in the system of continuing education, pedagogical and psychological opportunities for the formation and development of mutual pedagogical treatment and communication methods, important factors determining the essence of quality and efficiency of

Key words: dialogue, communication, communication methods, a continuous process of education, students and teachers, collaboration.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning



shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Darhaqiqat, uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi.

Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasbhunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya insonga borliqni anglash sir asrorlarini tushunish, tinimsiz rivojlanayotgan dunyoga moslashish, dunyoqarashini shakllantirish, nihoyat, jamiyatni insonparvarlantirishga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Har qanday davlatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta'lim tizimi aniqlab beradi. Davlatning ta'lim tizimi bo'yicha bugungi kundagi siyosati xalqaro tajribalar asosida zamonaviylikka asoslanish, hamda o'quvchi shaxsini hayotga tayyorlashdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida ijtimoiy davlatning kelajagini belgilash uchun asos hisoblanadi.

Ta'limning zamonaviylashuvi jarayonida uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchi va o'quvchining pedagogik hamkorlikdagi muomala va muloqot sifat va samaradorlik mohiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Chunki uzluksiz ta'lim jarayonining barcha turlarida ko'p qirrali faoliyatni pedagogik hamkorlik, muomala va muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shaxs ta'limning uzviylikda faol ishtirok etib, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqida ma'lumotlar olishi va ularni anglab yetishi, qiziqish va xohishlarini qondirishi uchun doimo muloqotga, hamkorlikka, do'stona munosabatga ehtiyoj sezadi.

Hozirgi tezkor va keng ko'lamlil axborotlar zamoni inson hayotiga aloqador ma'lumotlarni qabul qilish, to'plash saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo qilmoqda. Munosabatning bunday xususiyati uzluksiz ta'lim tizimini to'laqonli qamrab olganligi ta'limda olib borilayotgan islohotlarda ham o'z aksini topmoqda. Bir qator chet ellik psixologlar B.D.Parigin, A.A.Leontev, A.A.Bodalyov, L.P.Buyeva, V.R.Panferovlarning ta'limotida muomalaning quyidagi yo'nalish hamda jabhalarda ifodalanishi kuzatiladi: axborot kommunikativlik (muomala shaxsga oid kommunikatsiya ko'rinishi sifatida axborot almashish jarayonida yuzaga keladi); interaktivlik (muomala kooperatsiya jarayonida shaxslarning o'zaro ta'siri tarzida paydo bo'ladi); gnoseologiklik (inson ijtimoiy bilishning ham subyekt, ham obyekt tariqasida qaraladi); aksiologiklik (muomala shaxslarning o'zaro qadriyatlar bilan almashinishdan iborat ekanligi); me'yoriylik (shaxs xulqini me'yoriy boshqarish jarayonida muomalaning ahamiyati va o'rni aniqlanadi, odatiy sharoitlarda xulq stereotiplarining real me'yoriy sifatida uzatilishi, mustahkamlanishi jarayoni amalga oshadi); semiotiplik (muomala o'ziga xos alomatlar tizimi yoki turlicha alomatlar tizimini hukm surishi vositasi sifatida); praktsiologiklik



(muomala jarayoni faoliyat, qobiliyat, ko'nikma va malakalar bilan almashinish ekanligi)[4].

Yuqorida ko'rsatilgan aspektlardagi munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiy muloqotnigina emas, balki kasbiy bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Masalan, pedagogik faoliyatdagi muomala va muloqotni nazarga tutadigan bo'lsak, uzliksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan malaka oshirish kurslarida muomalaning aytib o'tilgan barcha aspektlari o'z ifodasini topadi.

O'qituvchi dars berayotgan sinfning har bir a'zosini fikrlashi uchun imkoniyat yaratib bera olishi, har bir dars mashg'uloti hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasiga asoslangan holda pedagogik muomala va muloqot orqali amalga oshirilgan ekan, bu muloqotchanlik uch shaklda yuzaga chiqariladi. Ya'ni, monologik, dialogik, polilogik.

Nutqning polilogik shakli guruhni ijodkorlikka yo'naltiradi. Masalan, o'qish darslarda o'quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga yo'naltirish orqali muloqotning polilogik shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Polilogik nutq bu – guruh ichidagi munozara, ya'ni, kommunikativ tashabbusni egallash uchun o'ziga xos tarzda kuzatish xususiyatiga ega bo'lgan, uning mukammal samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan ko'p qirrali muomala turi hisoblanadi[4]. Dars berayotgan o'qituvchi darsning muayyan vaqtlarida tanlangan muammoli mavzular tashviqot-targ'ibot shaklida bo'lishini tushuntirib, kichik guruhlarga vaqt beradi. Guruhlar tomonidan tayyorlangan chiqishlar har tomonlama qiziqarli, adabiy, ko'rgazmali, slayd yoki klip yordamida namoyish etiladi. Bunda, tanlangan mavzuning dolzarbligi, zamonaviyligi, targ'ibotga boyligi, tarbiyaviyligi hamda mimika, pantomimika, orqali so'z ta'sirchanligiga e'tibor qaratish nazarda tutiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedarogik jarayonini takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shklantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani ko'rish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Hamkorlikda o'qitish mahg'ulotlarini tashkil qilishda: o'qituvchi-sinf, o'qituvchi kichik guruh. O'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchio'quvchi (juflikda ishlash), kichik-guruh, guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo'llaniladi. Hamkorlikda o'qitish-bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka o'quvchi hamda butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir.



O'quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o'zlariga hamda o'z guruhlardagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi.

To'plangan bilim va tajribalar asosida o'quvchilar bilan bo'ladigan pedagogik hamkorlik, pedagogik muomala va muloqotning quyidagi omillariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- o'quvchilarning hayotiy, shaxsiy tajriba almashinuvida fikrlarni qo'llab-quvvatlash va muammoli vaziyat asosida kamchiliklar yechimini topishlariga ko'maklashish;

- shaxslararo munosabatlarni vaziyatga qarab o'zgartira olish va teng hamkorlik jihatlarni yo'lga qo'yish;

- guruh ichidagi yangi g'oyalarni rag'batlantirish va guruhda do'stona samimiy muhit yarata olish;

- yakka, uzundan-uzun fikrlarni mahorat bilan qisqa va aniq jummlar aytishga yo'naltira olish;

- muomala jarayonida muloqotdosh aynan nega shunday yo'l tutganligi haqida subyektning fikrlashiga e'tibor qaratish;

- har bir o'quvchi shaxsi va fikriga alohida e'tiborda bo'lishi;

- dars mazmunini qabul qilish jarayoni oson va yoqimli kechishi samarali muloqot orqali yuz berishini nazarda tutish;

- har bir o'quvchi tajriba, ma'lumot va malakaga ega ekanligi va ular hurmatga, tan olinishiga ehtiyoj sezishini inobatga olgan holda o'quvchi bildirgan har bir fikrning ijobiy tomonini topa olish.

Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasi asosida o'qituvchining pedagogik muomala va muloqot usullarini shakllantirish negizida shaxsning ma'naviy-axloqiy va xulq-atvor me'yorlarini baholash jarayoni yotar ekan, pedagogik muomalaning psixologik jihatlari e'tibor qaratish, pedagogik hamkorlikka asoslanish, ta'lim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan qurollanish kabi talablar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y.P.Ilin. Motivatsiya i motivi. Moskva - 2008 y. 207-208 betlar
2. E.G'.G'oziyev, R.Y.Toshimov. Psixologiya o'qitish metodikasi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU. Toshkent 2005-yil.
3. Ishmuhamedov R. Abduqodirov A. Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste'dod, 2008. - 180 b.
4. Azizxo'jayeva N.N.. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.



O'QITUVCHINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHI VA INNOVATSION FAOLIYATI

SH.B.XASANOVA,

*Navoiy viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi dotsenti, (PhD)*

Ushbu maqolada o'qituvchining malaka oshirishi uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun muhim omil sifatida tavsiflangan.

Kalit so'zlar: uzluksiz malaka oshirish, mustaqil bilim olish, kontent, elektron platforma.

В этой статье подготовка учителей описывается как важный фактор непрерывного профессионального развития.

Ключевые слова: непрерывное обучение, самостоятельное обучение, контент, электронная платформа.

This article describes teacher training as an important factor in continuing professional development

Key words: continuous learning, independent learning, content, electronic platform

Uzluksiz malakasini oshirish uchun mashg'ulotlar maktabda, hududiy pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari, nodavlat ta'lim muassasalari va pedagogika institutlarida tashkil etiladi. Maktabda uzluksiz malaka oshirishning asosiy tashkiliy shakli pedagog kadrlarning yakka tartibda shaxsiy dasturi (ish rejasi) asosida uzluksiz mustaqil malaka oshirishlari hisoblanadi. Maktablarda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy-metodik seminar va trening mashg'ulotlari tashkil etiladi, shuningdek, tajriba almashiniladi. Ustoz-shogird tizimi takomillashtiriladi.

Maktabning o'quv-tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va metodbirlashma rahbarlari o'qituvchilarning o'z ustilarida ishlash rejasi bo'yicha amalga oshirayotgan faoliyatini ham o'rganadi, unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mavjud bo'ladigan kamchilik va muammolarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy va metodik yordam ko'rsatadi.

Hududiy milliy markazlarida mashg'ulotlar an'anaviy va onlayn shaklda tashkil etiladi. O'qituvchi faoliyatining kasbiy diagnostikasi uni yanada yuqori natijaga erishishini ta'minlash uchun o'zlashtirishi va o'z faoliyatida qo'llashi zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ish ko'nikmalari va malakalarni aniqlashdan iborat. Buning uchun o'qituvchi kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlari bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab, xulosalar chiqariladi. Xalq ta'limi xodimlarining



malaka oshirish jarayonini «Hayot davomida o‘qish» tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirildi va kredit-modul tizimijoriy qilindi. Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish, har bir xodimning malaka oshirish jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta’minlovchi «Uzluksiz kasbiy ta’lim» maxsus elektron platformasi ishga tushirildi. Malaka oshirish tizimida ta’lim maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish, boshqaruv va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish uchun ta’lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab borilishi belgilandi.

Unga ko‘ra:

- xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish bo‘yicha ehtiyojlari o‘rganiladi;
- har bir xalq ta’limi xodimining elektron portfoliosi shakllantiriladi va unga xodimning individual trayektoriyasi, kasbiy rivojlanish natijalari va o‘zlashtirgan o‘quv dasturlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi;

- xalq ta’limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo‘yicha o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi;

- an’anaviy o‘qitish bilan bir qatorda kasbiy o‘qitishning uyg‘unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, onlayn va boshqa turlari joriy etiladi.

Xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirishning an’anaviy va onlayn shakllari uchun:

- har bir fan bo‘yicha uzluksiz kasbiy rivojlanish kursining maqsad va vazifalari asosida 36 soatlik hajmdagi dastur va ishchi o‘quv reja dastur tuziladi.

Har bir mavzu uchun kontent tayyorlanadi. Kontentlar pedagog kadrlarga qo‘yilgan davlat talablari asosida shakllantiriladi. Ular:

1. Pedagogning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish
2. AKT va media savodxonlik
3. Uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari
4. Pedagog mas’uliyati va moslashuvchanligi
5. Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari
6. Fandagi yangiliklar, fanni o‘qitishning dolzarb masalalari
7. O‘quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi professor-o‘qituvchilari hamkorligida biologiya fani o‘qituvchilarini malakasini oshirish kurslari mashg‘ulotlarini onlayn tashkil etish uchun kontentlar tayyorlandi. Yuqorida belgilangan davlat talablari asosida 7 ta modul bo‘yicha



36 ta mavzu tanlab olindi. Har bir mavzuda: mavzu videodarsi, mavzu ma'ruzasi, mavzuga doir test, glossariy, mavzu taqdimoti, mavzuni o'zlashtirganligini aniqlash uchun nazorat topshirig'i, asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan iborat kontentlar tayyorlandi va A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot institutining elektron ta'lim platformasiga joylashtirildi. Bu kontentlar asosida respublika biologiya fani o'qituvchilari o'z malakalarini onlayn shaklda oshirish jarayonida foydalanishmoqdalar.

Uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etishda moddiy baza, o'quv rejaralar, dastur va majmualar qanchalik takomillash-tirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi malaka oshirish jarayonini tashkil etishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun kontentlarni tayyorlovchi mutaxassis-o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog'lanib qoladi. Har qanday yaratilgan kontent o'qituvchining qiziqishiga, xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i lozim. Uzluksiz malaka oshirish sifati va samaradorligi o'qituvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutoala bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyatiga bog'liq. Uzluksiz malaka oshirish samaradorligini oshirish yo'llaridan biri ta'limning multimedia vositalaridan o'rinni foydalanishdir. Bu vositalardan o'tilgan materiallarni takrorlashda, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlashda, mustaqil ishlarda, vebinarlar o'tkazishda, kontent yaratish orqali mavzu mazmunini tushuntirishda samarali foydalanish mumkin. Uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil qilishda kontentlardan foydalanish malaka oshirishning zamonaviy turi hisoblanib, bunda kompyuter yordamida malaka oshirish jarayonini turli usullarda tashkil qilish va o'qituvchilarning malaka oshirish jarayonidagi ko'p holatlarini nazorat qilish mumkin bo'ladi. Kontentlar yordamida uzluksiz malaka oshirishni tashkil etishda nazorat qilinadigan parametrlar to'plami keng bo'lib, ulardan asosiy sifati quyidagilarniko'rsatish mumkin:

O'qituvchi kontentlar asosida tashkil etilgan mavzuni mustaqil holda o'zlashtirayotganida, tushunmagan joylarini, tushunarli bo'lmagan materiallarni qaytadan ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi uchun har bir kontent oxirida o'zini o'zi baholash imkoniyati yaratiladi. O'qituvchilarning mustaqil o'rganishi va bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tayyorlanadi va bu topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi. Kontent oxirida o'qituvchilar bilim darajasini aniqlash va natijalari bilan tanishtirish, kerakli ko'rsatmalar berish belgilangan. Har bir o'qituvchining bilim darajasi yangi mavzu o'tilganga qadar qanday bo'lganligini aniqlash maqsadida oldin o'tilgan mavzu asosida testdan o'tkaziladi, o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan tushunchalar alohida qayd etiladi. O'zlashtirilmagan tushunchalar yangi mavzu bayonida uchraydigan bo'lsa, u holda o'qituvchiga o'zlashtirilmagan tushunchalar haqida metodik yordam beriladi.



O'qituvchilarning uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish bilan quyidagi vazifalar hal etiladi:

– o'qituvchilarga uzluksiz malaka oshirish faoliyati davomida olgan bilimlari
– asosida ish faoliyatini tashkillashtirishda innovatsion texnologiya elementlaridan to'g'ri foydalanish imkoniyatini yaratish;

– uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish orqali o'qituvchiga keyingi faoliyatini to'g'ri rejalashtirish, nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini mustaqil ta'lim asosida mustahkamlab borish uchun yangi ma'lumotlarga ega bo'lishiga imkoniyat yaratish;

– uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish asosida o'qituvchilar malaka oshirish faoliyatlarini to'liq nazoratga olish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Shuningdek onlayn shaklda malaka oshirish yosh bolalari bor oqituvchilarga, yoshi keksa o'qituvchilarga qulay, ular malaka oshirish markazlariga qatnamasdan, ishdan ajralmagan holatda o'z bo'sh vaqtlarida internet orqali platformada kontentlarni mustaqil o'rganib malakasini oshiradilar.

O'qituvchilarning nodavlat ta'lim muassasalarida, pedagogika institutlarida malaka oshirishlari ham pedagogika markazlaridagidek tashkil etilish belgilangan. O'qituvchi xohlagan, o'ziga ma'qul deb bilgan ta'lim muassasasida malaka oshirishi mumkin. Bir yilda bir marta malakasini oshirishi shart hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytilish mumkinki, o'qituvchining kasbiy o'zini rivojlantirish jarayonida innovatsion faoliyat muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi ushbu jarayonda burilish holati, kasbiy o'zini rivojlantirishining muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пулотов А.М. Инновационный подход к профессиональной подготовке педагогов дошкольных образовательных организаций. // Вопросы дошкольной педагогики. - 2020. - № 9 (36). - С. 3-6. - URL: <https://moluch.ru/th/1/archive/179/5669/>.

2. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. 2017 y.

3. Sh.Po'latov. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini boshqarish. O'quv uslubiy majmua. 2018y.

4. Evropa Kommissiyasi (2007): Hayot davomida o'qish uchun asosiy malakalar - Evropa Standartlari.

5. Evropa Kommissiyasi (2010): Ta'lim va o'qitish 2010 Dasturi, - O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish Mavzuviy Ishchi Guruhi, Limassoldagi Tenghuquqli ta'lim olish to'g'risidagi hisoboti, Kipr, 17-21 oktyabr, 2010.



BIOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION METODLAR VA ULARDAN FOYDALANISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASH

M.P.DJUMANIYAZOVA,

*Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti
«Biologiya» kafedrasida katta o'qituvchisi*

Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik integrativ texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *biologiya, sitologiya, o'quvchi-yoshlar, ta'lim texnologiyalari, ta'lim-tarbiya, fanlarni o'qitish samaradorligi, uzluksiz ta'lim bosqichlari, o'quv jarayoni, ta'lim texnologiyalari, zamonaviy ta'lim vositalari.*

The flow of information enters the social life of the republic at a rapid speed and covers a wide range. Receiving information at a rapid pace, analyzing, processing, theoretically summarizing, summarizing and delivering it to the student is one of the urgent problems facing the educational system. The application of advanced pedagogical integrative technology to the educational process serves to positively solve the above-mentioned current problem.

Key words: *biology, cytology, student-youth, educational technologies, education, effectiveness of teaching subjects, stages of continuous education, educational process, educational technologies, modern educational tools.*

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulodda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini integrativ texnologik yondoshuv asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy talab va ijtimoiy buyurtma nafaqat ishlab chiqarish jarayonidagi ilg'or texnologiyalarni qo'llash balki kadrlar tayyorlashga bo'lgan talab asosida ta'lim integrativ texnologiyalarini takomillashtirish masalasini qo'yadi deyish mumkin. Axborot-



kommunikatsion va ta'limiy texnologiyalarni integrativ variantlarini barchasini to'g'ridan-to'g'ri ta'lim jarayoniga qo'llayverish yuksak samara bermasligi mumkin.

Ta'limdagi integrativ texnologik jarayonlarning asosiy mazmunini yaratilgan ilmiy manbalarga tayanib quyidagicha izohlash mumkin deb hisoblaymiz:

Birinchidan, an'anaviy o'qitish yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'radi hamda «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanadi. Bunda o'qituvchi nafaqat o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini boshqaruvchisiga, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolayotganligi xavfli holatdir. Shu asosga ko'ra ta'lim jarayonida axborot-ta'limiy muhitni shakllantirish va unda o'qituvchining faoliyati dominat bo'lishi zarur. Ikkinchidan, axborotlar hajmining ko'payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklanganligi hamda ularni saralash va tizimlashtirish (sistemalashtirish)ning birmuncha murakkabligi ham yangicha media makon prinsiplari asosida yondoshuvni taqozo etadi.

Uchinchidan, ta'lim jarayoniga integrativ texnologiyalarning uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv obyektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metod va uslublar doirasidan chiqib ketishga va tabiiy ravishda, integrativ texnologik yondoshuvlarni qo'llashga ehtiyoj sezadi.

Biologiya fanini o'qitish jarayonida integrativ texnologiyalarning ham o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha belgilandi:

Birinchidan, bu holat uchun tashhisli maqsadni o'rnatish mumkin emas. Inson murakkab tizim hisoblanib, qator psixologik, psixofiziologik va alohida shaxs sifatlariga ega. Ularni tavsifiy ravishda yoritish ham, zarur darajada shakllantirish mumkin bo'lgan pedagogik jarayonlarni tuzishni ham pedagogika fanining bugungi rivojlanish darajasi bilan amalga oshirib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, har qanday integrativ texnologiya o'rnatilgan maqsadlarga kafolatli erishishni ko'zda tutadi, biroq afsuski, shu kunga qadar pedagogikada insonning tarbiyalanganlik, unda shakllangan ma'lum shaxs sifatleri, qadriyatli yo'nalishlar va boshqa tarbiya natijalari mezonlari bir qolipda aniqlanmagan. Bunday mezonlarning yo'qligi esa kafolatlangan pedagogik jarayonlar natijalariga erishish imkoniyatlari haqida fikr bildirishga imkon bermaydi. Subyektiv ekspert baholardan foydalanish esa belgilangan muammoni olib tashlashga yo'l qo'ymaydi.

Uchinchidan, o'quv ta'lim muassasalarida zamonaviy tarbiya konsepsiyasiga binoan hozirgi vaqtda gap o'quvchilarda ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirish haqida emas, balki ularning o'zlarini takomillashtirish uchun eng maqbul sharoit



yaratish hakida borishi kerak. «Sitologiya va genetika asoslari» fanini o'qitishda foydalanilgan texnologik va adaptiv metodlarning yetarli tavsiflanmaganligi «Sitologiya va genetika asoslari» kursi bo'yicha foydalanilishi lozim bo'lgan texnologiyalarning adaptiv (fanga moslashtirilgan) xaritasini ishlab chiqish va shu asosdagi ta'limiy texnologik jarayonlarni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llab, ularning natijalarini umumlashtirishni taqozo etadi.

Demak, ta'lim jarayoniga integrativ texnologik yondoshuv masalasi qandaydir umumiylik xususiyatiga ega. Chunki ta'lim jarayonida foydalanilayotgan integrativ texnologiyalar pedagogik va axborot-kommunikativ texnologiyalarga bo'lishni taqazo etadi. Bu integrativ texnologiyalarning yo'nalishlari har xil bo'lgani bilan, ularning uzviylashadigan umumiy tomonlari ham bor. Bu masalada «Sitologiya va genitika asoslari»ni maktabda o'rganishda axborot-kommunikativ texnologiyalarni qo'llashning optimal(samarali) yo'llarini belgilashda uzviylik prinsiplarini tadqiq etish hamda ularning aniq kriteriyalari(mezonlari)ni belgilash dolzarb masala ekanligi kuzatildi. Bu belgilangan aniq kriteriyalar quydagicha ekanligi izohlandi:

Birinchidan, pedagogik, didaktik va metodik jarayonlarning «Sitologiya va genitika asoslari» kursini o'rganishdagi asosiy xususiyatlari bu an'anaviy ta'lim metodlarini konservatsiya(saqlab qolish)qilish emas, balki bularning integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari mazmuniga singdirish zarurligini tavsifladi. Chunki ilgari ta'lim jarayonidagi barcha pedagogik, didaktik va metodik jarayonlarning uyg'unlashgan prinsiplari mavjudligi va ulardan foydalanish jarayonidagi ijobiy tomonlarini olish zarurligi tadqiq etildi. Hech kim zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashda pedagogik, didaktik va metodik jarayonlarni chiqarib tashlash tarafdori emas. Agar u nazariyotchimi, metodistmi yoki maktab o'qituvchisimi bu masalaga jiddiy yondoshish talab etiladi.

Ikkinchidan, ta'lim jarayoniga XX asming 90-yillari hamda XXI asrda ta'lim jarayoniga qo'llash uchun chet ellardagi mavjud texnologiyalarning 200 ga yaqini respublikamiz olimlari, nazariyotchilari va metodistlariga tavsiya etildi. Lekin ularni barchasini «Sitologiya va genitika asoslari» kursini o'rganishga tavsiya etib bo'lmaydi. Bulardan foydalanish uchun mazkur texnologiya va metodlarning adaptatsiya etilgan variantlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi.

Uchinchidan, adaptatsiya qilingan ta'lim texnologiyalarini barchasidan ma'lum dars jarayoniga yoki mavzular sikli bo'yicha qo'llash masalasini ham ishlab chiqdik. Adaptiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uchun aniq mavzular va mavzular siklini ishchi tartibda belgiladik.



Pedagogik va axborot texnologiyalarini uyg'unlashgan mashg'ulotlarni umum ta'lim maktablaridagi «Sitologiya va genetika asoslari» mashg'ulotlarida emas balki, akademik litsiy va kasb hunar ta'limining biologiya ta'limi yunalishlarida ham moslashtirib foydalanish samarali natija beradi.

Adaptiv ta'lim texnologiyasining regulyativ ta'siri shundaki, u tadqiqotchi va amaliyotchilarni insoniy faoliyatining barcha jabhalariga, jumladan, ta'lim sohasiga ham undaydi:

- mazkur jarayonning natijaviyligini asoslashga ro'baro' keladi;
- fan va tajribalarning so'nggi yutuqlaridan talab qilingan natijalarni olishni kafolatlash uchun safarbar qilinadi;
- faoliyatni intensiv, ya'ni yuqori ilmiy asosda qurish (aksincha, kuch, vaqt va resurslarni bekorga sarflashga olib keladigan ekstensiv asosda emas);
- faoliyatni mumkin bo'lgan tuzatish muolajalari sonini kamaytirish maqsadida bashoratlash va loyihalashga asosiy e'tibor qaratiladi;
- axborot-ta'lim vositalaridan foydalanish, eskirgan amallarni avtomatlashtirish yo'lga qo'yiladi. Media makon muhiti yaratiladi.

Yuqoridagi tahliliy prinsiplar asosida ta'limiy faoliyatning intensivlashuvi va integratsion jarayonlarning vujudga kelishi imkoniyatida media olami va axborot-kommunikativ muhitning yaratilishiga asos bo'ladi. Jumladan, keyingi prinsipda ta'lim jarayoniga «yangi axborot vositalar»ni joriy etish hamda ilgari eskirgan ta'limiy amallarni avtomatlashtirish muammosini qo'yadi. Bu esa ta'limdagi yangi integratsiyaga asoslangan infokommunikatsion jarayonlarning uzviylashuvini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Токачаева А.А. Школьник в информационной среде. // Биология в школе 2008. №3 С. 21-23
2. Журин А.А. Информационная безопасность как педагогическая проблема // Педагогика, 2001. №4
3. Медиаобразование, интегрированные с базовым // Под. Ред. А.А.Журина. М.: Просвещения, 2001. С.9-97
4. D.Ashurova. Mediata'lim va talabalar faolligini oshirish muammolari// «Pedagogik mahorat» 2/2009. B.45-48



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNI JISMONIY FAOLLIK VA SOG'LOM TURMUSH TARZIGA O'RGATISH

Z.PALIBAYEVA,
O'zDK, (PhD) dotsent

Bugungi kun yoshlari har tomonlama sog'lom, chidamli va albatta sog'lom turmush tarziga rioya qilishi lozim bo'lgan holda tarbiyalanishi uzluksiz ta'lim tizimining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda mazkur maqola ham bevosita yoshlarni sog'lom hayotga yo'naltirish, ularning vaqtlarini jismoniy faol harakat bilan bog'lash masalalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, o'quvchi-yoshlar, sog'lom hayot, jismoniy mashqlar, jismoniy faol hayot, chidamlilik, jismoniy harakatlar, tanadagi sog'lomlikni asrash, salomatlik uchun kurashish.

It is one of the main requirements of the continuous education system that today's young people should be brought up in a healthy, resilient and healthy way of life. In this sense, this article is directly devoted to the issues of directing young people to a healthy life, connecting their time with physical activity.

Key words: educational system, students-youth, healthy life, physical exercise, physically active life, endurance, physical activity, maintaining body health, fighting for health.

Yoshlar muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish asnosida, o'zlarida chaqqonlik, epcillik, abjirlik, tezlik, kuchlilik, egiluvchanlik, muvozanatni saqlay olish, chidamlilik kabi sifatlarni shakllantirib boradilar. Muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmaydigan kishilar tez kasallikka chalinaladilar. Kam harakatlanish, harakat faoliyatini chegaralash organizmni yetarli toza havo bilan ta'minlamasligiga, kislorod tanqisligiga olib keladi, jismoniy chiniqishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pgina kasalliklarning oldini olishda jismoniy mashqlar yoki oddiy jismoniy faollik muhim rol o'ynaydi. Yaponiya olimlari har bir kishi kuniga kamida 10 ming qadam yurishini jismoniy faollik mezoni hisoblaydilar.

Amerikalik kardiolog N.P. Uayt va rossiyalik akademik A.Myasnikov fikriga ko'ra, sog'lom odam bir kunda 10 km. piyoda yurishi lozim. Albatta, kishi birdaniga 10 km. piyoda yura olishi qiyin. Bunga kishi o'zini asta-sekin tayyorlashi lozim. Ilk mashg'ulotlarda nafas olish 2-3 qadamda, chiqarish esa 5-6 qadamda bo'lishi lozim. Yurish va yugurishda eng muhimi kishi gavdasini to'g'ri tutishidir. Bunday qilish ko'krak qafasi va o'pka faoliyatini yaxshilab, organizmning kislorod bilan yetarlicha ta'minlanishiga olib keladi. Gavdani to'g'ri tutishni o'rganish uchun muskullar ishini yaxshilashga doir maxsus mashqlarni bajarib turish lozim.



Mutaxassislarning kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, yurishni mashq qilish arterial bosimni pasaytiradi, bosh og'rig'i va aylanishining oldini oladi. Bosh suyagi ichidagi arterial bosimning oshishi kasalligini yurish bilan davolash qadimdan ma'lum. Piyoda yurish orqali muskullar, tananing barcha qismlariga tarqalib ketgan mayda tomirlar kengayadi. Qonning qayta taqsimlanishi oqibatida fiziologik surilish jarayoni yaxshilanib, bu esa qon bosimini normallashtiradi[1].

Yoshlarda sog'lom turmush tarzining shakllanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan biri kashandalikdir. Hozirgi vaqtda bu yoshlarning sigaretaga ruju qo'yayotganligida namoyon bo'lmoqda. Maxsus o'tkazilgan tekshirishlar ko'rsatadiki, chekish oqibatida qon tomirlari torayib, kislorod bilan ta'minlash qiyinlashadi, yurak zo'riqadi. Kundalik normal vazifalarni bajarganda chekish oqibatida yurak 15 ming marta ko'p zo'riqib ishlaydi. Kashandalarda 13 barobar yurak ishemiya kasalliklari ko'proq uchraydi. Har 100 ta yurak infarktidan 88 tasi kashandalarga to'g'ri keladi. Har kuni 20 dona sigareta chekadigan kishida bu kasallik 12 marta ko'p uchraydi. Miokard infarkt kasalligiga duchor bo'lganlarning har 10 tasidan 8 tasi kashandalardir[2].

Bu esa nerv hujayralari, yurak, jigar, tomirlarning kasallikka chalinishiga asosiy sabab bo'ladi. Oqibatda kishini tez qarishiga olib keladi. Har kim, har kuni 1-2 soat piyoda yurish, sayr qilish, yugurish, lijada yurish, basseynda cho'milish uchun vaqt ajrata oladi. Faqat buni kundalik turmushning ajralmas qismiga aylashtirish, organizmni shunga odatlashtirishdan erinmaslik kerak. Muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish nafaqat sog'lom turmush tarzini ta'minlaydi, balki kishi hayotiga tartib intizom, yurish turishida qat'iy rejim o'rnatishga ham asos bo'ladi. Faqat bu emas, kishidagi yalqovlik, ishyoqmaslik kabi salbiy xarakter xislatlarini yengishga yordam beradi, o'z-o'ziga ishonchni mustahkamlab, mehnat unumdorligini oshiradi.

Yoshlarda sog'lom turmush tarzini tarbiyalashda shaxsiy va ijtimoiy gigiena ham muhimdir. Ta'kidlash lozimki, jismoniy mashqlarni muntazam amalga oshirishda sanitariya-gigiena sharoiti ham muhim hisoblanadi. Jismoniy mashqlarni bajarishda quyidagi gigiena shartlariga rioya qilish lozim:

- a) har kungi jismoniy mashqlar toza havoda yoki shamollatilgan xonada bo'lishi;
- b) muskullarning torayishi, cho'zilishi, bo'shishi mashqlarini o'zgartirib turish;
- v) mashqlarning organizmga mos miqdori, oralig'i, tezligi, maromi va ritmiga rioya qilish;
- g) 6-8 harakatni birdaniga 10-30 soniyalik to'xtalishdan keyin bajarish;
- d) jismoniy mashqlarni yuvinish yoki suvda cho'milish bilan yakunlash[3].



Sogʻlom turmush tarzini taʼminlashda kishining kundalik yurish-turishi, xulq-atvori, rejimi muhim hisoblanadi. Oʻz navbatida bularning qaror topishida jismoniy tarbiya va sport muhim oʻrin egallaydi. Ammo muntazam jismoniy mashqlar bilan shugʻullanish odatini shakllantirishda yuqorida keltirilgan shart-sharoitlar bilan birga havo, suv, ovqatlanish, uyqu, shaxsiy gigiena ham muhim ahamiyatga ega. Bular jismoniy mashqlarni amalga oshirishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarini belgilaydi.

Sogʻlom turmush madaniyati haqida oʻsmirlarda bilim, koʻnikma va malaka hosil qilishga maqsadli yondashish lozim. Ularda quyidagi layoqatlarni hosil qilishga intilish zarur:

- sogʻlom turmush madaniyati asoslari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni izlash va topish (oʻqituvchi-murabbiylar tomonidan taqdim qilingan materiallarni oʻzlashtirish, lugʻatlar va kitoblardan tegishli maʼlumotlarni olish, imkon doirasida barcha vositalardan axborotlar olish);

- murabbiy kuzatuvda sogʻlom turmush madaniyatiga tegishli har qanday voqelik va jarayonlarni kuzatish, qayd etish, yiqish, yozib olish va oʻzlashtirish;

- sogʻlom turmush madaniyati asoslari haqida maʼlumotlarni bevosita qabul qilish, tanlash, tahlil qilish va baholash, ularni saralay olish;

- oʻz faoliyatini yzi kuzatib borishga oʻrganish, taʼlim meʼyorlari va talablarini oʻz vaqtida bajarishga koʻnikish;

- sogʻlom turmush madaniyati asoslarini oʻzida mujassam etgan barcha fanlardagi (biologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya kabi) maʼlumotlarni uygʻun oʻzlashtirish;

- shaxsiy gigiena vositalaridan foydalanishni oʻrganish;

- sogʻlom turmush madaniyati muammolarini muhokama qilishda faol ishtirok etish.

Yoshlarni salomatlik haqida umumiy maʼlumotlarni olishlari, tegishli meʼyorlarni bajarish imkoniyatlariga ega boʻlishlari kerak.

Bu borada eʼtiborda quyidagi layoqatlarni oʻstirishga eʼtibor qaratish lozim:

- sogʻlom turmush madaniyati asoslariga oid biologik, fiziologik va tibbiy maʼlumotlarni izlash, topish va oʻzlashtirish;

- salomatlik asoslariga oid maʼlumotlarni oʻzlashtirish, individual va jamoaviy loyihalarda ishtirok etishni oʻrganish;

- shaxsiy gigiena talablariga rioya qilishga oid koʻnikma hosil qilish;

- sogʻlom turmush kechirish asoslari bilan tanishish kabilar.

Gigiena sohasida faoliyat koʻrsatayotgan olimlarning taʼkidlashlaricha organizmning sogʻlom, faol oʻz funksiyasini bajarishida havoning tozaligi katta ahamiyatga ega.



To'g'ri ovqatlanish organizmning me'yoriy faoliyat ko'rsatishining asosidir. Tirik organizmda doimo organik moddalar sarflanishi sodir bo'ladi. Aqliy mehnat yoki muskul harakatlari paytida organizmdagi organik moddalarning parchalanishi tezlashib, parchalangan mahsulotlar o'pka, teri, buyrak, ichaklar orqali tarqaladi.

Yo'qotilgan energiya yoki moddalarni to'ldirishning asosiy manbai iste'mol qilinadigan ovqat bo'lib, ular turli yog', oqsil, uglevod, mineral tuz, vitamin va suvga serob bo'lishi lozim. Sog'lom kishining ovqatlanishi organizmning faoliyati uchun sharoit yaratadi, uning funksiyalarini tiklaydi.

Bunda eng muhimi ovqatlanish rejimi yoki gigienasiga rioya qilishdir. Ovqatlanish tartibli, ritmik va kaloriyali bo'lishi lozim. Kuniga 4 mahal – ertalab ishga ketish oldidan, tushda, kun og'ganda va uyqudan 2 soat oldin kechki ovqatlanish lozim.

Kishining mehnat faoliyati va bajaradigan mehnatining xarakteriga qarab, ovqatning to'yimliliigi-kaloriyasi har xil bo'lishi aniqlangan. Sportchilar musobaqalar va mashqlar paytida ovqatida 4500-5000 kaloriya bo'lishi talab qilinadi. Kishi har qanday mazali, yoqimli ovqatdan o'zini tiyishi lozim. Chunki ko'p ovqat iste'mol qilish foyda emas, zarar keltiradi. Kishi tanasi og'irligining oshishiga, semirish va turli kasalliklarning kelib chiqishiga olib keladi.

Uyqu-inson salomatligini asrovchi muhim vositadir. Shuning uchun uyqu normal va doimiy bo'lishi lozim. Uyqu paytida inson kuchi 3 karra tez tiklanadi. Katta kishi har kuni 7-8 soat uzluksiz uxlashi yetarli hisoblanadi. Inson organizmidagi sutkalik kechadigan jarayonlar ko'rsatadiki, uyqu normal bo'lishi uchun kechki ovqatlanish ham me'yorida bo'lishi, ovqatlanish uyqudan 2 soat oldin bo'lishi lozim. Kechki ovqat yengil, tez hazm bo'ladigan bo'lishi muhim. Kechki uyqudan oldin toza havoda qisqa sayr qilish ham foydalidir.

Havo issiq vaqtlarda derazani ochiq qo'yib, qishda esa, xonani yaxshi shamollatib yotish tavsiya qilinadi. Yotadigan to'shak alohida, uncha yumshoq emas, ko'rpa yengil bo'lishi lozim. Yotganda boshni ko'rpa bilan yopmay o'ng yonbosh yoki chalqancha yotish kerak.

Turish oldidan bir necha marta chuqur nafas olish, yotgan joyda qo'l, oyoqlar, nafas yo'llari uchun bir necha yengil mashq qilish foydalidir.

Shaxsiy gigienaga rioya qilish salomatlikni muhofaza qilishning eng muhim vositalaridan biridir. Hayotiy jarayonlarning me'yoriy kechishi uchun badan, teri, og'iz bo'shlig'i gigienalariga rioya qilish juda muhimdir. Terini ifloslik, ter va turli yopishgan narsalardan tozalash turli teri kasalliklariga chalinmaslik garovidir.

Badanni toza tutish uchun uni tez-tez yaxshilab yuvish lozim. Bunda qo'lning tozaligiga alohida e'tibor berish zarur. Butun badanni toza tutishda bug'ga to'yingan hammomdan foydalaniladi. Har kun uxlashdan oldin uy haroratidagi suvda oyoqni yuvib yotishga odatlanish lozim.



Organizmining umumiy gigienik holati uchun bosh, sochlarga ham qarash, har 4-5 kunda issiq suv, sovun, shampun bilan yuvish kerak.

Muntazam ravishda og'iz bo'shlig'i tozaligiga rioya qilish tishlarning saqlanishiga asos bo'ladi. Buning uchun ovqatlangandan so'ng og'izni issiq suv bilan chayish, ertalab va uyqu oldidan tishlarni cho'tka bilan tozalash tavsiya qilinadi.

Kishi organizmining umumiy gigienik holatini ta'minlashda kiyim va oyoq kiyimi ham muhim o'rin tutadi. Chunki kiyim kishi badanini ifloslanish va mexanik ta'sirdan asrab, turli yil fasllarida me'yoriy issiqlik balansini ta'minlaydi. Kiyim yengil, qulay, issiqlik va havo o'tkazuvchi, erkin bo'lishi lozim.

Oyoqni qisuvchi kiyimlardan saqlanmoq kerak. Chunki ular panjalarni qisib, deformatsiyaga sabab bo'ladi, qon aylanishini qiyinlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan gigiena masalalari yoshlarni jismoniy chiniqtirishga yordam berish bilan birga, ularda normal, sog'lom hayot tarzining shakllanishi uchun ham muhim zamin hozirlaydi.

Yoshlar sog'lom turmush madaniyati asoslari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Bu borada o'smirlarda quyidagi ko'nikmalarni tarkib toptirish lozim:

- sharoitga mos ravishda sog'lom turmush madaniyatining me'yor va talablarini tezkor tanlay olish;
- maqbul metod va vositalarni o'zlashtirish;
- o'z tengdoshlarida sog'lom turmush madaniyatini targ'ib qilish;
- sog'lom turmush madaniyatining amaliy jihatlari va ta'sirlarini anglab yetish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajanov N., Hamroqulov X. Jismoniy faollik mezoni e'ki o'n ming qadam. / Sog'lom avlod jurnali, 2006 yil, 1 -soni, 23-bet.
2. Alijon Aminov. O'zingizni balolarga giriftor qilmang. / Sog'lom avlod jurnali, 2006 yil, 7 -soni, 21-22 betlar.
3. Vaykbaum Ya.S. Jismoniy tarbiya gigienasi.-T.: O'qituvchi, 1998, 97-bet.



TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA UZLUKSIZ TAYYORLASHDA TANQIDIY FIKRLASHNING TURLARI

A. O. GULYAMOVA,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi

*O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy
tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

Ushbu maqolada talabalarni kasbiy faoliyatga uzluksiz tayyorlashda tanqidiy fikrlash tarzining turlari tahlil qilinib, tanqidiy fikrlash – inson aqliy faoliyatining turli turlarini o'zida mujassamlashtirgan obyektiv fikrlash tarzini ifodalovchi tushuncha ekanligi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: fikrlash, tanqidiy fikrlash, kasbiy faoliyat, deduktiv fikrlash, induktiv fikrlash, analitik fikrlash, tergov tafakkuri, tizimli fikrlash, ijodiy fikrlash, konvergent fikrlash, sinvergent fikrlash, konseptual fikrlash, metaforik fikrlash.

В данной статье анализируются виды критического мышления при непрерывной подготовке студентов к профессиональной деятельности, а также поясняется, что критическое мышление – это понятие, представляющее собой объективный способ мышления, включающий в себя различные виды мыслительной деятельности человека.

Ключевые слова: мышление, критическое мышление, профессиональная деятельность, дедуктивное мышление, индуктивное мышление, аналитическое мышление, исследовательское мышление, системное мышление, творческое мышление, конвергентное мышление, синвергентное мышление, концептуальное мышление, метафорическое мышление.

This article analyzes the types of critical thinking in the continuous preparation of students for professional activity, and explains that critical thinking is a concept that represents an objective way of thinking that incorporates various types of human mental activity.

Keywords: thinking, critical thinking, professional activity, deductive thinking, inductive thinking, analytical thinking, investigative thinking, systematic thinking, creative thinking, convergent thinking, synvergent thinking, conceptual thinking, metaphorical thinking.

«Pedagogika» ensiklopediyasi[2]da keltirilishicha, tanqidiy fikrlash – inson aqliy faoliyatining turli turlarini o'zida mujassamlashtirgan obyektiv fikrlash tarzini ifodalovchi tushuncha.

Tanqidiy fikrlash – g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro'y beradigan jarayon ham bo'lib hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiyla-nayranglar kamroq ta'sir qiladi, o'zining shaxsiy qarashlar tizimi bo'lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo'ladilar [2].



Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo'lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi[3].

Fikrlash barcha odamlarda keng tarqalgan bo'lib, har bir shaxs bir qator o'ziga xos bilim va ko'nikmalarga ega. Boshqacha qilib aytganda, har bir inson turli xil fikrlash jarayonlarini qabul qilishi va rivojlanishi mumkin[4].

Psixologiyada inson fikrlash tarzining bir necha turlari farqlanadi. Quyida ularga batafsil to'xtalamiz.

1. Deduktiv fikrlash. Deduktiv mulohaza yuritish – bu bir qator fikrlardan xulosa chiqarishga imkon beradigan fikrlash turi. Boshqacha aytganda, bu «umumiy» dan boshlanib, «o'ziga xos» narsaga erishish uchun boshlangan aqliy jarayondir. Fikrlashning bunday turi narsalarning sababi va kelib chiqishiga qaratilgan. Bu xulosalar va mumkin bo'lgan yechimlarni keltirib chiqarish uchun muammo tomonlarini batafsil tahlil qilishni talab qiladi. Bu kundalik ravishda keng qo'llaniladigan fikrlash jarayoni. Odamlar xulosa chiqarish uchun kundalik narsalarni va vaziyatlarni tahlil qilishadi.

2. Tanqidiy fikrlash. Tanqidiy fikrlash – bu narsalarni ifodalashga harakat qiladigan bilimlarni tashkil etish usulini tahlil qilish, tushunish va baholashga asoslangan aqliy jarayon. U yuqori amaliy fikr sifatida tasniflanadi. Bu orqali bilim eng samarali va asosli xulosaga kelish uchun ishlatiladi. Tanqidiy fikrlash shu tariqa fikrlarni konkret xulosalarga olib kelish uchun tahlil baholaydi.

3. Induktiv fikrlash. Induktiv fikrlash qarama-qarshi fikrlash usulini belgilaydi. Shunday qilib, fikr yuritishning bu usuli general haqida tushuntirish izlash bilan tavsiflanadi. Keng ko'lamli xulosalar olish uchun o'ziga xos qism. Ularni o'xshash holatga aylantirish uchun uzoq vaziyatlarni qidiradi va shu bilan vaziyatlarni umumlashtiradi.

4. Analitik fikrlash. Analitik fikrlash axborotni tahlil qilish, buzish, ajratishdan iborat. Bu tartibli bo'lish bilan tavsiflanadi, ya'ni ta'qib qilinadigan ratsional ketma-ketlikni taqdim etadi. Shu tarzda, analitik fikrlashga asoslangan muammolarni yechish umumiylikdan boshlanadi va uni to'liq anglash uchun uning o'ziga xos xususiyatlarini buzadi. U har doim javob topishga qaratilgan, shuning uchun u o'ta hal qiluvchi fikrlash turidan iborat.

5. Tergov tafakkuri. Tergov tafakkuri narsalarni tekshirishga qaratilgan. U buni puxta, qiziqish va qat'iyat bilan bajaradi. Shu ma'noda, ushbu turdagi mulohazalar o'zaro munosabatni ham, bilim jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Tergov tafakkuri tafakkur tarzini talab qiladi. Unda savollar va yechimlar doimiy ravishda ishlab chiqiladi. Bu ijodkorlik va tahlil o'rtasidagi aralashdan iborat.



6. Tizimli fikrlash. Tizimli fikrlash – bu turli xil quyi tizimlar yoki o‘zaro bog‘liq omillardan tashkil topgan tizimda yuzaga keladigan fikrlash turi. U narsalarning to‘liqroq va sodda ko‘rinishini tushunishga qaratilgan yuqori darajada tuzilgan fikrlash turidan iborat. Ishlarning qanday ishlashini tushunishga va ularning xususiyatlarini keltirib chiqaradigan muammolarni hal qilishga harakat qiling. Bu bugungi kungacha uchta asosiy yo‘nalishda: fizika, antropologiya va ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlarda qo‘llanilgan murakkab fikr hisoblanadi.

7. Ijodiy fikrlash. Ijodiy tafakkur yaratish qobiliyatiga ega bo‘lgan bilim jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bu haqiqat yangi bo‘lgan yoki fikrlash orqali qolganlardan farq qiladigan elementlarning rivojlanishiga turtki beradi. Shunday qilib, ijodiy fikrlash o‘ziga xosligi, egiluvchanligi va ravonligi bilan ajralib turadigan bilimlarni egallash deb ta’riflanishi mumkin. Bu bugungi kunda eng qimmatli kognitiv strategiyalardan biri hisoblanadi, chunki bu muammolarni yangicha shakllantirish, tuzish va hal qilishga imkon beradi.

8. Fikrlashning sintezi. Sintetik fikrlash narsalarni tashkil etuvchi turli elementlarning tahlili bilan tavsiflanadi. Uning asosiy maqsadi ma’lum bir mavzudagi g‘oyalarni kamaytirishdir. Bu shaxsiy o‘rganish uchun muhim bo‘lgan fikrlash turlaridan iborat. Sintez tafakkuri elementlarni xotirada saqlashga imkon beradi, chunki ular umumlashtiruvchi jarayonga duchor bo‘ladi.

9. So‘roqli fikrlash. So‘roq tafakkuri savollarga va muhim jihatlarni so‘roq qilishga asoslanadi. Mavjud mavzuning o‘ziga xos xususiyatlarini asta-sekin bilish uchun savoldan foydalaning. Shu tarzda, savolli fikrlash savollardan foydalanish natijasida paydo bo‘ladigan fikrlash tarzini belgilaydi. Ushbu mulohazada hech qachon kamlik bo‘lmaydi, chunki aynan shu element o‘z fikrlashini rivojlantirishga va ma’lumot olishga imkon beradi.

10. Turli fikrlash. Ikki tomonlama fikrlash, shuningdek, lateral fikrlash deb ham ataladi. Bu doimo muhokama qiladigan, shubha qiladigan va muqobillarni izlaydigan fikrlashning bir turi. Bu bir nechta yechimlarni o‘rganish orqali ijodiy g‘oyalarni yaratishga imkon beradigan fikrlash jarayoni.

11. Konvergent fikrlash. O‘z navbatida, konvergent tafakkur divergent tafakkurga qarama-qarshi fikr yuritish turidir. Darhaqiqat, divergent fikrlash miyaning o‘ng yarim sharidagi asabiy jarayonlar tomonidan boshqarilishi uchun qo‘yilgan bo‘lsa, konvergent fikrlash chap yarim shardagi jarayonlar tomonidan boshqariladi. U tasavvur qilish, muqobil fikrlarni izlash yoki so‘rash qobiliyatiga ega emas va odatda bitta g‘oyaning qaror topishiga olib keladi.

12. Sinvergent fikrlash. Yaqinda paydo bo‘lgan va Maykl Gelb tomonidan o‘ylab topilgan ushbu mulohaza turlicha fikrlash va konvergent fikrlash o‘rtasidagi kombinatsiyani anglatadi. Shunday qilib, bu konvergent tafakkurning batafsil va



baholash tomonlarini o'z ichiga olgan va ularni divergent tafakkur bilan bog'liq bo'lgan muqobil va yangi jarayonlar bilan bog'laydigan fikrlash uslubidir.

13. Konseptual fikrlash. Konseptual fikrlash muammolarni aks ettirish va o'z-o'zini baholashni rivojlantirishni ichiga oladi. Bu ijodiy fikrlash bilan chambarchas bog'liq va uning asosiy maqsadi aniq yechimlarni topishdir. Biroq, xilma-xil fikrlashdan farqli o'laroq, ushbu fikrlash turi ilgari mavjud bo'lgan uyushmalarni ko'rib chiqishga qaratilgan. Konseptual fikrlash mavhumlik va aks ettirishni nazarda tutadi va bu turli ilmiy, kundalik va professional sohalarda juda muhimdir.

14. Metaforik fikrlash. Metafora tafakkuri yangi aloqalarni o'rnatishga asoslangan. Bu fikrlashning juda ijodiy turi, ammo u yangi elementlarni yaratish yoki olishga emas, balki mavjud elementlar o'rtasidagi yangi aloqalarga e'tibor beradi. Fikrlashning ushbu turi bilan hikoyalar yaratish, tasavvurni rivojlantirish va ushbu elementlar orqali ba'zi jihatlarni baham ko'radigan yaxshi farqlangan jihatlar o'rtasida yangi aloqalarni yaratish mumkin.

15. An'anaviy tafakkur. An'anaviy fikrlash mantiqiy jarayonlardan foydalanish bilan tavsiflanadi. U yechimga e'tibor qaratadi va uni hal qilish uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan elementlarni topish uchun o'xshash real vaziyatlarni izlashga qaratilgan.

Xulosa. Shunday qilib, talabalarni kasbiy faoliyatga uzluksiz tayyorlashda tanqidiy fikrlash tarzining har xil turlarini bilish va rivojlantirishni o'rganish muhimdir. Bu haqiqat insonning bilim qobiliyatlaridan to'liq foydalanish va turli muammolar uchun turli qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz>

2. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 424-bet.

3. Xalpern D. Психология критического мышления. - СПб.: Питер, 2000.

4. Xodjayeov B. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish. Diss. avt. Toshkent, 2016. 82 b.

5. <https://xabardor.uz/kr/post/fikrlashning-15-turi-va-ularning-qanday-ishlashi-haqida>



IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARINI BADIY-IJODIY QOBILIYATLARINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISHDA AMALIY BEZAK SAN'ATINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

K.M.GULYAMOV,

*K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti, «Amaliy bezak san'ati»
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirishda amaliy bezak san'atining o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirishda amaliy bezak san'atining didaktik imkoniyatlari aniqlangan. Muallif tomonidan amaliy bezak san'atining rolini tahlil qilish asosida badiiy-estetik tarbiya doirasida o'quvchilarning estetik madaniyatini shakllantirishga ta'sirining mohiyati va o'ziga xosligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *amaliy bezak san'ati, badiiy ta'lim, badiiy-estetik tarbiya, badiiy-ijodiy qobiliyat, didaktik imkoniyat, ijodkorlik.*

В статье рассматривается роль декоративно-прикладного искусства в развитии художественно-творческих способностей учащихся специализированных школ. Также выявлены дидактические возможности прикладного декоративно-прикладного искусства в непрерывном развитии художественно-творческих способностей учащихся. На основе анализа роли практического декоративного искусства автор раскрыл сущность и своеобразие его воздействия на формирование эстетической культуры учащихся в рамках художественно-эстетического воспитания.

Ключевые слова: *декоративно-прикладное искусство, художественное образование, художественно-эстетическое воспитание, художественно-творческие способности, дидактическая возможность, творчество.*

The article examines the role of decorative and applied arts in the development of artistic and creative abilities of students in specialized schools. The didactic possibilities of applied arts and crafts in the continuous development of students' artistic and creative abilities have also been identified. Based on an analysis of the role of practical decorative art, the author revealed the essence and originality of its impact on the formation of the aesthetic culture of students within the framework of artistic and aesthetic education.

Key words: *decorative and applied arts, art education, artistic and aesthetic education, artistic and creative abilities, didactic opportunity, creativity.*



O'quvchilarning badiiy-estetik rivojlanishi o'z vazifalarini faqat shaxsning estetik tuyg'ulari, badiiy didi, ideal, ehtiyoj, qarashlari va e'tiqodlarini shakllantirish bilan cheklanmaydi. Ularda badiiy-estetik rivojlanish jarayonida dunyoni uyg'unlik, mukammallik va go'zallik nuqtai nazaridan idrok etish va baholash qobiliyati rivojlanadi. Buni shaxsni badiiy-estetik madaniyatining ajralmas qismi sifatida e'tirof etish joiz. Shaxsni tarbiyalash jarayoni unda dunyoni o'z maqsad va istaklariga muvofiq ijodiy o'zgartirish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Ixtisoslashtirilgan maktabda badiiy-estetik tarbiyaning vazifasi har bir bolaning ma'naviy salohiyatini saqlash, uni boyitish va rivojlantirishdan iborat.

Ijodkorlik va ijodiy faoliyat insonning qadr-qimmatini belgilaydi, shuning uchun ijodiy shaxsni shakllantirish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ixtisoslashtirilgan maktab faoliyatining samaradorligini ta'lim jarayonining o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlashi, ijodiy shaxsni shakllantirishi hamda uni to'liq kognitiv va ijtimoiy mehnat faoliyatiga tayyorlashi bilan belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash jarayonida amaliy bezak san'atining ijodiy salohiyatidan foydalanish ular atrofida to'laqonli, mukammal estetik muhitni yaratishga yordam beradi. Shuningdek, shaxsning hissiy-obrazli tarkibiy qismiga foydali ta'sir ko'rsatish bilan birga, ularning klassik va zamonaviy madaniyat an'analari qiziqishini rivojlantirish orqali badiiy-kognitiv faoliyatni shakllantiradi.

Maqolaning maqsadi maktab o'quvchilarini badiiy-estetik tarbiyalashda amaliy bezak san'atining didaktik imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. Metodlari: amaliy bezak san'ati tarixi va ilmiy adabiyotlarni o'rganish, amaliy bezak san'atining ijodiy tamoyillaridan foydalanishning ilg'or tajribasini aniqlash va umumlashtirish, o'quvchilarning badiiy-ijodiy faoliyati natijalarini baholashning statistik usullari.

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich umumiy ta'lim doirasida maktab o'quvchilarini badiiy-estetik tarbiyalashning eng samarali vositasi sifatida ularni amaliy bezak san'atining jahon va milliy merosimining rang-barang, serqirraligi bilan muntazam tanishtirib borish hisoblanadi. Badiiy-estetik ta'limni tashkil etishda amaliy bezak san'atining ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, ularda badiiy-tasviriy san'atning turli janr va uslublari qiziqishlarini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy va badiiy-estetik fazilatlarini shakllantirish imkonini beradi.



Amaliy bezak san'atining badiiy syujetlarini hissiy-obrazli idrok yetish hunarmandchilikda texnologik ko'nikmalarni shakllantiruvchi asos hisoblanadi. Amaliy bezak san'ati mahsulotlarini bevosita idrok etish maktab o'quvchilariga yuksak san'at olamiga sho'ng'ish, ularga bolalar tasavvuriga xos bo'lgan badiiy fantaziyalarni yaratish imkonini beradi. Muzeylar, ko'rgazma zallari va ijodiy ustaxonalarga ekskursiyalar uyushtirishni o'quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalash-ning samarali vositasi sifatida e'tirof etish joiz. Turli tematik asarlarni batafsil tahlil qilish hissiy muhitni va san'atning har xil turlarini idrok yetish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, badiiy obyektning tushunishiga yordam beradi [3, 189-b; 6, 1044-b].

Amaliy bezak san'ati o'z mazmunida tarixiy voqealarni aks ettirib, maktab o'quvchilarida o'z ona yurti tarixi va an'analari qiziqishini rivojlantiradi. Amaliy bezak san'atiga oid badiiy asarlarni o'rganish o'quvchilarda atrof-dagi olamni badiiy-estetik jihatdan idrok etishni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining badiiy-estetik tarbiyasi ko'rilgan tabiat manzaralarini amaliy bezak san'ati asarlarida aks ettirish orqali shakllantiriladi. Bu esa ularda ilgari kuzatilmagan atrof-muhit hodisalariga yangicha qarashning shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, obyektga asoslangan amaliy bezak san'ati kompozitsiyalarining kelib chiqishini o'rganish talabalarning dunyoqarashini kengaytirishga va ko'pmillatli mamlakatimiz xalqlarining ko'p asrlik moddiy va ma'naviy madaniyati haqidagi tasavvurlarini mustahkamlashda alohida o'rin tutadi. Xususan, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari tomonidan ta'lim jarayonida olingan bilim, ko'nikma va malakalar ma'naviy-madaniy merosni badiiy-estetik idrok yetishni shakllantiradi hamda jahonning ilg'or badiiy an'analari yanada chuqur va samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi [5, 35-b; 8, 57-b].

Biroq, badiiy ta'limga zamonaviy yondashuvning barcha ijobiy tomonlari bilan birga, bizningcha, maktab o'quvchilarining estetik tarbiyasini shakllantirish tizimida, ularga xalq amaliy bezak san'atini o'rgatish jarayonida talabalarning badiiy-estetik rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi sezilarli kamchiliklar mavjudligini ta'kidlash joiz.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilariga badiiy-estetik tarbiya berish tizimidagi sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish zarurati bizni amaliy bezak san'ati darslarida taniqli xalq amaliy bezak san'ati ustalari asarlari reproduksiya-laridan tizimli foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga undadi. Bunday yondashuv maktab o'quvchilarining badiiy-estetik tarbiyasini shakllantirishda amaliy bezak san'atining o'rni va ahamiyatini asoslab berishga imkon beradi.



Shu ma'noda ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini badiiy-estetik tarbiyalashda amaliy bezak san'atining didaktik imkoniyatlarini amalga oshirish quyidagilarni nazarda tutadi:

– o'quvchilarning amaliy bezak san'atining turlari, uning badiiy, ifodali vosita va shakllari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;

– amaliy bezak san'atining o'ziga xos xususiyatlari, uslubiy jihatdan o'ziga xosligi bilan tanishish, mashhur xalq ustalari, rassomlar ijodi va ularning ijodiy merosini o'rganish;

– o'quvchilar tomonidan badiiy didni rivojlantirishni targ'ib qiluvchi, shaxsning ma'naviy-axloqiy va badiiy-estetik jihatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy bezak san'ati ijodiy merosining qadriyat ahamiyatini anglash;

– o'quvchilarning o'z ijodiy faoliyatiga barqaror qiziqishini shakllantirish, amaliy bezak san'ati vositasida tevarak-atrofdagi rang-baranglikka badiiy-estetik munosabatni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, ushbu yondashuvning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining estetik madaniyati darajasiga, uning badiiy ta'lim va estetik rivojlanishini tashkil etishning turli shakllarini o'quvchi shaxsini badiiy-estetik tarbiyalashning yagona tizimi bilan birlashtirish qobiliyatiga bog'liq ekanligini ta'kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гулямов К.М. Касб-хунар коллежларида халқ амалий санъатини ўқитиш методикаси (наққошлик санъати мисолида). Педагогика фанлари номзоди диссертацияси. - Т.: ТДПУ. 2012. -140 б.

2. Гулямов К.М. Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак амалий санъат ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Монография. - Т.: ТО'УТЕРА PRINT, 2020. - 156 б.

3. Ивахнова Л.А. Концепция и содержание программы подготовки магистра по направлению «Художественное образование. Изобразительное искусство» // Омский научный вестник. Серия: Общество, история, современность. Омск. 2011. № 3(98). С. 188-192.

4. Иманмурзаева А. У. Декоративно-прикладное искусство как средство эстетического воспитания младших школьников // Педагогика сегодня: проблемы и решения: материалы III Международной научной конференции. Казан, 2018. С. 87-89.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA «CASE-STUDY» TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

N.B. SULTANOVA,

Nizomiy nomidagi TDPU, dotsent v/b.

Ushbu maqolada Umumiy Yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak geografiya fani o'qituvchisining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengaytirishda «Case-Study» texnologiyasining ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, amaliy mashg'ulot darslarida «Case-Study» texnologiyasidan foydalanishga qo'yiladigan talablar va keyslar bilan ishlash bosqichlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Umumiy Yer bilimi, o'qituvchi, talaba, amaliy mashg'ulot, interfaol metod, pedagogik texnologiya, «Case-Study» texnologiyasi.

В данной статье раскрыты значение и особенности технологии «Case-Study» в расширении педагогических навыков и кругозора будущего учителя географии на практических занятиях по «Общее землеведение». Также на практических занятиях раскрываются требования к использованию технологии «Case-Study» и этапы работы с кейсами.

Ключевые слова: Общее землеведение, преподаватель, студент, практика, интерактивный метод, педагогическая технология, технология «Case-Study».

This article reveals the significance and features of the «Case-Study» technology in expanding the pedagogical skills and horizons of a future geography teacher during practical classes in «General Geography». Also, during practical classes, the requirements for using the Case-Study technology and the stages of working with cases are revealed.

Key words: General geosciences, teacher, student, practice, interactive method, pedagogical technology, «Case-Study» technology.

Bugungi kunda ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan pedagogik texnologiyalarning modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyihalash, alternativ, differensial, muammoli, didaktik o'yinlar, interfaol metodlarning «Charxpalak», «FSMU», «Insert», «Elpig'ich», «Bummering», «Zakovatli zukko», «Qarorlar shajarasi», «Qora quti», «Qarama-qarshi munosabat», «Blits o'yin», «Musbat, manfiy va qiziqarli» va boshqa ko'plab turlari mavjud. Ammo ulardan geografiya ta'limida foydalanish sohasida sezilarli ishlar hali qilingani yo'q. Vaholanki, mazkur metodlardan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham, oliy o'quv yurtlarida ham geografiya, xususan, Umumiy Yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish imkoniyati katta. Umumiy Yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlarni yuqoridagi metodlardan foydalanib tashkil etish va o'tkazish tartibi turlicha bo'lib, ta'lim jarayonida ushbu metodlardan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish geografiya fani o'qituvchisining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy pedagogik



texnologiyalardan biri hisoblangan «Case-Study» texnologiyasi o'zining qator xususiyatlariga ko'ra boshqa texnologiyalardan farq qiladi.

«Case-Study» texnologiyasi interfaol texnologiyalar guruhiiga kiradi. Sababi bu texnologiya ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi «subyekt-subyekt» munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Bunday o'quv faoliyatda talaba ta'lim olishning faol subyektiga aylanadi, unda jamoa bilan hamkorlikda ishlash, o'z fikrini bildirish va himoya qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Case-Study texnologiyasining asosiy maqsadi mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqal talaba (o'quvchi)larning bilim olish jarayonini faollashtirish va ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek, Case-Study texnologiyasi talabalarning egallagan nazariy bilim, ko'nikma, malakalarini hamkorlikda qo'llashga, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish orqali muqobil yechimini izlashga o'rgatuvchi ta'lim texnologiyasidir [124; 11-b.].

Bunda o'qituvchi ko'p variantli muammoni bayon qiladi, talabalar bu muammoni yechimini topish uchun o'z fikr va mulohazalarini aytadi, Mazkur jarayonda o'qituvchi talabalarning muammoni yechishda yetishmayotgan bilimlarni aniqlaydi, muammoni yechimini izlash va topishga kerakli ko'rsatma va tavsiyalar berib boradi. Bunda talabalar mustaqil faoliyatga yo'naltirilib, shu kungacha olgan bilimlarni umumlashtirib, o'z tajribasidan foydalangan holda muammoning o'ziga xos yechimini topish yo'llarini izlaydi. Bunday vaziyatda talabalardan ma'ruza mashg'ulotlarida egallagan nazariy bilimlaridan tashqari qo'shimcha ma'lumotlar, kundalik axborotlar ham kerak bo'ladi. Shuning uchun ham keys yechimini topish yo'naltiruvchi savollar bilan birgalikda adabiyotlar ro'yhatini ham tavsiya qilish lozim. Turli manbalardan qo'shimcha ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va axborotlar bilan ishlash jarayonida talabalar mustaqil ravishda xulosa chiqaradi, muammoli vaziyatni hal etish bo'yicha o'z takliflarini beradi.

«Case-Study» texnologiyasi yordamida real ijodiy jarayon modellashdiriladi, ya'ni muammoli vaziyat yaratilib, talabalarning muammoni yechish borasidagi izlanishlari boshqariladi.

«Case-Study» texnologiyasidan dars jarayonidan tashqari mustaqil ta'limga hamda ta'lim natijalarini nazorat qilish va tekshirishda ham foydalanish mumkin [3; 19-b.]. Olib borayotgan tadqiqotimiz davomida Umumiy Yer bilimi fani modullarining ayrim mavzulari bo'yicha amaliy mashg'ulot darslari uchun keys topshiriqlarini ishlab chiqdik. Xususan, «Litosfera» modulining «Yer to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar», «Yerning o'z o'qi atrofidagi harakati va uning geografik oqibatlari», «Yer po'stining tarkibi», «Relyef. Relyef hosil qiluvchi omillar» mavzulariga oid keys topshiriqlar tuzildi [6; 280-b.]. Masalan, «Yer to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar» mavzusini o'rganishda mavzuga oid qisqacha matn berilganidan so'ng, quyidagi muammo o'rtaga tashlanadi: Nima sababdan Yerning shakli haqida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, uning shakllari turli dalillar bilan isbotlanadi? Bunday dalillarning



keltirilish sabablari nimada? Ushbu muammoni hal qilish uchun talabalarga bir nechta yo'naltiruvchi savollar va adabiyotlar ro'yhati beriladi. Muammoni hal etish uchun quyidagi yo'naltiruvchi savollar berildi:

1. Yerning shakli haqida qanday ma'lumotlar asosida vujudga kelgan?
2. Antik davrda Yerning sharsimonligi qanday dalillar asosida isbotlangan?
3. Nima sababdan XVII-asr Yer shar shaklida degan fikrlar o'rta ellipsoid yoki sferoid degan fikrlar paydo bo'ldi?
4. Nima sababdan Yerning shakliga nisbatan umumlashgan tushuncha sifatida qaralmoqda?

Amaliy mashg'ulot darslarida keys topshiriqlarida berilgan muammolar yechimini dastlab kichik guruhlar hamkorlikda topish maqsadga muvofiq. Chunki, berilgan keys topshiriqlari yechimini topish jarayonida barcha talabalar bir xil ishtirok etmaydi, ayrim talabalar uchun ushbu muammo o'ta murakkablik qiladi. Talabalar guruhi bilan hamkorlikda ishlash orqali o'zaro fikr almashinish, o'z ustida ishlash, axborotlarni to'plash kabi ko'plab xususiyat va ko'nikmalar rivojlantirilib boriladi. So'ngra, har bir talabaga mustaqil ta'lim olish uchun yoki yakuniy nazoratlarda individual tarzda keyslar beriladi. Agar talaba keys topshiriqlarini yechish ko'nikmasiga ega bo'lsa, berilgan topshiriqni qiynalmasdan bajaradi, ya'ni talabalar keysdagi muammoli vaziyatini aniqlab, uni yechimiga qaratilgan taklif va xulosalarini hisobot shaklida o'qituvchiga topshiradilar. Bunda talabalarda qo'shimcha adabiyot va materiallar bilan ishlash imkoniyati ko'proq bo'lib, ularda axborotlar bilan ishlash va tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetentsiyalari rivojlanadi.

Keyslarning amaliy (vaziyat yoki hodisa real aks etadi), ta'limiy (vazifasi ta'lim berish bo'lib, asosini o'quv vaziyatlar tashkil etadi), ilmiy (talabalarni tadqiqotga yo'naltirish maqsadida ishlab chiqiladi) kabi bir nechta turi mavjud. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qituvchi o'quv maqsadlarini hisobga olgan holda har xil turdagi keyslarni ishlab chiqishi lozim. Keys asosidagi amaliy mashg'ulotlarida talabalar faoliyatini turli shakllarda tashkil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, taklif etilayotgan vaziyat sahnalashtirilishi hamda «Aqliy hujum», bahs-munozara, ilmiy bahslashuv metodlari orqali muhokama qilinishi mumkin, masalan, «Ob-havo va iqlim», «Geografik qobiqning rivojlanish manbalari», «Insonning geografik jarayonlarga ta'siri», «Tabiat zonallari», «Landshaftlar», «Geografik bashorat» va h.k. Bu turdagi keys topshiriqlarini bajarishda mavzuga oid ilmiy izlanish olib borgan olimlarning ishlaridan hamda o'lkashunoslik materiallardan ham foydalansa bo'ladi.

«Case-Study» texnologiyasida qo'llaniladigan keyslar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– tanlangan keys matni amaliy mashg'ulotining mavzusi va maqsadiga mos kelishi. Mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda «Case-Study» texnologiyasi yordamida tashkil etiladigan mavzularni ajratib olish;

– keys matnida berilgan muammo dolzarb va bir nechta yechimlarga ega bo'lishi. Keys matnida albatta muammoning dolzarbligi aniq ko'rsatilishi lozim.



Muammoning dolzarbligidan kelib chiqib yechim yo'arini talabalar kichik guruhlarda yoki individual tarzda alohida-alohida o'z fikrlarini bayon etishi;

– topish va hal qilish zarur bo'lgan muammoli vaziyatning real hayotda mavjud bo'lishi;

– o'rganilayotgan muammoli vaziyatni hal etish uchun axborotning yetarli bo'lishi, ya'ni tavsiya qilingan kerakli o'quv vositalari va adabiyotlar muammo mazmuniga mos bo'lishi;

– ta'lim oluvchilarga muammoli vaziyatni hal qilishda yordam sifatida tavsiya va ko'rsatmalarni berish hamda ularni harakatlarini baholash imkoniyatining mavjud bo'lishi [4; 25-b].

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda «Case-Study» texnologiyasini qo'llash o'qituvchi uchun bir qancha qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Bu texnologiya o'qituvchidan tanqidiy tafakkur va ijodiy faoliyatni, qolaversa, keyslarni ishlab chiqish ko'nikmasini rivojlantirish uchun o'z ustida doimiy ishlash, fan bo'yicha yangi axborotlarni to'plashni talab etadi.

Umumiy Yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotni tashkil etish jarayonida keyslar bilan ishlash quyidagi uch bosqichdan iborat bo'ladi:

Birinchi bosqich – talabalarning hamkorlikdagi faoliyatga kirishishi. Bu bosqichning asosiy vazifasi hamkorlikdagi faoliyatga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish.

Ikkinchi bosqich – talabalarning hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish. Bu bosqichning asosiy vazifasi kichik guruhlarda yoki individual tarzda muammoni hal etish bo'yicha faoliyatni tashkil etish. Har bir guruhda spiker (muammo yechimini taqdim etadigan), kotib (muhokamaning borishini yozib boradigan), vaqt nazoratchisi (vaqt o'tishini nazorat qiladigan) tanlanadi. Agar keys to'g'ri tuzilgan bo'lsa bir guruhning yechimi boshqa guruhning javobiga o'xshamaydi. O'qituvchi bahsni tashkil etadi va uni boshqaradi.

Uchinchi bosqich – hamkorlikdagi faoliyatni tahlil qilish va refleksiya. Bu bosqichning asosiy vazifasi keys bilan ishlash natijalarini ajratib ko'rsatish. O'qituvchi bahs-munozaraga yakun yasaydi, guruhlar faoliyatini baholaydi, xulosa chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdimurotov O.U. The effectiveness of the use of «case-study» technology in the organization of practical training in the course «natural geography» / / Jour of adv research in dynamical control systems. Volume 2, special issue-06. - Hindiston, 2020. - P. 774-777

2. Avliyakov N.X., Namozova N.J. Muammoli o'qitish texnologiyalari. Monografiya. - T.: Fan va texnologiyalar. 2008. - 260 b.

3. Begimqulov A. Masofaviy o'qitish va pedagogik ta'lim // Pedagogik ta'lim, - Toshkent. 2004. - № 5. - B.19 - 21.

4. Jumaniyozova I.K. «O'rta maxsus Kasb-hunar kollejlari pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. Urganch. 2013. - 78 b.



JAMOATCHILIK NAZORATI ASOSIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING TA'LIM-TARBIYA SIFATI UZVIYLIGINI TA'MINLASH IMKONİYATLARI

D.SH. TEMIROV,

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh mutaxassisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Ushbu maqolada jamoatchilik nazorati asosida umumta'lim maktablarining ta'lim-tarbiya sifati uzviyligini ta'minlash imkoniyatlari, tamoyillari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ta'lim sifatini boshqarishning o'ziga xos murakkabliklari bayon qilingan.

Tayanch so'z va iboralar: *jamoatchilik nazorati, umumta'lim maktablari, ta'lim-tarbiya sifati, ta'lim sifatini boshqarish, ta'lim-tarbiya sifati uzviyligi, ta'lim siyosati, tashkiliy tuzilma, ta'lim jarayoni sub'ektlari, ota-ona.*

В данной статье рассматриваются возможности и принципы обеспечения целостности качества образования в общеобразовательных школах на основе общественного контроля. Также описаны специфические сложности управления качеством образования.

Ключевые слова: *общественный контроль, общеобразовательные школы, качество образования, управление качеством образования, целостность качества образования, образовательная политика, организационная структура, субъекты образовательного процесса, родители.*

This article discusses the possibilities and principles of ensuring the integrity of the quality of education in general education schools based on public control. Also, specific complexities of educational quality management are described.

Key words: *public control, general education schools, educational quality, educational quality management, educational quality integrity, educational policy, organizational structure, subjects of the educational process, parents.*

Ta'limni izchil va uzluksiz taraqqiy ettirish ta'lim muassasasi rahbaridan, uni rivojlantirishning muayyan bosqichlari strategik maqsad va vazifalariga muvofiq, boshqaruv faoliyatining huquqiy asoslarini ko'rib chiqishni, tatbiq etilgan boshqaruv funksiyasi majmuiga tegishli tuzatishlar kiritishni, boshqaruvning zarur tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish va modernizatsiyalash layoqatini talab etadi.

Ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarda boshqaruv metodlarini o'zgartirish, xususan, «yuqoridan quyiga» tartibda kengqamrovli yakka xokimlikni qo'llashdan ta'lim muassasiga yuridik shaxs sifatida munosabatda bo'lib, uning faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solishga o'tishni nazarda tutadi [1].

Sifatli ta'lim bilan ta'minlash mas'uliyati ta'lim muassasasiga yuklatiladi. Mazkur majburiyatni amalda bajarilishi uchun ta'lim muassasasi ta'lim jarayonini o'zi mustaqil ravishda amalga oshiradi, kadrlarni tanlaydi va tegishli vazifalarga



taqsimlaydi, amaldagi tegishli qonunchilikka ko'ra, ilmiy-metodik, iqtisodiy va boshqa faoliyat turlarini amalga oshiradi.

Shu tariqa ta'lim muassasasi, birinchidan, boshqaruv, mehnat va boshqa nota'limiy munosabatlar subyekti ham hisoblanib, ularga xos huquqiy jihatlarni amalga oshiradi:

- ta'lim jarayonini boshqarish sub'ekti;
- ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun zarur mol-mulklar egasi yoki boshqaruvchisi;
- pedagogik va ko'makchi o'quv personallarini ish bilan ta'minlovchi.

Ikkinchidan, ta'lim muassasasi bevosita ta'lim munosabatlarining ishtirokchisi vazifasini ham bajaradi.

Ta'lim muassasasini boshqarish subyekti sifatida quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

– ta'lim jarayonini mustaqil ravishda ilmiy-metodik tashkil etish va ta'minlashni takomillashtirishni amalga oshiradi;

– o'quv fanlari va kurslari ishchi dasturlari va o'quv rejaralarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

– ta'lim muassasasi shaxsiy iqtisodiy vositalar chegarasida ta'lim jarayonini moddiy-texnik ta'minlash va jihozlash masalalarini bevosita davlat talablari va me'yorlariga muvofiq amalga oshiradi.

Ta'lim sifatini boshqarish muammosi har bir maktab, har bir rahbar va o'qituvchi uchun eng dolzarb masalalardan biridir. Ta'lim sifati muammolarini ko'rib chiqishda biz bir qator asosiy tushunchalarga tayanamiz: sifat, sifatni ta'minlash, ta'lim, ta'lim sifatini boshqarish, sifatni oshirish.

Sifat – obyektning belgilangan va nazarda tutilgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar to'plami.

Sifatni ta'minlash – doimiy nazorat ostida bo'lgan va sifat talablarining bajarilishiga ishonch hosil qilish uchun zarur bo'lgan barcha rejalashtirilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlar.

Ta'lim sifatini boshqarish – ta'lim sifatini ta'minlash, takomillashtirish, monitoring qilish va baholashga qaratilgan strategik va tezkor harakatlarning tizimli ravishda amalga oshirilgan tizimi.

Sifatni oshirish – ta'lim faoliyatining mavjud parametrlarini ta'lim sifati sohasidagi siyosatda belgilangan maqsad va vazifalarga yaqinlashtirish jarayoni va natijasidir.

Taqdim etilgan konsepsiyalarga asoslanib, ta'lim sifatini ochiq ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonining holati va samaradorligini, bir tomondan, ta'limning me'yoriy maqsadlariga muvofiqligini tavsiflovchi ijtimoiy kategoriya sifatida belgilash mumkin. Boshqa tomondan, yuqori ta'lim yutuqlariga erishishda shaxs



va turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlari, umidlari, talablari bilan. Sifat sohasidagi ishlar ta'lim jarayonining bevosita sub'ektlari (o'qitish va o'qitish) va ta'lim muassasasining tashqi hamkorlari (ota-onalar, ish beruvchilar, ijtimoiy muassasalar) bilan bog'liq holda maksimal ochiqlikka intiladi. Sifat sohasidagi asosiy tarkibiy qismlarni shakllantirish, muvofiqlashtirish va tasdiqlash ta'lim muassasasi ma'muriyatining eng muhim funksiyalaridan biridir. Sifat tizimini sifat siyosatini amalga oshirish vositasi, vosita sifatida ko'rish mumkin.

Sifat sohasidagi ishlarni shakllantirish sifatini strategik rejalashtirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu uzoq muddatli ustuvorliklarni shakllantirishga imkon beradi va muassasaning rivojlanishi va uning xodimlari faoliyatida oqilona o'zgarishlarga yordam beradi. Strategik rejalashtirishning yetakchi maqsadlari nafaqat ma'lum bir davr uchun ta'lim muassasasini rivojlantirishning umumiy rejasini ishlab chiqish, balki ushbu ta'lim muassasasi tomonidan taqdim etiladigan ta'lim xizmatlarining asosiy yo'nalishlarini tushunish va qayta ko'rib chiqish, ularning iste'molchilar ehtiyojlariga muvofiqligi bilan ham belgilanadi.

Strategik rejalashtirish ta'lim sifatini oshirishning potensial manbai bo'lgan har xil turdagi kamchiliklarning oldini olish, erta aniqlash va tezda bartaraf etish orqali samaradorlikka intilishni aks ettiradi. Reja tuzishda shuni hisobga olish kerakki, ta'lim sifati ichki va tashqi, ko'rinadigan va yashirin nuqsonlar mavjudligi sababli pasayadi.

Ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichida murakkablik, obyektivlik, uzluksizlik, optimallik va ilg'orlikni o'z ichiga olgan sifat menejmentining umumiy tamoyillari dolzarbligicha qolmoqda.

Murakkablik ta'lim faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni har tomonlama tahlil qilishni nazarda tutadi, bu jarayonning sifatini ham, erishilgan natijalarning sifatini ham ta'minlaydi.

Obyektivlik ta'lim sifati ob'ektlarini aniq va oqilona o'lchash imkoniyati va zarurligiga asoslanadi.

Uzluksizlik ta'limning turli bosqichlarida amalga oshiriladigan ta'lim dasturlari o'rtasida uzviylikni o'rnatish zarurligini aks ettiradi. Ushbu tamoyil, shuningdek, sifatni oshirishni o'z ichiga oladi va ta'lim oluvchining bilish darajasidagi ijobiy o'zgarishlarni kuzatib boradi.

Optimallik kuchlar, mablag'lar va sarflangan vaqtning erishilgan ta'lim natijasi sifatiga muvofiqligini belgilaydi.

Yo'lbo'shchilik ta'lim tizimini rivojlantirish tendensiyalarini, ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun tashqi va ichki sharoitlarni o'zgartirishni hisobga olishni, yuzaga keladigan muammolarni prognoz qilishni va ularning oldini olish bo'yicha o'z vaqtda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlash strategiyalari ta'limni rivojlantirishning dolzarb va uzoq muddatli muammolarini hal qilishga



e'tiborni qaratadi: yaqqol rag'batlantiruvchi xususiyat, boshqaruv sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlariga tayanish; boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan bosh tortish yoki sezilarli darajada chetga chiqish; o'quv jarayoni natijalari ustidan nazoratning ustuvorligi, uning borishi ustidan nazoratni kamaytirish[2].

Ta'lim sifatini boshqarish jarayon sifatida rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, asosiy va yordamchi jarayonlarning ishlashi va rivojlanishini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Shunga o'xshash nazariy pozitsiyalarni ta'lim sifatini boshqarishning turli kontseptsiyalarini ishlab chiqadigan bir qator xorijiy mualliflar egallaydi. Shunday qilib, D.Timmerman o'quv jarayoni sifatini boshqarishning uch bosqichli modelini taklif qiladi, unda u kirish bosqichini, oraliq va chiqish bosqichini ajratib ko'rsatadi[3].

Birinchi bosqich maktabda ta'lim jarayonini tashkil etish shartlarini o'z ichiga oladi. Bu shartlarga professor-o'qituvchilarning kasbiy darajasi, bino va o'quv xonalarining holati, jihozlar va dizayn, o'quv dasturlari va didaktik materiallarning mavjudligi kiradi. O'quv jarayonining muvaffaqiyati uchun muhim shartlarga ta'lim oluvchilarning o'zlari, ularning qobiliyatlari darajasi, moyilligi, qiziqishlari, o'qishga motivatsion tayyorligi kiradi.

Oraliq bosqich maktab hayotining ichki jarayonlarining sifatiga ta'sir qiladi. Bularga quyidagilar kiradi: mazmuni, ta'lim jarayonini tashkil etish, o'qituvchining kasbiy faoliyati, ijtimoiy-psixologik iqlim, o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish, shaxslararo munosabatlar va guruhlarning o'zaro ta'siri. Chiqish bosqichi ta'lim natijasini aks ettiradi.

Ta'lim muassasasini boshqarishda noprofessional jamoatchilik bilan pedagoglarning o'zlarini pedagogik jamoasi o'rtasida muayyan aloqadorlik, hamkorlik mavjud. Agar pedagogik jamoaning rahbari, ish beruvchi bilan pedagoglarning, ta'lim muassasasining boshqa xodimlari o'rtasida hamkorlikni nazarda tutadigan bo'lsak, ta'lim muassasasining jamoasi davlatning ta'lim sohasidagi siyosatining ijrochilari, boshqacha so'z bilan aytganda, boshqaruvning maktabdan tashqari, jumladan, ota-onalar jamoatchiligi oldida davlat vakili sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi» to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz>

2. Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarishning metodologik va tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish // monografiya. - T.: «Lesson press», 2017. 116 bet.

3. Krohner S., Timmermann, D.: Qualitatssicherung durch Qualitätsmanagement, Bielefeld 1997.



ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА ШКОЛЬНИКОВ С ВКЛЮЧЕНИЕМ ДИЗАЙН-ОБРАЗОВАНИЯ

Р.Х.ДЖУРАЕВ,
д.п.н., академик, УзНИИПН

В статье рассматривается вопрос о необходимости существенного переосмысления теории и методики технологической подготовки школьников посредством внедрения непрерывного дизайн-образования: начиная с начальной школы и заканчивая выпускными классами. Путь непрерывности предполагает реализацию идей дизайна во всей системе образования для решения важнейшей проблемы - подготовки школьников как носителей проектной культуры.

Ключевые слова: дизайн, дизайн-образование, проектирование, область образования, метод проектов.

Maqolada boshlang'ich sinfdan boshlab to yuqori sinfni tugatgunga qadar uzluksiz dizayn ta'limini joriy etish vositasida maktab o'quvchilarini texnologik tayyorlash nazariyasi va metodikasini qayta jiddiy mulohazadan o'tkazishning zaruriyati masalasi o'rganilgan. Uzluksizlikning yo'li muhim muammoni – loyihaviy madaniyat tashuvchilari sifatida o'quvchilarni tayyorlash masalasi bo'yicha ta'lim tizimiga dizayn g'oyasini joriy etishni talab etadi.

Tayanch so'zlar: dizayn, dizayn-ta'lim, loyihalash, ta'limi sohasi, loyiha metodi.

The question of necessity of essential reconsideration of the theory and methodology of technological training by means of introduction of continuous design education is considered: beginning in elementary school and finishing graduation classes. The continuity presupposes realisation of idea of design in all education system to solve the major problem - training of schoolchildren as bearers of planning culture.

Key words: design, design education, projecting, educational area «Technology», project culture, culture of design.

Сегодня школа ориентирована на общечеловеческие ценности, гуманизацию, вариативность, подготовку учащихся к непрерывному образованию, формирование культуры современной личности. Это, в свою очередь, послужило основой для реформирования трудового обучения, преемницей которого стала образовательная область «Технология», которая в ряде европейских стран базируется на следующих положениях:

– решение проблем един из важнейших видов деятельности человека, включающий видение самых смелых предположений по выработке решений, их критику, исправление допущенных ошибок. Образовательная область «Технология» призвана развивать у учащихся навыки решения проблем посредством проектирования и изготовления изделий и систем:



– созданные учащимися изделия и системы должны служить улучшению качества жизни людей. Социальные отношения людей друг с другом во многом опосредованы объектами искусственного мира. Поэтому понимание социального воздействия изделий и систем должно являться неотъемлемой частью технологического образования;

– при обучении школьников проектированию и изготовлению необходимо создать такую обучающую среду, которая сможет сделать, их в большей степени ориентированными на человека. Наряду с приобретением технологических знаний и умений технологическое образование в равной степени связано с развитием социальной ответственности;

– успешным результатом технологического образования являются творческие, активные дети с широким кругозором, имеющие навыки в области дизайна и проектирования, технологии обработки материалов, коммуникации, способные приобретать новые навыки по мере необходимости [3, с. 27].

В нашей стране главной целью образовательной области «Технология» определена подготовка учащихся к самостоятельной трудовой жизни в условиях рыночной экономики. Это предполагает:

– формирование у учащихся качеств творчески думающей, активно действующей и легко адаптирующейся личности, которые необходимы для деятельности в новых социально-экономических условиях;

– формирование знаний и умений использования средств и путей преобразования материалов, энергии и информации в конечный потребительский продукт или услуги в условиях ограниченности ресурсов и свободы выбора;

– подготовку учащихся к осознанному профессиональному самоопределению гуманному достижению жизненных целей;

– формирование творческого отношения к труду;

– развитие разносторонних качеств личности и способности профессиональной адаптации к изменяющимся социально-экономическим условиям [4].

Таким образом, в настоящий момент «Технология» определяется как образовательная область, в основе которой лежит творческий процесс преобразовательной деятельности, нацеленный на решение конкретных проблем и подразумевающий использование различных материалов для реализации своих решений. Приоритетной является проектная деятельность.

Данное определение подводит нас к необходимости рассматривать содержание предмета «Технология» с позиции необходимости дизайн-образования уча-



шихся. «Культура дизайна – знание, умение и готовность использовать принципы эргономики, эстетики, дизайна и художественной обработки материалов для обеспечения конкурентоспособности продукции – является частью технологической культуры современного человека и должна рассматриваться в образовательной области «Технология» [6, с. 142]. Действительно, на уроках технологии учащиеся изготавливают предметы для практического использования, что требует от них понимания тех правил, по которым разрабатываются эти изделия. Н.М. Конышева подчеркивает: «В общеобразовательной школе нужно готовить создателей предметной среды (в широком смысле слова) и ее потребителей, т.е. людей, которые достаточно хорошо понимают, что такое гармоничная среда обитания» [1, с. 7].

При этом, учитывая многочисленные толкования сущности дизайна, мы можем, в самом общем виде, определить дизайн как проектную деятельность по созданию гармоничной предметной среды различных сфер жизни человека. Это определение раскрывает дизайн как комплексную деятельность, включающую как интеллектуальную, конструкторскую составляющую, так и художественную, эмоционально-эстетическую.

К сожалению, на сегодняшний день в содержании уроков технологии две стороны этой единой деятельности до сих пор искусственно разделены. «...На уроках конструирования работа ведется только над конструкцией с сугубо технической точки зрения, а внешние качества изделия, его выразительность при этом фактически не учитываются; на уроках художественной обработки материалов рассматриваются преимущественно те параметры, которые определяют внешний вид изделия, а его функциональные свойства при этом упоминаются вскользь» [1, с. 27].

Учитывая вышесказанное, можно с уверенностью говорить о необходимости внедрения дизайн-образования в практику школы в рамках технологической подготовки учащихся. Ибо «...пробуждение в человеке художника, творца и ценителя прекрасного вызывает только художественная деятельность, непосредственно вложенная в жизнестроительство. В первую очередь к ней относится создание и украшение предметной среды своей жизнедеятельности, т.е. деятельность, близкая к дизайнерской» [5, с. 3].

В то же время в большинстве образовательных учреждений по-прежнему приоритет отдается изучению социальных и гуманитарных областей знаний, без учета того, что жизнедеятельность человека проходит преимущественно в технологической среде. «Обучение же дизайну в школе практически отсутству-



ет, не считая ограниченного «вкрапления» элементов художественного конструирования в темы по технологии и декоративному рисованию...» [2, с. 8].

Вопрос о необходимости дизайн-образования в рамках технологической подготовки учащихся достаточно давно обсуждается учеными-педагогами и практиками. Есть интересные программы и методические разработки Н.М. Коньшева и пособия [1] предлагает методику организации ручного труда в начальной школе с позиций дизайн-образования, подчеркивая при этом общеразвивающие возможности данного подхода. Авторы пособия «Основы проектной деятельности» [2] разработали модель дизайн-школы с целым циклом дизайнерских дисциплин. Главная ценностная ориентация дизайнерского образования в школе воспитание проектного мышления, трансляция учащимся методов проектирования – выдвигается для всех учащихся средней школы, независимо от их способностей и наклонностей. Но при этом разработчики подчеркивают, что «... в дизайн-школу желательно отбирать подростков, заведомо способных воспринимать проектную культуру во всем богатстве ее проявлений и в дальнейшем готовых сделать дизайн своей профессией» [2, с. 29]

На наш взгляд, сейчас назрела необходимость внедрения непрерывного дизайн-образования в рамках технологической подготовки школьников: начиная с начальной школы и заканчивая выпускными классами. Путь непрерывности предполагает реализацию идей дизайнера во всей системе образования, чтобы решать важнейшую проблему - подготовки школьников как носителей проектной культуры.

Безусловно, предлагаемый подход непрерывного дизайн-образования в рамках технологической подготовки учащихся требует существенного переосмысления теории и методики технологического образования. В педагогических исследованиях еще недостаточно изучены теория и практика обучения учащихся основам художественного проектирования как виду мыслительной деятельности, синтезирующей знания основ наук, техники, производства и промышленного искусства. Недостаточно разработано научно-методическое обеспечение как основа творческой, проектно-художественной подготовки учащихся.

Но более существенным на сегодняшний день оказывается отсутствие в школах подготовленных с позиций дизайн-образования учителей технологии. Тех, кто собственно и должен учить школьников дизайну на уроках технологии. К сожалению, в действующем Государственном стандарте под-



готовки бакалавров технологического образования отсутствует дисциплина «Дизайн», а значит говорить о какой-либо серьезной дизайнерской подготовке будущих учителей технологии преждевременно.

Будущий специалист – учитель технологии должен обладать проектной культурой, включающей владение многообразными средствами выражения мысли; понимать сегодняшнюю социально-культурную ситуацию; чувствовать тенденции развития современной художественной культуры; ориентироваться в вопросах экологии, технологии, экономики, организации дизайн-производства, материаловедения, тектоники организации формы. Думается, что возможность такой комплексной подготовки осуществима только при внедрении дизайна в технологическое образование в вузе.

Необходимость целостного осмысления непрерывного дизайн-образования как сложной, интегративной и развивающейся образовательной системы, позволяющей разрабатывать адекватные современной ситуации формы и методы включения молодежи в социальную действительность, придает особую актуальность разработке дизайнерского подхода в технологической подготовке учащихся и студентов.

Литература:

1. Коньшева Н.М Методика трудового обучения младших школьников: Основы дизайн-образования: Учеб, пособие для студ. сред. пед. учеб, заведений. М.: Академия, 1999.
2. Наумов В.П., Куликов А.Г. Основы проектной деятельности: Учеб, пособие / Под ред. В.Д. Симоненко. - Магнитогорск: МаГУ, 2001.
3. Павлова М.Б., Питт Д. Образовательная область "Технология": теоретические подходы и методические рекомендации. - Йорк, 1997.
4. Программы общеобразовательных учреждений "Технология. Трудовое обучение. 1-4 классы, 5-11 классы" / Под ред. Ю.Л. Хотунцева, В.Д. Симоненко. - М.: Просвещение, 2005.
5. Хан-Магомедов С.О. О месте и роли дизайна в системе художественной культуры / Техническая эстетика. - 1985. - №7.
6. Хотунцев Ю.Л., Тугузбаев Р.Я. Культура дизайна в образовательной области «Технология» / Техническое и экологическое образование и технологическая культура школьников. - М.: Эслан, 2007.



OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MADANIYAT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI

F.S.USMONOVA,

*Samarqand davlat universiteti
tayanach doktoranti*

Ushbu maqolada madaniyat tushunchasi va madaniy taraqqiyotning aniq ilmiy talqinlarini hamda chegaralari, shuningdek, madaniyatning jamiyat mahsuli, ijtimoiy hayotning muhim mulki ekanligi, madaniyatsiz jamiyatning mavjud bo'lmashligi nazariy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, ijtimoiy hayot, madaniyat kompetentligi, taraqqiyot, oliy ta'lim, dunyoqarash, muomala madaniyati.

В данной статье дается теоретико-педагогическое обоснование концепции культуры и точных научных интерпретаций культурного прогресса, а также границ, а также того, что культура-продукт общества, важное свойство общественной жизни, что без культуры не может существовать общество.

Ключевые слова: культура, социальная жизнь, культурная компетентность, прогресс, высшее образование, мировоззрение, культура обращения.

This article provides a theoretical and pedagogical substantiation of the concept of culture and accurate scientific interpretations of cultural progress, as well as boundaries, as well as the fact that culture is a product of society, an important property of social life, that society cannot exist without culture.

Key words: culture, social life, cultural competence, progress, higher education, worldview, culture of conversion.

«Madaniyat» tushunchasi turli tillarda turli so'zlar, jumladan ingliz tilida «culture», rus tilida «kultura» so'zlari bilan ataladi. O'zbek tilidagi «madaniyat» so'zi arab tilidagi «madina», ya'ni shahar so'zidan kirib kelgan bo'lib, «shaharga xos», «shaharga oid» degan lug'aviy ma'noni ifodalaydi.

Sharq faylasuf olimlarining asarlarida madaniyat tushunchasi va madaniy taraqqiyotning aniq ilmiy talqinlarini hamda chegaralarini ko'ramiz. XIV asrda yashagan arab faylasuf olimi Ibn Xaldunning madaniyat bosqichlariga oid ilmiy tahlili diqqatga sazovordir. Uningcha, insoniyat dastlab yovvoyilik holatida bo'ladi. Keyin u tabiiy olamdan ajralib chiqadi va ijtimoiylik kasb etadi. Ibn Xaldunning ko'rsatishicha, insoniyat jamiyati doimo o'zgarib borib, taraqqiyot jarayonida ikki bosqichni bosib o'tadi:



1. Bidava.
2. Xidara.

Bu ikkala bosqich «insonlar yashashi uchun qanday vositalar topishi»ga ko‘ra, bir-biridan farq qiladi. Birinchi – bidava bosqichida odamlar asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilash shug‘ullanadi. Ikkinchi – xidara bosqichida yuqoridagi mashg‘ulot turlariga hunarmandchilik, savdo, fan va san‘at qo‘shiladi. Har ikkala bosqich bir hudud doirasida bo‘lishi mumkin. Ibn Xalduinning fikricha, shaharda yo‘q, kundalik ehtiyojni qondiradigan hayot tarzi – dehqonchilik va chorvachilik ibtidoiy hayotni, hashamatli hayot kechirish va shuning uchun harakat qilish, dabdabali hayot kechirish uchun intilish, shaharlar barpo qilish sivilizatsiyani keltirib chiqardi[2].

Vaqlar o‘tishi bilan «madaniyat» tushunchasining hajmi kengayib, ta‘rifi va tavsifi ko‘payib borgan. Amerikalik madaniyatshunos olimlar A. Kreber va K. Klakxonning 1952 yildagi ma‘lumotlariga ko‘ra, madaniyat tushunchasiga berilgan ta‘rif 164 ta bo‘lgan, so‘nggi adabiyotlarda esa madaniyatning ta‘rifi 500 dan ortiq deb ta‘kidlanadi.

«Madaniyat» tushunchasini ta‘riflash uchun juda ko‘p iboralar ishlatiladi. Jumladan, qatorida «insoniyatning yashash tarzi», «insonning jamiyatdagi to‘laqonli faoliyati», «inson o‘zining yashashi uchun yaratgan muhit», «yaxlit ijtimoiy organizm», «insoniyat yaratgan moddiy va ma‘naviy qadriyatlar majmui», «ikkilamchi, ya‘ni sun‘iy tabiat», «insonning ijodiy faoliyati mahsuli», «jamiyatning ma‘naviy holati», «shartli belgilar yig‘indisi», «me‘yor va andozalar majmui» va hokazo.

Madaniyatga berilgan ta‘riflar orasida mashhur ingliz etnografi, antropologiyaning asoschilaridan biri Eduard Taylor (1832-1917) ta‘rifi eng mukammal deb hisoblanadi. Uningcha, madaniyat – insonning axloqi, kuch-qudrati, baxt-saodati taraqqiy etishiga bir vaqtning o‘zida ko‘maklashish maqsadida alohida shaxsning va butun jamiyatning yuksak darajada tashkil qilinishi yo‘li bilan insoniyatning kamol topishidir.

Hozirgi davrda madaniyatga berilgan ilmiy ta‘riflar insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilishi davom etayotgan ma‘naviy, ruhiy jarayonning o‘ziga xosligini anglash natijasida vujudga keldi. Insoniyat «tabiiy» turmush tarzi asosida yashagan davrda – ov qilish, baliq tutish, ilk chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan davrlarda bugungi singari madaniyat to‘g‘risida fikr yuritgani gumon, aniqrog‘i, ilmiy tahlil bo‘lmagan. Oddiy, bir maromda rivojlanuvchi



jamiyatda inson o'z madaniyati bilan hamroh bo'lib yashagan. Urf-odatlar, e'tiqodlar, hayotning moddiy va ijtimoiy shakllari madaniyatning alohida ko'rinishi sifatida alohida ajralmagan edi.

Madaniyat mustaqilligi. Texnikaning rivojlanishiga va mexnatning ijtimoiy mazmun kasb etishiga erishish natijasida madaniyat mustaqil soha sifatida ajralib chiqdi. Inson o'zi yaratgan madaniyatga tobe bo'lib boraveradi. Hozirgi rivojlangan jamiyatdagi ekologiya, ma'naviyat va axloq sohalaridagi mavjud muammolar fikrimizning dalilidir. Shuning uchun madaniyatni noyob hodisa sifatida idrok etish, uning rivojlanish qonunlarini anglash va shu tushunchalar asosida madaniyatni boshqarishga o'rganish zaruriyat bo'lib qoladi.

Insoniyat jamiyati doimiy rivojlanishda bo'lib, u o'zgarib takomillashib boraveradi. Turli tarixiy davrlarda va xilma-xil madaniyatda odamlar jamiyatdagi o'zgarishlarni o'zgacha anglaydilar va qabul qiladilar, o'ziga xos tasavvur va bilim hosil qiladilar. Biz hozirgi davrdagi mavjud muammolarga o'xshash bo'lgan to'siqlarni o'tmishda odamlar qanday qilib bartaraf qilganlarini o'rgana borib, o'tmishga savollar orqali murojaat qilamiz. O'tmishdan o'zimiz javob topamiz, natijada o'tmish, hozirgi zamon va kelajak o'rtasida doimiy muloqot bo'lib turadi. Albatta, har bir davrdagi madaniy tushunchalar yoki jarayonlarning tarixiy bosqichlar yoki davrlarni bog'lashda roli katta[3].

Jamiyat va madaniyat. Madaniyat – jamiyat mahsuli, ijtimoiy hayotning muhim mulki hisoblanadi. Madaniyatsiz jamiyat bo'lmaganidek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Murakkab ijtimoiy voqeelik sifatida madaniyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, u insoniyat ajdodlarining mehnati, bilimlari, dunyoqarashini o'zida aks ettiradi ularni saqlab muntazam boyitib boradi. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisi sifatida qadriyatlarni to'playdi, ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

Madaniyatning universal xususiyatlari shundan iboratki, bu xususiyatlar butun insoniyatga xos bo'lib, insoniyatni boshqa jonzotlardan farqlaydi. Bu xususiyat, avvalo, insoniyatga xos ijtimoiy biologik jarayon, jumladan nasllarni tarbiyalash, bolalarning ota-onalarga bog'langani, guruh bo'lib yashash, oziq-ovqatlarning taqsimlanishi, oila qurishi va hokazolarni qamrab oladi. Shuningdek, yaqin qarindoshlar bilan oila qurish maqsadga muvofiq emasligi ham madaniyatning umumiy xususiyatlariga kiradi. Zotan, qadimdan yer yuzidagi aksariyat xalqlarda ekzogamiya (o'z qabilasidagi, urug'idagi ayolga uylanish yoki erga tegishni man qiluvchi urf-odat), qarindoshlarning qoni aralashuviga yo'l



qo‘ymaslik qonun singari amal qilgan. Bu urf-odatlarini buzganlar hamma madaniy tizimda jazolangan, albatta, har xil darajada va har xil usul bilan.

Madaniyatning umumiy xususiyatlari bir qator jamiyatga va xalqlarga mansubdir. Bu xususiyatni hududiy madaniyat deb ham atash mumkin. Hududiy madaniyat o‘xshashligining birinchi sababi shuki, ayrim xalqlar boshqalariga qaraganda, madaniy yutuqlarini o‘zaro almashadilar. Masalan, O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi boshqa millat vakillari ham, xuddi o‘zbeklar singari mehmonni xush qabul qiladilar, mexmondo‘stlik fazilatlarini ko‘rsatadilar. Yoki O‘rta Osiyo hududida istiqomat qiladigan o‘zbek va tojik xalqlarida oiladagi o‘zaro munosabatlar umumiy madaniy xususiyatlarga ega. Farzandlarning ota-onaga itoatkorligi yoki ota-onani moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashi, shuningdek, o‘zbek va tojiklar bilan bir hududda yashaydigan boshqa millatlarga ham shu fazilatlarining o‘tganini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Ikkinchi sababi – ajdodlarning etnik jihatdan umumiyligidir. Bu sabab tarixiylik kasb etadi. Qadimiy qabilalarning etnik jarayoni bilinmas holga kelgani holda, udumlar va urf-odatlar ularning etnik birligiga ishora qiladigan omillardan biriga aylanadi. Masalan, skiflar va qadimgi turkiylarning dafn odatlarida va dafn marosimi bilan bog‘lik udumlarda ko‘rish mumkin. Gerodotning yozishicha, skif zodagonlaridan (u «shoh skiflar» deb ataydi) birontasi vafot etganda (miloddan oldingi V asr), aholi marhum uchun aza tutayotganini ko‘rsatish uchun quloqlarini, qo‘llarini tiladilar, sochlarini oldiradilar, peshonasi va burnini yaralaydilar, chap qo‘liga kamon o‘qini suqadilar, yaxshi ko‘rgan otlarini qurbonlik qiladilar. Qadimgi turklarda ham shu udum davom etgan. Turk xoqoni Eltarish xoqon vafot etganda (milodiy 692 yilda) dafnda ishtirok etayotgan odamlar sochlarini qirdirganlar, quloqlarini yuzlarini tilganlar, zotdor otlarini qurbon qilganlar[5].

Uchinchi sababi – yer yuzining turli hududlariga istiqomat qiladigan xalqlarda yuz beradigan bir paytdagi va bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan madaniy hodisalardir. Masalan, turli qit‘alarda yashovchi insonlarning azaldan shu bugungacha turli buyumlarga, daraxtlarga, toshlarga topinganlar va bu hozirda ham ayrim xalqlarda saqlanib qolgan.

Madaniyatning noyob xususiyatlari – g‘ayrioddiy (ekzotik), ko‘pchilik tomonidan qabul qilinmagan odatlar, udumlardir. Dafn odatlari shunga misol bo‘la oladi. Ba’zi xalqlar madaniyatida insonlar tug‘ilganda emas, balki dafn marosimlarida saxiylik ko‘rsatilishi kerak, deb hisoblaydilar. Masalan, Madagaskarda dafn marosimlari odamlarning jamiyatdagi o‘rmini belgilaydigan



maqom darajasidadir. Shuning uchun ayrim odamlar vafot etganda, dafn marosimiga minglab odamlar keladi, ayrimlariga kamchilik qatnashadi, aza haftalab davom etadi. AQSh va Rossiyada dafn marosimi bir necha soat davom etadi. Boshqa ayrim xalqlar madaniyatida esa aksincha – inson dunyoga kelib, hayoti davomida boshqalarga oliyhimmatli bo‘lishi lozim, deb biladilar.

Biz o‘tmish davr madaniyatini o‘sha vaqtdagi odamlarga nisbatan kam bilamiz. Ammo masala bunda emas, balki o‘tmish madaniyati uzluksiz ravishda davom etib kelgani va bir davr madaniyati ikkinchi bir davr uchun zamin bo‘lib kelgani muhim masaladir. Shuning uchun madaniy taraqqiyot har doim uzluksizlikni talab etgan va shunday bo‘lib qoladi. Zotan, madaniyatga jamiyatning mahsuli, faoliyat usuli sifatida qaralgani uchun ham har bir jamiyatni u yoki bu madaniyatni yuzaga keltiruvchi manba sifatida ham qarash lozim bo‘ladi.

Shaxs va madaniyat o‘rtasidagi munosabat, yuqorida aytib o‘tganimizdek, murakkab jarayon hisoblanadi. Shaxsning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga imkon yaratuvchi ruh va ma‘naviy dunyoqarashi ijobiy va salbiy munosabatlari yig‘indisidan tashkil topadi. Insonga ishchanlik, fidoiylilik, matonat, o‘tkir zehn kabi ijobiy fazilatlar bilan birga kaltafaxmlilik, yalqovlik, shafqatsizlik, inson manfaatlarini to‘g‘ri tushuna olmaslik, haqiqiy qadriyatlarini soxtasidan ajrata bilmaslik illatlari ham xosdir. Shuning uchun madaniyatni nafaqat qadrlash va saqlash, balki unga tanqidiy munosabatda bo‘lish ham talab etiladi[4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. -С. 312.
2. Тарханова Е.А. Компетентностный подход к обучению студентов в высшей школе.
3. Компетентностный подход к развитию личности: Материалы Всероссийской науч.-практ. заочной конференции. Нижневартовск, 2007.
4. Дружиллов С.А. Профессиональная компетентность и профессионализм педагога:
5. Иванов Д.А., Митрофанов К.Г., Соколова О.В. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий. Учебно-методическое пособие. Омск: Омский государственный педагогический университет, 2003. -С. 101.



IJTIMOY MUHITNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

G.K.MARDIYEVA,

TMS instituti Pedagogika va psixologiya
kafedrası mudiri (PhD) dotsent

Bugungi kun yoshlari jamiyatning ko'zga ko'ringan faol ijtimoiy qatlami hisoblanadi. Respublikamizdagi ta'lim muassasalaridagi yoshlar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Bir vaqtning o'zida ular faol ijtimoiy qatlam sifatida har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan kelajakka intiluvchan, o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga harakat qiladigan, kuch-quvvatga to'la guruh hisoblanadi. Bularning barchasi yoshlarning xarakteridagi o'ziga xos xususiyatdir va o'z o'rnida ularning jamiyatning haqiqiy faol qismi bo'lish imkoniyatini beruvchi omildir.

Kalit so'zlar: yoshlar, ta'lim tizimi, ijtimoiy muhit, ijtimoiy qatlam, ta'lim va tarbiya masalalari, ma'naviyat, madaniyat, oilaviy tarbiya berish masalalari, o'qituvchi, ot-onalar, ustoz va murabbiylar.

Today's youth is a visible active social layer of the society. The majority of young people in educational institutions of our republic. At the same time, as an active social class, they are a group full of energy, striving for the future despite all difficulties, trying to make full use of their opportunities. All this is a characteristic feature of the character of young people and a factor that gives them the opportunity to become a real active part of society.

Key words: youth, educational system, social environment, social stratum, issues of education and upbringing, spirituality, culture, issues of family education, teacher, parents, teachers and coaches.

Ta'lim va tarbiya – shaxs shakllanishining asosini tashkil etadi. Tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim-tarbiya yagona jarayon, lekin ular aynan bir-biriga o'xshamaydi. Ta'lim-tarbiyaning birligi, avvalo, ular maqsadining umumiyligidan iboratdir.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatish emas, balki munosabatlar va o'zaro ta'sir ko'rsatish ekanligi bilan ahamiyatlidir. Tarbiya jarayonida yoshlarning turli qobiliyatlari rivojlanadi, ularda g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlar shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol bo'lmasalar, tajriba va bilimni o'zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulg'aygani sari ushbu faollik tobora ko'proq mustaqil xususiyatlarga ega bo'lib boradi. Tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni



tarkib toptirish, o'z-o'zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nika boradilar. Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchi-yoshlarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada esa yoshlarning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishdir.

Hozirgi kunda siyosiy va ma'naviy hayotining bevosita faol ishtirokchisiga aylantirish hamda uning siyosiy madaniyati, siyosiy ong darajasini yuksaltirish uchun zarur barcha siyosiy, huquqiy, ma'naviy va mafkuraviy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga bevosita yo'naltirilgan. Jamiyatimiz a'zolarining siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish bugungi kunda demokratik taraqqiyotimizning bosh mezoniga aylanmog'i lozim.

Ma'lumki, o'quv jarayonini kechishida yuzaga kelayotgan muammolar bilan ko'proq talabalar duch keladilar. Shuning uchun ular tomonidan bu boradagi ishlarni yaxshilash uchun ular fikriga tayanish ijobiy natijalar berishi mumkin. har ikki talabadan biri talabalarni mustaqil ishlariga etiborni kuchaytirish va laboratoriya ishlarini ko'paytirish kerak degan talablari universitet rektorati bu yo'nalishda to'g'ri harakat qilayotgani amaliy jihatdan isbotlandi. Jumladan, yangi o'quv rejasida ma'ruzalar 40% ni, amaliy mashg'ulotlar esa 60% ni tashkil etishi bunga aniq misoldir.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degandi: «Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonna, foyda ila zararni, oqila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kapidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahil maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i



lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir. Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordir».

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarga qaraganda shaxsga tashqi omillar ta'siri u xoh ijobiy, xoh salbiy ta'sir ko'rsatsin, tarbiyalanuvchi tarbiyasida namoyon bo'ladi. Tarbiyalanuvchining shaxsiy tajribasi va ehtiyojlari tashqi ta'sirga munosabatni belgilab beradi va uning xulqiga ta'sir etadi. Shuning uchun tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan munosabatini, turli xil kechinmalarni qanday anglashi, his qilishi hamda ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olishini bilish zarur.

Shaxs tarbiyasi jarayonida ijtimoiy institutlarning ichida mahalla o'ziga xos o'rin tutadi. Chunki bunda turli oilada tarbiya topgan yoshlarning turli ko'rinishdagi tarbiyalari uyg'unlashib, ma'lum bir xususiyatni shakllantiradi. Bunda ota-onalar, bolalarning yaqin qarindoshlari, mahalla maslahatchisi, mahalla oqsoqoli, mahalla posboni va mahalla faollari ham alohida o'rin egallaydi. Yaxshi uyushgan, ahil va sog'lom jamoada jamoatchilikning fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi. Tarbiyachi tomonidan tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir tartib bo'lishi mumkin.

Tarbiya masalasi doirasida mahallalar, oila va ta'lim tizimini bog'lab turuvchi mustahkam ko'priikka aylanish lozim. Tanlangan hudud respondentlarining «Oila-mahalla-maktab» konsepsiyasidan foydalanish holati o'rganilganda, har ikki hudud respondentlari bu konsepsiyadan foydalanishni aytishgan, jumladan, Toshkent shahridan – 89% va Toshkent viloyatidan – 92% respondent konsepsiyadan foydalanishini aytgan.

Har bir o'smir oilada, maktabda olgan saboqlari-yu, pand-nasihatlarining qanchalik haqqoniy ekanligini mahallada o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan amaliy muloqotlarda sinab ko'radi. «Sinov» dan o'tmagan har qanday pandu-nasihatlar ba'zan behuda ketishi hech gap emas. Vaholanki, mahalla bu-ijtimoiy hayot beshigi, Vatan timsolidir. Agar oila, ta'lim maskani o'smir uchun ma'lum tarbiya o'chog'i bo'lsa, mahalla uning uchun bir umr tarbiya mayog'i bo'lib qoladi. hatto ota-ona va tarbiyachining o'zi ham mahallada tarbiyalanadi, undan doimiy ravishda ma'naviy ozuqa oladi.

Har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson uchun zarur bo'lgan ma'naviyat qirralari – milliy g'urur iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat,



do'stlik, muruvvatlilik, qanoatlilik, sabr-toqatlilik, sahiylik kabi fazilatlarini shakllantirish zarurdir. Buning uchun buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan og'zaki, yozma ijodiyot, hadisi sharif, xalq kitoblari, pandnomalarida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan iymon-e'tiqod sirlarining nazariy va amaliy jihatlari haqidagi bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish lozim. Bu esa biz kattalardan ayniqsa, jamoatchilik vakillaridan quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- 1) barkamol inson uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlar mazmun-mohiyatini to'g'ri tushuntirish hamda ularni teran tahlil qilib, munosabat bildirish;
- 2) jamoada yashash, mehnat qilish malakalarini egallashga ko'maklashish;
- 3) barkamol inson moduli haqida tasavvur hosil etish, uning ma'naviyatidagi zaruriy sifatlarni shakllantirish, shakl va yo'llarini izlash.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik g'oyalari va mafkurasiga monand kelajagi buyuk davlat qurish, ya'ni obod va ozod Vatan barpo qilish, erkin va hur jamiyatni shakllantirish, komil inson – shaxsni tarbiyalab yetishtirish, yuqori madaniyatli – ma'naviyatli jamiyat yaratish hamda yuqori darajadagi moddiy farovonlikka erishish zamonaviy bilimlar asosida mumkinligini va bu yo'l yagona to'g'ri yo'l ekanligini hisobga olgan holda, Vatanimiz ta'lim tizimini o'ziga xos va o'ziga mos model asosida taraqqiy ettirayotganimiz va uning birinchi qaldirg'och natijalari xalqimizni cheksiz quvontirmoqda. Zero har bir inson Konstitutsiya, ya'ni qomusimizga asosan, ilm olishga huquqi bor ekan, bunday huquqni to'la amalga oshirish, ta'lim tizimining asosiy vazifasidir. Bunday vazifani amalga oshirish ta'lim tizimida Milliy Dastur va rejalarning amalga oshirish jarayoni doimo nazorat qilib turishni taqozo etadi. Zero, axborotlarsiz va ularning o'zgarib turishini tahlil qilib, turmushda uchrab turadigan salbiy holatlarni tezkorlik bilan tuzatmasdan turib, ta'lim tizimining umumli darajada rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Bu masalani o'z vaqtida hal qilish ta'lim tizimida alohida boshqaruv mexanizmi, ya'ni monitoring tizimini yaratishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy «Tanlangan asarlar». T.: Ma'naviyat, 2006 y -B.36.
2. B.Ziyomuxammadov «Pedagogika» -T 2006. «Turon-Iqbol» -B. 57.
3. N.R.G'aybulaev va boshqalar «Pedagogika» -T.: O'ZMU, 2005.
4. M.Quronov «O'talar kitobi» -T.: «O'zbekiston» -B. 2006.



KOMMUNIKATIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRUVCHI INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

M.Z.HAMDAMOVA,

Toshkent viloyati

*pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi, «Pedagogika, psixologiya
va ta'lim texnologiyalari» kafedrasining dotsenti, p.f.n.*

Ushbu ilmiy-amaliy maqoladagi ma'lumotlar va tavsiyalar malaka oshirish ta'lim tizimi xodimlariga mo'ljallangan bo'lib, bu boradagi bilimlarni uzluksiz ta'lim tizimidagi umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi maskanlarida, o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlash, to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish, onlayn kurslarini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: *innovatsiya, novatsiya (yangilik).*

Информация и рекомендации в этой научно-практической статье предназначены для сотрудников системы повышения квалификации, знание этого предмета в общеобразовательных школах и учреждениях среднего специального профессионального образования в системе непрерывного образования, может использоваться при дополнительной работе со студентами, организации кружковых занятий, разработке онлайн-курсов.

Ключевые слова: *инновация, новация.*

The information and recommendations in this scientific-practical article are intended for employees of the in-service training system, knowledge of this subject in general secondary schools and secondary special vocational education institutions in the system of continuing education, can be used in additional work with students, organizing circle classes, developing online courses.

Key words: *innovation, novation.*

Barcha sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik, bir muncha o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish, bugungi jamiyat a'zolaridan, kasb ustalaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. Shunday ekan, fan va ta'limning barcha bosqichlarida, ta'lim muassasalarining barcha tarmoqlarida kadrlarni tayyorlash jarayonida bugungi kun, davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Tanlangan mavzumizning metodologiyasi amaliyotga joriy etilgan. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va mazmuni, turlari uslubiy va



nazariy asoslari orqali ta'limdagi har qanday muammolarni yechish mumkin!. Lug'aviy jihatdan «innovatsiya» tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda («innovation») «yangilik kiritish» degan ma'noni anglicada, innovatsion erkinlik oqsayotganligi sabab yachratilgan yangiliklarni yuzaga chiqarish muammo bo'lib kelmoqda. «Innovatsiya» tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega:

«Innovatsiya (ingl. «innovation») – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarda qo'llanishi».

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbir etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaridor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivoj Innovatsion texnologiyalarning yakkol namunalaridan biri bu – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridir (AKT). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - axborotlarni yetkazish va uzatish, to'plash, qayta ishlash, saqlash, takdim etish va foydalanish uslublari, usullari tizimiga aytiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – boshqaruv vazifalarini hal etish uchun tizimli tashkil etilgan axborot jarayonlarini amalga oshirish usuli va vositalarining majmuidir, desa bo'ladi.

«Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

yangi g'oyalar;

tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar.

Ilmiy adabiyotlarda «novatsiya» (yangilanish, yangilik) hamda «innovatsiya» (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va boshqa ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra novatsiya va innovatsiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir. Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar:

1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi;



- 2) ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi;
- 3) metodlar yangilanadi;
- 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi».

Ushbu farqlarni anglagan holda o‘qituvchining shakllangan kommunikativ ta‘sir etish usullari yuqorida ta‘kidlangan mezonlar asosida rivojlanib boradi. Chunki aynan pedagogik voqelikda o‘z-o‘zini tahlil etish, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ularning o‘zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan «Men-konsepsiyasi»ning rivojlanishiga undovchi kommunikativ ta‘limni rivojlantiruvchi ichki omillarning eng asosiyalaridan biridir. Bunda har bir pedagog o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. O‘z-o‘zini tahlil etish usullari quyidagilarga e‘tibor qaratishni talab etadi:

1) ijtimoiy moslashuvchanlikka yo‘naltirilgan o‘zaro harakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o‘ziga xosliklari, qadriyatlarini tizimi kabilarni obyekt sifatida ko‘rib chiqish;

2) o‘z ustida ishlash jarayonida, o‘z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash;

3) innovatsion noma‘lumdan ma‘lumini ajratib olish;

4) mavjud qarama-qarshiliklarni aniqlash.

O‘z-o‘zini rivojlantirish omillarini va tahlil etish, o‘z-o‘zini anglashdan avval, aynan uning asosida shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlari umumlashgan ko‘rinishga ega bo‘ladi. O‘z-o‘zini anglash natijasida shaxsda o‘zining kimligini anglash, o‘zining jamiyatdagi o‘mini tushunib yetishi, boshqalarning ko‘z o‘ngida kim sifatida gavdalanishini his etish kabilar shakllanadi. O‘z-o‘zini rivojlantiruvchi omillarni anglash o‘z-o‘ziga munosabat sifatida shakllanuvchi hissiy va mantiqiy jihatlarini o‘zida aks ettiradi. Bu borada amaliyotchi pedagoglarimizning fikriga ko‘ra, ta‘lim innovatsionlari quyidagi o‘zgarishlarga olib keladi:

– pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi;

– o‘quv jarayonining o‘zgarishi;

– pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;

– o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;

– o‘quvchi (talaba) faoliyatining yangilanishi;

– pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;

– ta‘lim mazmunining yangilanishi.

Agarda, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lgan faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa, u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma‘lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga xizmat



qiladigan bo'lsa, yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Bunda o'qitishning shakli, metodi va vositalarining o'zgarishi, ta'lim tizimi boshqaruvining o'zgarishi, hamda ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishiga olib keladi..

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda, ayniqsa, kompyuter o'yinlari farzandlarimiz uchun yangilik emasdir. Ular axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jadal rivojlanib borayotgan davrda tug'ilganliklari uchun ham hozirgi kundalik hayotimizdagi qulayliklar bo'lmagan davrni hatto tasavvur ham eta olmaydilar. Bugungi kunda onlayn va ZOOM orqali tashkil etilayotgan darslarni to'laqonli o'zlashtirib o'rganib kelayotgan yoshlarimiz, kommunikatsion ta'limni rivojlantirib borishimiz uchun turtki bo'lmoqda! Albatta, AKT bolalarning bilimi, tafakkuri boyishiga katta ta'sir etishi tabiiy. Ma'lumki, kompyuter vositasida ko'plab ta'limiy, til o'rgatuvchi va boshqa turli bilim va ko'nikmalar shakllanishiga yordam beruvchi qiziqarli dasturlar talaygina ekanini ham bilamiz. Ular orasida hattoki, imkoniyati cheklangan bolalarga ham maxsus dasturlar mavjud. Shu o'rinda bir e'tiborli fikrni ta'kidlashni joiz deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Зебунисо-Кониғил / 4-том. Бош тахрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва б. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002.- 169-бет.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон Фармони.

4. Агеев В.Н. Электронная книга: Новое средство социальной коммуникации. М. 1997.

5. Гречихин А.А., Древе Ю.Г. Вузовская учебная книга: типология, стандартизация, компьютеризация. М. «Логос». 2000 г.



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING DIZAYNERLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

D.A.NORBUTAYEVA,
O‘zPFITI mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining dizaynerlik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: dizayn, model, konstruksiyalash, modellashtirish, texnologiya, texnologik ta‘lim, kreativlik, dizaynerlik kompetensiyasi.

В данной статье говорится о педагогических возможностях формирования проектной компетентности будущего учителя технологии.

Ключевые слова: дизайн, модель, конструирование, моделирование, технология, технологическое образование, креативность, дизайнерская компетенция.

This article talks about the pedagogical possibilities of developing the project competence of a future technology teacher.

Key words: design, model, construction, modeling, technology, technological education, creativity, design competence.

Texnologik ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablarida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisiga dizaynerlik faoliyati bo‘yicha quyidagi talablar belgilangan:

– dizayn sohasida zamonaviy kiyim modellarini, kiyimlarning istiqbolli yo‘nalishlarini va iste‘molchi talablarini inobatga olgan holda kostyum elementlarini konstruksiyalash va modellashtirish;

– yangi zamonaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash;

– kiyim elementlari dizaynini tizimli yondashuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqishni o‘z faoliyatida qo‘llash;

– kiyimning katta va kichik detallarini, bezak elementlarini tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarish uchun konstruktorlik hamda dizaynerlik hujjatlarini va tayyor kiyim namunalarini ishlab chiqish.

Jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi davrida ta‘lim-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta‘sirini tahlil etganda, bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarida dizaynerlik faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini aniqlandi:

– zamon talabiga mos holda ta‘lim tizimi metodologiyasi va o‘quv jarayoni



texnologiyasini yangilashni talab qiladi. Bu jarayonda bo'lajak texnologiya o'qituvchisining dizaynerlik faoliyatida yangiliklar yaratish, kreativ fikrlash va dizaynerlik kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

– texnologik ta'lim o'quv rejasidagi fanlarni bo'lajak o'qituvchilarga etkazib berishda o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya'ni ta'limga innovatsiyalar kiritishni taqozo qiladi.

– konstruktorlik – dizaynerlik bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq etishga nisbatan bo'lajak texnologiya o'qituvchilarda motivatsion-qadriyatli, ijodiy-faoliyatli va operatsion-texnologik komponentlarini rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchisini tayyorlashda dizaynerlik kompetensiyasini rivojlantirishda avvalambor mazkur tushunchaning mohiyatini ochib berilishi, uning tarkibiy tuzilmasini belgilanishini belgilab olishni taqazo etadi.

Oliy ta'lim tizimida texnologiya ta'limi o'qituvchilarida dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlanish jarayonini takomillashtirish borasidagi olib borilgan tadqiqotlar tahlili, shuningdek texnologiya ta'lim yo'nalishining malaka talablari, o'quv me'yoriy hujjatlari, o'quv reja va dasturlarini tahlili asosida bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda quyidagi muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa ekanligi aniqlandi:

– bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirishda ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, qo'llay olish kompetensiyasini rivojlanganlik darajalarini aniqlash.

– bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirishga (motivatsiyat-qadriyatli, ijodiy-faoliyatli, operatsion-texnologik) tayyorgarligining tarkibiy komponentlari ko'rsatkichlarini taqqoslash.

– ushbu fan o'qituvchilarining dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini aniqlovchi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish va amaliyotga tatbiq etish.

Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan barcha ixtisosliklar fanlari o'zida asosan faqat ma'lumot beruvchi, o'rgatuvchilik funksiyasi bilan chegaralanib qolmasdan fikrni rivojlantiruvchi, integrallashtiruvchi, tarbiyalovchi funksiyalariga ham egadir.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchisining dizaynerlik kompetensiyasining rivojlanishi uning jamiyatdagi o'rni, pedagogika oliy o'quv yurtidagi majburiyati va vazifalariga hamda individual qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. O'qituvchining dizaynerlik kompetensiyasining rivojlanishi uning individual xususiyatlari



(fikrlashning ilmiy tarkib topganligi, ishga ijodiy yondashishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi va boshqalar)ning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

O‘qituvchining dizaynerlik kompetensiyasini rivojlanishini ta‘minlovchi asosiy ziddiyat inson qobiliyatlari hamda pedagogik faoliyat talablari o‘rtasidagi tafovut bilan belgilanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining dars berish jarayonda yuzaga keluvchi ziddiyatlarni o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida hal qiladi. Bu faoliyat o‘qituvchining individual uslubini belgilab beradi.

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining o‘z-o‘zini boshqarish, jur‘atlilik, qat‘iylik, jasurlik, atrofda insonlarga hurmat va e‘tibor, kamchiliklarini his qilgan holda o‘zining imkoniyatlariga ishonch, o‘z kuch-quvvatini maqsadli yo‘naltira olish, faoliyatini baholashda haqqoniylik, kuchli iroda, aqliy faollik va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish, faoliyat va belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo‘lida imkoniyatlarini jamlay olish, belgilangan maqsadni amalga oshirishda faoliyatini to‘g‘ri boshqarib borish, shaxsni harakatga keltiruvchi kuch hamda ijtimoiy olam bilan o‘z imkoniyatlarini qiyoslay olish sifatlariga ega bo‘lsagina yuksak kasbiy mahorat darajasiga erisha olishi mumkinligi aniqlangan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishi ularda fikrlash jarayonining samaradorligi, shu o‘quv materialidan dizaynerlik faoliyatida zarur bo‘lgan xulosalarni chiqara bilishi, o‘quv materialini umumlashira olishi, maqsadiga erishuvchanligi, o‘z fikrida qat‘iy turishi, o‘quv materialining ta‘lim jarayonidagi kamchiliklarni to‘ldirishga yordam berishi ham inobatga olinishi zarur. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarga beriladigan o‘quv materialining ilmiy, ta‘limiy-didaktik va axloqiy talablarga javob beradigan qilib tanlanishi ularning ertangi bilim saviyasi, kelajakda amaliyotdagi yutug‘i, shaxs sifatidagi takomili majmuasi hamdir.

Demak, ixtisoslik fanlarini o‘qitishda psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olinishi bevosita bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining dizaynerlik kompetensiyasini shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekan.

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining dizaynerlik faoliyati – bu o‘quv tarbiyaviy jarayonga o‘zining faol munosabatlarini bildirib, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy – iqtisodiy nuqtai nazardan yondoshib, komil inson sifatleri bilan birga aqliy, yangi kiyim modellarini yaratishda tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi faoliyatdir. Shuning uchun ham dizaynerlik bo‘yicha ko‘nikma va malakani shakllantirishda, har tomonlama takomillashgan ixtisoslik fanlaridan chuqur egallangan bilim zarurdir. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilariga ixtisoslik fanlaridan beriladigan bilimlarning o‘ziga xos sintezini



aniqlash va bu sintezda qatnashayotgan bilimlarning tabiati, ularning o'zaro aloqadorligi, tuzilishi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida ma'lumotlarning ta'lim jarayonida berib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir bo'lajak texnologiya o'qituvchisining imkoniyatiga, asosan bilimga bo'lgan intilishiga ko'ra o'zining bilimlar blokiga ega bo'ladi. Bu bilimlar tuzilmasiga ko'ra, texnik va texnologik mazmundagi, psixologik-pedagogik, falsafiy, fizik-matematik hamda zamonaviy modellarni yaratish va tikish bo'yicha bilimlar to'plami bo'lib, bo'lajak o'qituvchining qaysi yo'nalishga mos bilimlar kerakligiga tayangan holda, shu mazmundagi bilimlarni bankdan ajratadi. Bu bilimlarni chuqurlashtirib talab qilingan maqsadda foydalanishga harakat qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bo'lajak texnologiya o'qituvchisida dizaynerlik komietensiyasini shakllanishi hamda rivojlanishi mazkur o'qituvchining individualligining maqsadlarini tasavvur qilish, ya'ni ijodiy faoliyat maqsadini belgilash hamda dizaynerlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga intilish, unga oid tasavvurining rivojlanishi, dizaynerlik faoliyatida o'zining emotsional holatlarini boshqarish, shuningdek, bu faoliyatni amalga oshirishdagi qat'iyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, echimini topilishi qiyin bo'lgan vaziyatlarni engib o'ta olish, izlanuvchanlik holatida o'z-o'zini boshqara olish, o'zining yaratgan kiyimlarida dizaynerlikka oid echimlarini tahlil qila olish qobiliyatlarini rivojlantira olish, ijodkor texnologiya o'qituvchisi sifati tasavvurlarning, mustaqil fikrlashning rivojlanishi kabilardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibraimov Kh. I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher // Science, education and culture. - 2018. - no. 3 (27). - P. 44-46.
2. Ibragimovich Kh.I. Peculiarities of using credit-module technologies in the higher education system of Uzbekistan //Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. - 2021. - P. 209-214.
3. Muslimov N.A, Urazova M.B., Eshpulatov SH.N. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
4. N.A.Muslimov, D.A.Norbutayeva, «Development of designing creative competencies of future teachers of professional education», SCIENCE COMMUNITY: WEB OF CONFERENCES / KOMUNITAS SAINS:WEB KONFERENSI November-December, 2021 Djakarta, Indonesia



TALABALARNING OG‘ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

G.B.G‘OFUROVA,

TDPU, Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda
xorijiy tillar kafedrası o‘qituvchisi

Ushbu maqolada, talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Samarali og‘zaki muloqot talabalarning ilmiy va kasbiy muvaffaqiyatlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan hal qiluvchi mahoratlidir. Sinfda g‘oyalarni taqdim etish, guruh muhokamalarida qatnashish yoki nutq so‘zlash, fikrlarni aniq va ishonarli bayon qilish qobiliyati juda muhimdir.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, muloqot, talabalar, kompetentsiya, rivojlantirish metodikalari, qobiliyat, kommunikatsiya, texnologik vositalar.

В данной статье рассматриваются идеи и выводы по совершенствованию методологии развития устной речевой компетенции студентов. Эффективное устное общение играет ключевую роль в академическом и профессиональном успехе студентов, выступая важным навыком. Представление целей в классе, участие в групповых обсуждениях или умение говорить ясно и уверенно являются неотъемлемыми навыками.

Ключевые слова: устная речь, общение, студенты, компетентность, методологии развития, навыки, общение, технологические инструменты.

This article discusses ideas and conclusions about refining the methodology for developing students' oral speech competencies. Effective verbal communication plays a crucial role in the academic and professional success of students, acting as a pivotal skill. Presenting goals in class, participating in group discussions, or speaking articulately and confidently are essential abilities.

Key words: oral speech, communication, students, competency, development methodologies, skills, communication, technological tools.

Og‘zaki muloqot qobiliyatlarini shunchaki gapirish harakatlaridan tashqari, ular tinglash, tanqidiy fikrlash va g‘oyalarni izchil yetkazish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bugungi o‘zaro bog‘liq dunyoda samarali og‘zaki muloqot shaxsiy va kasbiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Og‘zaki nutq qobiliyatiga ega bo‘lgan talabalar intervyularda ustunlik qilishlari, jamoaviy sharoitlarda hamkorlik qilishlari va o‘z g‘oyalarni ishonch bilan taqdim etishlari uchun yaxshiroqdir [1, 142].

Og‘zaki nutq vakolatlarining tan olingan ahamiyatiga qaramay, ularni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan hozirgi metodologiyalarda muammolar



mavjud. An'anaviy sinf sozlamalari ko'pincha yozma muloqotga ko'proq e'tibor qaratadi va og'zaki ko'nikmalarni ta'kidlamaydi. Bundan tashqari, talabalar xavotirga duch kelishlari yoki mashq qilish va konstruktiv fikr-mulohazalarni olish imkoniyatiga ega bo'lmasliklari mumkin, bu ularning og'zaki muloqotdagi rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. O'quvchilarni sinf ichidagi interaktiv faoliyatga jalb qilish asosiy yondashuvdir. Ushbu mashg'ulotlar kichik guruh muhokamalaridan tortib, rol o'ynash mashqlariga qadar bo'lishi mumkin. Faol ishtirok etishni rag'batlantiradigan muhitni yaratish orqali talabalar og'zaki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berib, so'zlarini yanada ishonchli ifoda etishni o'rganadilar.

Talabalarni guruh muhokamalarida faol ishtirok etishga undaydigan hamkorlikdagi o'quv muhitini yaratish. Bu nafaqat ularning og'zaki muloqot qobiliyatlarini oshiradi, balki jamoaviy ish, tanqidiy fikrlash va guruh sharoitida g'oyalarni ifodalash va himoya qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalarga shaxsiy fikr-mulohazalarni taklif qila oladigan nutq murabbiylari yoki murabbiylariga kirish huquqini bering. Konstruktiv tanqid talabalarga takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi va ularning ishonchini oshiradi [3, 64]. Taraqqiyotni kuzatish va individual ehtiyojlarni qondirish uchun muntazam fikr-mulohaza seanslari o'quv dasturiga kiritilishi mumkin.

Ta'lim muassasalarida nutq va munozara dasturlarini yaratish og'zaki muloqot ko'nikmalarini oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Ushbu dasturlar talabalarni turli mavzularda izlanish, tahlil qilish va o'z fikrlarini bayon qilishga undaydi. Munozaralarda qatnashish nafaqat ularning ishonarli gapirish qobiliyatini oshiradi, balki tanqidiy fikrlash va samarali bahslashishga yordam beradi. Omma oldida nutq so'zlashga qaratilgan seminarlarni tashkil etish maqsadli ko'rsatma berishi mumkin [4, 82]. Tajribali ma'ruzachilar yoki aloqa bo'yicha mutaxassislar talabalarga sahna qo'rquvini engish, vokal yetkazib berishni yaxshilash va jozibali rivoyatlarni yaratishga yordam beradigan qimmatli tushunchalar, maslahatlar va texnikalar bilan bo'lishlari mumkin. Ushbu seminarlar o'quv dasturiga kiritilishi yoki darsdan tashqari mashg'ulotlar sifatida taklif qilinishi mumkin.

Og'zaki muloqotda madaniy kompetentsiyaning ahamiyatini tan oling. Bu nafaqat talabalarning madaniyatlar bo'ylab muloqot qilish qobiliyatini yaxshilaydi, balki yanada inklyuziv o'quv muhitini yaratadi. Munozara klublari, drama yoki notiqlik musobaqalari kabi darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etishni



rag‘batlantirish [5, 470]. Ushbu tadbirlar talabalarga rasmiy sinfdan tashqarida og‘zaki muloqot qobiliyatlarini mashq qilish va takomillashtirish uchun qo‘shimcha platformalarni taqdim etadi.

O‘zaro baholash mashg‘ulotlarini sinf faoliyatiga kiritish talabalarga o‘z tengdoshlariga konstruktiv fikr bildirishga imkon beradi. Bu nafaqat faol tinglashga yordam beradi, balki o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish madaniyatini rag‘batlantiradi. Tengdoshlarning konstruktiv tanqidlari o‘shish sohalarini aniqlashda va nutq qobiliyatiga ishonchni oshirishda bebaho bo‘lishi mumkin. Hikoya qilish og‘zaki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Talabalarni o‘rganilayotgan mavzular bilan bog‘liq shaxsiy latifalar yoki rivoyatlar bilan bo‘lishishga undash. Bu nafaqat o‘quv tajribasini yanada qulayroq qiladi, balki o‘quvchilarga o‘z fikrlarini izchil ravishda tuzish va bayon qilishga yordam beradi.

Og‘zaki ifoda bilan birga og‘zaki bo‘lmagan muloqotning ahamiyatini ta‘kidlang. Tana tili, yuz ifodalari va imo-ishoralalar samarali muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Og‘zaki bo‘lmagan elementlarga qaratilgan tadbirlar talabalarga xabarlarni so‘zlardan tashqari etkazishning nuanslarini tushunishga yordam beradi. Og‘zaki nutq qobiliyatlarini rivojlantirish-bu tuzilgan metodologiyalar va ijodiy yondashuvlarning kombinatsiyasini talab qiladigan doimiy jarayon.

Xulosa. Interfaol faoliyatni birlashtirish, texnologiyadan foydalanish va tengdoshlarning o‘zaro ta‘siri va mulohazalari uchun imkoniyatlar yaratish orqali o‘qituvchilar ishonchli va aniq kommunikatorlarni tarbiyalaydigan muhit yaratishi mumkin. Ushbu ko‘nikmalar bir marta takomillashtirilib, bebaho boylikka aylanib, talabalarga zamonaviy dunyoning murakkabliklarini notiqlik va ishonch bilan boshqarish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. -Toshkent: Fan, 2006. 142 b.
2. Rixsiyeva G.Sh., Sodiqova Sh.B. O‘qituvchi nutqi madaniyati. - Toshkent: 2009. 75 b.
3. Vohidov E. So‘z latofati. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 64b.
4. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. - Toshkent: EXTREMUM PRESS, 2010. 82b.



HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARI O'RTASIDA MILLATLARARO BAG'RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRISH MODELI

U. M. DADABOYEV,

O'zMU Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi sikl boshlig'i

Maqola harbiy ta'lim muassasalari kursantlari o'rtasida millatlararo bag'rikenglikni shakllantirishning o'ziga xos hususiyatlari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida harbiy ta'lim muhitidan kelib chiqqan holda bag'rikenglik tushunchasiga ta'rif beriladi. Integratsiya yo'li bilan kursantlar o'rtasida etnik bag'rikenglikni shakllantirish modelining tavsifi keltiriladi.

Kalit so'zlar: millatlararo bag'rikenglik, kursant, harbiy ta'lim muassasalari, tamoyil, amalga oshirish bosqichi, etnotolerant xulq.

The article is devoted to describing the manifestation of interethnic tolerance among military university cadets. It defines and clarifies the concept of interethnic tolerance in relation to the specifics of the military educational environment. The article describes the author's model for the formation of ethnic tolerance among cadets by means of integrating training and education at a military university based on ideological guidelines and principles of humane interaction in the educational environment.

Key words: interethnic, tolerance, cadet, military educational institutions, principle, stage of implementation, ethno-tolerant behavior.

Статья посвящена описанию проявления межэтнической толерантности курсантов военного вуза. В ней даются определения и уточнения понятия межэтнической толерантности применительно к специфике военно-образовательной среды. В статье приводится описание авторской модели формирования этнической толерантности курсантов средствами интеграции обучения и воспитания в военном вузе на основе идеологических ориентиров и принципов гуманности взаимодействия в образовательной среде.

Ключевые слова: межэтнический, толерантность, курсант, военные учебные заведения, принцип, этап реализации, этнотолерантное поведение.

XXI asr boshlarida ta'lim ijtimoiy dinamika va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim dvigateliga aylandi. Aynan ta'lim va tarbiya jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchi ekanligidan kelib chiqib shaxsning noyob qadriyatini tan olish O'zbekiston Respublikasida asosiy konstitusiyaviy meyor sifatida ta'lim tizimiga yo'naltirildi. O'zbekiston millatparavar bag'rikeng davlat. Xalqimizga xos bu xususiyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topgan: mamlakatimiz davlat ta'lim muassasalarida darslar yetti tilda olib boriladi [1]. Shuning uchun ham bugungi kunda insonning shaxsiy javobgarligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy ta'lim yo'nalishlari ichida bag'rikenglik modeli eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. Zero, yurtimizda hukm surayotgan osoyishtalikning muhim omillaridan biri – bu millatlararo bag'rikenglikdir. Bu tamoyil har doim hukumatimizning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki, prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, hozirgi o'ta notinch va murakkab zamonda bebaho boyligimiz bo'lgan tinch va osoyishta



hayotni ko'z qorachig'idek saqlash, jamiyatimizda millatlararo va dinlararo hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash har doim eng muhim va ustuvor vazifa bo'lib qoladi [2]. Mamlakati-mizda turfa diniy e'tiqodga ega turli millat vakillarining buyuk g'oya, sof niyat yo'lida hamjihat yashashi, bilim olishi esa, bag'rikenglikning yorqin namunasi sanaladi. Shu nuqtai nazardan harbiy ta'lim muassasalari ham kursantlari o'rtasida millatlararo bag'rikenglikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, bu, bir tomondan, ushbu bilim dargohlarida xorijiy kursantlar sonining ortishi bilan bog'liq jarayon sanaladi. Bu, o'z navbatida, millatlararo muloqot madaniyatini vujudga keltiradi va millatlararo bag'rikenglikning shakllanishini aks ettiradi. Shulardan kelib chiqqan holda harbiy ta'lim amaliyotida bag'rikenglikni shakllantirishning murakkab jihatlari, uning o'ziga xosligi quyidagicha belgiladik:

Motivatsion komponent. Kursantning istagi va uning har bir harakati boshqa millat vakillariga nisbatan ishlab chiqilgan va shakllangan axloqiy meyorlarga muvofiq bo'lishini nazarda tutadi. Bunda u madaniy tafovutlarni tan olish asnosida boshqa din vakillari bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatadi. Bu, o'z navbatida, shaxsning yoshi, ma'lumoti, tarbiya darajasi bilan bog'liq bo'lgan ustun motivlar-ning o'zgarishi bilan tavsiflanadi.

Kognitiv-amaliy komponent kursantlarning tabiat, jamiyat, tafakkur faoliyat usullari to'g'risidagi bilimlari bilan birga odat va qadriyatlar, xulq-atvor xususiyatlari to'g'risida barqaror bilimlarni shakllantirishni ifoda etadi. Ushbu komponent doirasida turli davlatlararo platformalarda muzokaralar olib boradigan va tinchlik-parvar hamkorlikni amalga oshiruvchi zamonaviy ofitser uchun muhim bo'lgan madaniyatlararo professional muloqot ko'nikmalari samarali rivojlanadi.

Qiymat-semantik komponent kursantlarda boshqa etnik yoki milliy guruhning madaniy, kundalik, kommunikativ turmush tarzi modellarini qabul qilish va tushunish qobiliyatini shakllantiradi. Ro'yxatda keltirilgan barcha tarkibiy qismlar kompleks tarzda amalga oshiriladi. Ana shunda kursantlar o'rtasida bag'rikenglik shakllanadi, ular boshqa din va millat vakillariga nisbatan salbiy munosabatda bo'lmaydi yoki nomaqbul xatti-harakatlar qilmaydi. Ular qalbida boshqa birovning madaniyatini qabul qilish va tushunish istagi paydo bo'ladi. Harbiy ta'lim muassasalarida millatlararo muloqot madaniyatining tarkibiy qismlaridan kelib chiqib kursantlarda millatlararo bag'rikenglikni rivojlantirish jarayonida muhitning qanday funksiyani bajarishini quyida aniqlab olamiz:

Ma'noni shakllantirish funksiyasi kelajakda harbiy xizmatchilarning millatlararo munobatalarni idrok etish va uning o'zaro ta'sirining madaniy xususiyatlarini xalqaro maydonda emas, balki harbiy-professional muhitda o'rganish, ma'nosini anglashni belgilaydi.

Reflektiv funksiya kursantlarning individual vaziyatlarda olingan va umumiy modellar va xulq-atvor namunalariga mos millatlararo o'zaro munosabatlar tajribasi to'g'risidagi bilim jarayonlarini aks ettiradi.

Shaxsni tanishtirishning tarbiyaviy funksiyasi muomala madaniyatini o'z ichiga oladi va u bir nechta prinsiplardan tarkib topadi:



Fikrlash prinsipi. Uning vazifasi kursantning xabardorligini, o'z pozitsiyasini tushunishini, ushbu pozitsiyani qo'llab-quvvatlaydigan nazariy asosning mavjudligini, shuningdek, xalqaro muhitda o'zaro ta'sir qilish tajribasining millatlararo tushunishni ta'minlaydi.

Muvofiqqlashtirish prinsipi. O'zaro ta'sir jarayonida izchillikni ta'minlash, o'qituvchilar va kursantlarning harbiy ta'lim muhitida millatlararo bag'rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan harakatlarini mantiqiy ketma-ketlik shaklida loyihalash bilan tavsiflanadi. Taklif etilayotgan modellarning tarkibiy-funksional tuzilmasi harbiy ta'lim muassasalari kursantlari o'rtasida millatlararo bag'rikenglikni shakllantirish bo'yicha uch bosqichda amalga oshiriladigan integratsiyalashgan o'quv va ta'limni bo'yicha ishlab chiqilgan kompleks dasturni o'z ichiga oladi:

Muhokama va munozara. Mazkur birinchi bosqichda ma'lumot to'plash, diagnostika qilish va uning psixologik asosi sifatida millatlararo bag'rikenglik va umumiy bag'rikenglik darajasining dastlabki vositalarini baholash amalga oshiriladi. Bu jarayon ta'lim olishga qaratilgan millatlararo o'zaro hamkorlik tajribasini aks ettirish, harbiy ta'lim muhitida bag'rikenglik bilan birga yashash ko'nikmalarini takomillashtirishdan iboratdir. Ushbu bosqichda kursantlar bir-birining xususiyatlari va kamchiliklariga nisbatan empatiya va bag'rikenglikning ijtimoiy samarali xulq-atvor modellari o'zlashtiriladi, ta'lim va kasbiy muammo-larni samarali hal qilishda kursdoshlarining kuchli tomonlariga tayangan holda jamoada ishlashni o'rganadilar.

Nazorat va baholash bosqichining mazmuni kursantlarning tolerantlik salohiyatidan kelib chiqib o'z-o'zini baholash vositalarini loyihalash, yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha individual va jamoaviy faoliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich nafaqat bag'rikeng shaxs ko'nikmalarining mohiyati va tuzilishini, balki o'zini-o'zi baholash va o'zini-o'zi tuzatish usullarini bilish va tushunish bilan tavsiflanadi.

Ta'kidlash joziki, harbiy ta'lim muassasalarida tahsil oladigan kursantlarning turli millat vakillari ekanligidan kelib chiqqan holda ularning xulq-atvor namunalari u yerdagi muhitning meyoriy talablariga muvofiq ishlab chiqiladi. Bu ham tolerantlikning yaqqol namunasi sanaladi. Kursantlardagi bag'rikenglik darajasi esa, bag'rikeng shaxsning aniq xususiyatlarini ko'rsatadi. Bundan hulosa qilish mumkinki, oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlar bag'rikenglikni rivojlantirishga hissa qo'shadigan eng rivojlangan ko'nikmalarga ega. Olimlar bag'rikenglikni bir-birining madaniyati, qiziqishi va dunyoqarashini hurmat qilishdir, deya ta'rif berishgan [3]. Misol tariqasida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, shaxsning ma'lum bir din, millat yoki etnik guruhga sodiqligi, birinchi navbatda, boshqa shaxsning o'xshash xususiyatlariga nisbatan uning qiziqishi va bag'rikengligini tavsiflaydi [4]. Xo'sh, bag'rikenglik xususiyati kursantlar uchun nima uchun zarur? Bu, birinchi navbatda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mamlakatdagi osoyishtalik va aholi o'rtasidagi faravonlikni ta'minlashda muhim sanaladi. Harbiy xizmatchilarning bosh missiyasi Vatan himoyasi ekanligini hisobga olsak, harbiy xizmatchi faoliyatida bag'rikenglikning nechog'liq



ahamiyatli ekanligini teranroq anglaymiz. Murakkab hodisa bo'lgan, insonlarning dunyoqarashi va fikrlash tarziga asoslangan millatlararo munosabatlarning holati va rivojlanishi ko'p jihatdan aholining bag'rikenglik darajasiga bog'liq, ekanini haqiqatdir. Shuning uchun ajdodlarimiz ham qadim-qadimdan bag'rikenglik madaniyatini umumbashariy qadriyat darajasiga olib chiqish har doim muhim bo'lib kelgan [5].

Dastlab shuni ta'kidlash joizki, bu jarayon etnik-madaniy nazariya va kursantlarning harbiy amaliyoti kabi tarkibiy qismlarni bir butunga birlashtiradi. Bunda yaratilgan shart-sharoitlarning maqbulligi va samaradorligini tekshirishning samarali mexanizmi ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Shunday qilib, biz ilmiy-nazariy manbalar asosida modellarning tabiati va mazmunini hisobga olgan holda, ularning turlari, tuzilishi va vazifalarini o'rganib chiqdik va tahlillarimiz asosida etnik bag'rikenglikni shakllantirishning tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqdik. Jarayonni model-lashtirish esa, harbiy sohada o'qitish va ta'limni integratsiyalashuvi orqali ushbu kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim natijasini shakllantirish konseptual g'oya bilan birlashtirilgan tizimli, integrativ va aksiologik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Oliy harbiy ta'lim muassasi kursantlarida millatlararo bag'rikenglikni shakllantirishning eng muhim xususiyati, birinchi navbatda, komandirlar, o'qituvchilar va psixologlarning tarbiyaviy faoliyatidir. Shunday ekan, bu borada ular kursantlarga to'g'ri va samarali bilim berishlari, buning uchun o'z ustida ishlashlari, jamoada do'stona muhitni qaror toptirishga intilishlari har doim dolzarb ahamiyat kasb etadi. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantirishda muloqot madaniyati ham yetakchi rol o'ynashini hisobga olsak, kursantlarda muomala madaniyatini shakllantirish ham muhim ekanligini anglaymiz. Chunki shunday fazilatga ega kursantlarda yetakchilik, jamoani jipslashtirish qobiliyati kuchli bo'ladi. Bu esa, jamoa birligiga hissa qo'shadi. Millatlararo bag'rikenglik qadriyatlariga yo'naltirilgan harbiy ta'lim muhiti bo'lajak ofitserlarda zarur xulq-atvor modelini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Eng muhimi esa, harbiy xizmatchilarda milliy bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish orqali xalq va armiya yakdilligini yanada mustahkamlashga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. https://uza/uz/posts/millatlararo-totuvlik-va-diniy-bag'rikenglik-tinchligimiz-garovi_538291 (мурожаат ва?ти: 21.11.2023)
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. - Т.: Ўзбекистон, 2018.
3. Бафәев М.М. Хориж психологлари тадқиқотларида миллий бағрикенглик муаммоси // Психология. - Бухоро, 2019. - 3-сон. - Б. 35.
4. Асмолов А.Г. На пути к толерантному сознанию. - М.: Смысл, 2000. - 255 с.
5. Бафәев М.М. Ўзбек миллий қадриятлари тизимида миллий бағрикенглик муаммосининг назарий таҳлили // Шахсада илмий дунёқараш ривожланишининг психологик имкониятлари ва тарбиявий жиҳатлари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Т., 2019. - Б. 40-43.



BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI STANDARTLARIDA TALAB ETILADIGAN KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

M. T. MADRAXIMOVA,

*Go‘qon Davlat pedagogika
instituti biologiya kafedrası o‘qituvchi*

Maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o‘quvchilarni matematik, tabiiy ilmiy va o‘qish savodxonligi hamda kreativ fikrlash, muammolarni yechishga tayyorlashning tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirish metodlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *PISA TIMSS, matematik savodxonlik, tabiiy ilmiy savodxonlik, tayanch kompetensiya, integratsiya, zamonaviy metodlar.*

В статье рассматриваются методы развития базовых компетенций подготовки учащихся к математической, естественнонаучной и читательской грамотности, а также творческого мышления и решения задач на основе требований Международной программы оценки будущих учителей биологии.

Ключевые слова: *PISA TIMSS, математическая грамотность, научная грамотность, базовая компетентность, интеграция, современные методы.*

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilari kognitiv sohaga doir topshiriqlar ishlab chiqish, muloqot orqali o‘rganish, o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga muvofiq hamkorlikda ta‘lim olish, «tadqiqot qilib o‘rganish» tamoyilini tadbiiq etish, bilimlarini o‘z hayotiga, qiziqishlariga bog‘lay olish, mustaqil ta‘limga bog‘liq tizimli suhbatlar – o‘quv mashg‘uloti tashkil etish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash, ta‘lim mazmunining turli vaziyatlarga moslanganligi va qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish pedagoglar tayyorlaydigan Oliy ta‘lim muassasalarining ustivor maqsadlarida belgilgan.[2]

Ushbu tadqiqot bo‘yicha mamlakatimizda qator o‘rganishlar olib borilmoqda, jumladan, B. Ismoilov tadqiqotida «Tayanch o‘rta ta‘lim sifatini baholashni tashkil etish mexanizmlarini PISA Xalqaro baholash dasturi talablari asosida takomillashtirish» mavzusidagi tadqiqotida tayanch maktablar va ularga birlashtirilgan maktablarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari yoritilgan.

Unda yangicha yondashuv asosidagi baholash mexanizmlarini joriy qilishda umumiy o‘rta ta‘lim maktablar rahbarlari va pedagoglarining xabardorligi va hamkorligini ta‘minlash jarayonlari ochib berilgan.

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida Xalqaro baholash dasturlari standartlarida talab etiladigan kompetentsiyalarni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida o‘rganilmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilardan talab etiladigan pedagoglarning bilim mazmunini Ball va Xill (2008) quyidagicha tasniflaydi:



– Mazmun bilimi yoki mavzu bo'yicha bilim: bu o'qituvchining o'quv materiali tuzilishini, shu jumladan fan sohasining asosiy tushunchalari umumlashtiriladi.

– Umumiy pedagogik bilimlar: u o'qitishni amalga oshirish jarayonini ta'minlovchi asosiy tamoyillarni ifodalaydi, masalan, sinfni boshqarish, o'qitish mahorati, o'rganish vaqti, kutish vaqti, sinfda individual va guruhli o'zaro munosabatlar tamoyillariga asoslanadi.

– o'quv dasturi bo'yicha bilimlar: o'qituvchining o'quv dasturi va uning asosiy elementlari bo'yicha bilimini ko'rsatadi, nazariyalar, baholash usullari, tajriba va faoliyatni tartibga solish, darsni rejalashtirish, o'quv materiallari va qo'llanmalardan foydalanishdan tashqari imtihonga tayyorgarlik ko'rish.

– Pedagogik mazmuniy bilimlar: o'qituvchiga real sinf sharitida dars o'tish imkonini beradigan mazmunga oid bilimlarni o'z ichiga oladi.

– o'quvchilarning bilimlari va ularning xususiyatlari: Bu o'quvchilarning qiziqishlarini, ta'lim ehtiyojlarini, individual farqlarini, oldingi tajriba va tushunchalarni, muqobil tushunchalarni va bilimlarni to'g'ri qo'llashni aniqlashni anglatadi.

– ta'lim mazmunini bilish: u sinfni boshqarish, maktab bilimi, o'quvchilar o'rtasida madaniy va ijtimoiy xilmaxillikni hurmat qilish bilan bog'liq.

– ta'lim maqsadlari va qadriyatlarini bilish: ta'limning falsafiy va tarixiy asoslari, shuningdek, o'qituvchilik kasbiy etikasi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi.

Tabiiy fanlar sikliga tabiat, biologiya, geografiya, fizika, kimyo o'quv predmetlari kiradi. Hozirgi kunda integrativ o'qitish uchun Science o'qitilishining didaktik ta'minotini amalga oshirishga mo'ljallangan Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilgan.

Bunda har bir fanning maqsad vazifasidan kelib chiqib, tabiiy-ilmiy hodisalarni o'rganishda integrativ nuqtalari aniqlanadi. Shuningdek, fanlar kesimida quyidagi xususiy kompetensiyalarni shakllantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari olib borilgan.

Matematika fanidan: Matematik tushunchalarni tasavvur qilish va anglash, haqiqiy va kompleks sonlar ustida amallarni bajarish, matematik bilimlarni amaliyotda qo'llash, mantiqiy tahlil.

Fizika fanidan: Fizik jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish, fizik kattaliklarni o'lchash va aniqlash, tajribalar o'tkazish va xulosalar chiqarish, fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish;

Informatika fanidan: Axborotlarni elektron vositalarda yig'ish, elektron vositalarda axborotlarni qayta ishlash kompetensiyasi, axborotlarni elektron vositalar orqali uzatish kompetensiyasi, informatik bilimlarni amaliyotda qo'llash;

Kimyo fanidan: Kimyoviy jarayonlar va hodisalarni tushuntirish, element va formulalarni kimyoviy usulda ifodalay olish, tajriba o'tkazish uchun zarur jihozlar bilan ishlay olish, kimyodan olgan bilimlarni amaliyotda qo'llash;

Geografiya fanidan: Tabiiy jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni kuzatish, ekologik madaniyat, geografik atlas va haritalardan foydalana olish, geografik bilimlarni amaliyotda qo'llash;



Biologiya fanidan: Biologik jarayon, hodisalarni tushunish va tushuntirish, ekologik madaniyat, tajribalarni o'tkazish uchun zarur jihozlar bilan ishlash, biologiyada olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash. Tabiiy va aniq fanlar yo'nalishida yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsadlar amalga oshirilishi uchun o'quvchilarga o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilimlar tizimi psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlar asosida yetkazilishi, ya'ni bilish jarayoni jonli mushoha-dadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tishi orqali amalga oshirilishi lozim. [3]

Xaqiqatdan ham biologiya fani o'qituvchisida yuqoridagi fanlar tizimi bo'yicha yetarli bilim, manbaa mavjud bo'lishi, Xalqaro baxolash tadqiqoti dasturi talabidagi topshiriqlarni anglashi, tushinishi va o'quvchiga samarali usullar yordamida yetkazishga erishiladi.

M.Ergasheva «O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi» (PISA, TIMSS misolida) tadqiqotida fanlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilar tomonidan tabiatni bir butun borliq sifatida anglanishi, ularning tafakkurida olamning yagona tabiiy-ilmiy manzarasi vujudga kelishiga zamin yaratib, tasavvur olamini rivojlantirishini ta'kidlagan.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilari, ya'ni pedagogika oliy ta'limlarining bitiruvchi talabalari Xalqaro baholash kompetentsiyalarini puxta egallashlari va o'quvchilarga yetkazish uchun zamonaviy metodikalar zarurati paydo bo'ladi.

Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish yo'llari:

– turli xil fanlarni o'rganish ketma-aetligi va izchilligini vaqt bo'yicha shunday tanlash lozimki, ulardan birini o'rganish ikkinchisini o'rganishga ko'maklashsin;

– umumiy tushincha, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishga bir xil yondashuvni ta'minlashga erishish;

– bir o'quv faniga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni o'rganishda boshqa fanlarga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalardan keng foydalanish orqali

– ta'limda o'quv rejalar va o'quv dasturlari optimallasadi;

– o'quvchilarda mustaqil va mantiqiy fikrlash, abstrakt va tafakkur yuritish ko'nikmalari shakllantiriladi;

– o'quvchilarda tabiat, jamiyat, fan haqidagi yaxlit tushinchalar va tasavvurlar, hayotiy ko'nikmalar shakllantirib boriladi. [10]

Yuqoridagi natijalarga erishish uchun esa bo'lajak o'qituvchilardan ta'lim jarayonida samarali metodikalardan izchillik bilan foydalanish maqsadga olib boradi.

Afsuski bugun butun dunyoda Xalqaro baholash tadqiqotlari mazmunini, topshiriqlari qamrov doira va fan sohalariga haqidagi bilimlar yetarli darajada emas. Shuning uchun turli yondashuvli tadqiqotlarga katta ehtiyoj mavjud.

Xaqiqatdan ham biologiya fanidan o'quv-bilish tushunchalarini o'quvchiga yetkazib bera olishda ushbu metodlardan tabiiy fanlardan foydalanish orqali Xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash samarali hisoblanadi. O'quvchilarning bilimlarini



nafaqat darslarda balki, darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning mustaqil ish topshiriqlarini badarish uchun ham samarali metodlarga ehtiyoj mavjud.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarni Xalqaro baholash tadqiqotlari talablari asosida o'quvchilarning matematik, tabiiy ilmiy va o'qish savodxonligi hamda kreativ fikrlash, muammolarni birgalikda yechish uchun zamonaviy o'qituvchi xos kompetensiyalarini rivojlantirishga oid zamonaviy o'qitish usullaridan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun innovatsion va integratsion metodikalardan foydalanishga tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018- yil8-dekabrda 997-sonli qarori.

2. A.Ismoilov. Tayanch o'rta ta'lim sifatini baholashning tashkil etish mexanizmini PISA Xalqaro dasturi talablari asosida takomillashtirish (PhD) dissertatsiyasi. 2022 y. 122 bet.

3. M.Zayniddinova. «Mahorat maktablarida o'quvchilarda tabiiy va aniq fanlar bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirish masalalari» Zamonaviy ta'lim/ SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2016, 1.

4. M.Ergasheva. «O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi»(PISA, TIMSS misolida) (DSc) dissertatsiyasi. 2023-yil 230-bet.

5. Eman M. «ALRwaythi» TIMSS Requirements-based Professional dasturining samaradorligi Doi: 10.36941/jesr-2020-0024 24 ISSN 2239-978X 2020 yil mart . 29 bet.

6. M.Madraximova. «TIMSS Xalqaro tadqiqotining o'quvchi yoshlar bilimini baholashdagi imkoniyatlari» NamGU-NamDU ilmiy axborotnomasi-2023-yil_6-son.ISSN: 2181-0427.

7. L.Karaxanova, M.Madraximova. «PISA – OF STUDENTS AS AN INTERNATIONAL SCIENCE LITERACY ASSESSMENT PROGRAM» Neo Science Peer Reviewed Journal Volume 10, June. 2023 ISSN (E): 2949-7701 www.neojournals.com.

8. X.Norbo'taev. «Biologiyani tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida takomillashtirish» o'quv qo'llanma . Toshkent 2022 yil.122 bet.



TARBIYASI QIYIN O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

O. S. QODIROV,

*Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
«Psixologiya» kafedrası mudiri
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dosent*

Mazkur maqolada tarbiyasi qiyin o‘smirlarning psixik rivojlanishiga xos qonuniyatlari, yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan ba‘zi bir qiyinchilik va kamchiliklarning ijtimoiy psixologik sabablari, barkamol yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy-madaniy va milliy-psixologik omillarning tarbiyaviy ta‘siri haqida fikr bildirilgan.

Tayanch so‘zlar: *psixika, intellektual salohiyat, aqliy taraqqiyot, o‘z-o‘zini anglash, turmush tarzi, salbiy o‘zgarishlar, hamkor tarbiya, etnopsixika, psixoprofilaktika.*

Mamlakatimizda yoshlarning bilimi va ma‘naviy dunyosini boyitish, intellektual salohiyatini oshirish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Aksariyat yoshlar yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishyapti. Shu bois ham ular orasida jannatmakon yurtimiz dovrug‘ini olamga yoyayotgan iqtidorli, iste‘dodlilari judayam ko‘p. Biz bundan faxrlanamiz. Biroq «guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek», hayotda o‘z yo‘lini topa olmagan, natijada bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotgan tarbiyasi qiyin o‘smirlarni uchratish mumkin. Ular yoshlikning jo‘shqinligini, kuch-g‘ayratini nomaqbul ishlarga sarflamoqda.

Hozirgi maktab ta‘limining bosh vazifasi o‘quvchilarning fan asoslarini faol va ongli o‘zlashtirishini ta‘minlashdan iborat. O‘zlashtirish hamisha faol aqliy jarayon natijasi bo‘lib, odamning bilishga oid olamdagi xilma-xil noma‘lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash bilan belgilanadi. Psixologiya fani nuqtai nazaridan no‘malum narsa va hodisalar mohiyatini anglash, bilish yoki uni ijodiy o‘zlashtirish jarayoni asosan uchta yo‘nalishga bog‘liq bo‘ladi.

Birinchidan, o‘zlashtirilayotgan materialning mazmun-mohiyati o‘zlashtiruvchi uchun qay darajada mos va tushunarliiligiga, ahamiyatliiligiga va u qanday usulda yetkazilayotganligiga bog‘liqdir.

Ikkinchidan, ta‘lim jarayonini boshqarayotgan mas‘ul kishining shu sohadagi bilimi va tajribasiga, malaka va mahoratiga, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog‘liq.

Uchinchidan, o‘quvchining aqliy taraqqiyoti darajasiga, emotsional-irodaviy holatiga, o‘qishga nisbatan unda qaror topgan individual psixologik xususiyatlariga, qiziqishi va havaslariga bog‘liqdir. Ana shu uchta yo‘nalish to‘la ta‘minlangan ta‘lim jarayonidagina samarali o‘zlashtirish hosil bo‘lishi



allaqachonlar isbotlangan. Shu bois mamlakatimiz istiqlolining dastlabki kunlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklashga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlab, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga binoan, ta'lim tizimida Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi va uning tarkibiy qismi sifatida o'quv dasturi va darsliklarning tayyorlanishi hamda ularning amalda joriy etilishi ta'lim tizimini jahon andozalariga xos takomillashtirishning dastlabki bosqichi bo'ldi. Biroq ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan fidoyi insonlar va o'qituvchilar jamoasi har qancha urinmasin, baribir ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlarning uchrab turishi hammani ajablantiradi.

Ana shunday tarbiyaviy muammolarni hal etishning qanday yo'llari va choralari mavjud? Hozirgi kunda psixologik olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha tarbiyasi qiyin, injiq, o'zi bilganicha ish tutadigan, quloqsiz, xulqida salbiy illat va ko'rinishlar oshkor ifodalanib turadigan bolalarning kelib chiqishida ijtimoiy sabablardan tashqari pedagogik, psixologik, iqtisodiy, etnomadaniy va hududiy sabablarning ham muhim ta'siri borligi isbotlandi. Ana shu muammolarni o'rganish borasida olib borayotgan tadqiqotlarimiz natijalarining tahliliga ko'ra o'smirlar tarbiyasida, xulq-atvorida, munosabatlarida, maqsad-intilishlarida nojo'ya xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va motivlari (turtkilari) har xilligi aniqlandi. Jumladan, shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentning shakllanishidagi qusurlar ham tarbiyasi qiyinlikka olib kelishi mumkin. Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar, chunonchi, aqlidrokning zaif rivojlangani, irodaning bo'shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o'smiring intilishiga xos mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti-harakatni izdan chiqaradi.

Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar:

- axloqiy hisslarning yetishmasligi,
- o'qituvchi, sinf jamoalari, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot,
- ishyoqmaslik, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik ham salbiy qiliqlarni vujudga kelishiga asos bo'ladi.

Shaxsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari:

- aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmasslik, eng muhimi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar;
 - maktab faoliyatidagi kamchiliklar;
 - o'qitishdagi nuqsonlar,
 - tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi.
- Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi kamchiliklar, xususan,
- oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi,



– oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va noaxloqiy hayotga berilishi
– balog‘atga yetmagan tengqurlarining ta‘siri,
– madaniy-ma‘rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o‘smirlar ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

So‘nggi yillarda jamiyatning barcha sohalarida (iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy) global o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda yosh avlodning, ayniqsa, o‘smirlarning xulqiga ko‘proq ta‘sir qilib, turli o‘zgarishlarga sabab bo‘lib ularda ma‘naviy bo‘shliq hosil bo‘lishiga olib keldi. Buning uchun:

– o‘smirlarni zamonaviy kasbiy yo‘nalishlar, boshqalarga zarari tegmaydigan, biroq foydali bo‘lgan qiziqarli mashg‘ulotlar bo‘yicha xabardorligini oshirish maqsadida umumta‘lim maktablari, mahallalarda uchrashuvlar, davra suhbatlari o‘tkazish;

– aynan shu toifadagi bolalarda entuziazm kuchli ekanini inobatga olgan holda ularni ixtiyoriy ravishda «keksalarga yordam», «nogironligi bo‘lgan farzandi bor oilalarga ko‘mak» aksiyalariga jalb qilish;

– o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini oqilona tashkillashtirish yuzasidan maqsadli yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Ma‘lumki, yoshlarning ma‘naviy-ahloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta‘lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, xuquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug‘ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchi-larining bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o‘zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. Tarbiyasi og‘ir bolalar va o‘smirlarni e‘tibor, g‘amxo‘rlik orqali tarbiyalash kelgusida ularning hayotga muvaffaqiyatli moslashishida muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida». Qonunchilik palatasi tomonidan 2010 yil 12 avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2010-yil 28-avgustda ma‘qullangan.// Qalqon. 2010. № 10 B- 2-13.

2. Sh.M.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: «O‘zbekiston», 2017. -48 b.

3. Sh.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. -488 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi (22 dekabr, 2017 yil). T.: «O‘zbekiston», 2017. -88 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom, Toshkent, -704 b.

6. A.Jabborov. O‘qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi «Nasaf», 2015. - 180 b.



MAKTAB O'QITUVCHILARIDA INKLYUZIV KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

SH.K.URAKOVA,

*Toshkent viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi
katta o'qituvchisi*

Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish va pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlash texnologiyalari yoritilgan. Shu bilan birga Inklyuziv ta'lim muhiti uning pedagoglarga qo'ygan talablari hamda inklyuziv pedagogik kompetensiya mohiyati aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, nogiron bolalar, sog'lom bolalar, teng huquqlik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxassis, o'qituvchi, qonun, rivojlantirish.*

This article describes the technologies of introducing inclusive education in educational institutions and training pedagogues for inclusive education. At the same time, the Inclusive educational environment, its demands on pedagogues and the essence of inclusive pedagogical competence are mentioned.

Key words: *Inclusive education, disabled children, healthy children, equal rights, opportunity, limitation, specialist, teacher, law, development.*

Imkoniyati cheklangan yoki maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy kompetentligi bosh omil hisoblanadi. Avvalo, o'qituvchi inklyuziv bilimlarga ega bo'lishi va ta'lim sifati ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta'lim berish o'qituvchilar faoliyati sifatining asosiy mezonlari Inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi.

Inklyuziv ta'lim – (fransuzcha inklyuziv – shu jumladan), umumiy ta'lim maktablarda alohida ehtiyojli bolalarni o'qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Inklyuziv ta'lim – mavjud jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy, lingvistik va boshqa xususiyatlarga qaramay, har bir bolaga umumiy ta'lim va



tarbiya jarayoniga qo'shilish imkoniyatini beradigan ta'lim, bu esa o'sib ulg'aygan shaxsning jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lishiga imkon beradi, ajralish va izolyatsiya xavfini kamaytiradi.

Shunday qilib, inklyuziya alohida ta'limga muhtoj bolalarni ommaviy muassasalarga kiritishni nazarda tutadi, bu erda har bir bolaning ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishi uchun barcha to'siqlarni olib tashlash muhim hisoblanadi.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan yana biri – bu o'quvchilarning jismoniy yetukligi, qobiliyatligi, bilim darajasi, aqliy kamoloti jihatidan o'zaro qanchalik farq qilishlarini psixologik-pedagogik nuqtai nazardan oqilona tashxis qila olishga bog'liqligini aniqlashdir. Chunki har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor bergan holda o'quv va tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etish yo'li bilan ko'pgina qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin.

Maktab o'qituvchilari har bir bolani qobiliyatini tekshiradi, doimiy ravishda pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi. O'qituvchi faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad: umum ta'lim maktablarida bilim olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarga yordam ko'rsatishdan iborat.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning poydevori, kasbiy mahoratni, umuman, ta'lim sifatini sifat jihatidan rivojlantirish resursi sifatida qaralishi bilan ham katta taassurot qoldiradi. Inklyuziv amaliyotni amalga oshirish o'qituvchining kompetensiyasini inklyuziv muhitning innovatsion sharoitida aniq amalga oshiriladigan shaxsiy va kasbiy fazilatlar yig'indisi sifatida taqsimlash va mazmunli tavsiflash bilan bog'liq bo'lib, unga o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi. barcha bolalarni istisnosiz, ularning ta'lim ehtiyojlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalash. Shuningdek o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda ta'limda akmeologik yondashuvdan kenroq foydalanish, o'qituvchilarning axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga doir kompetentligini rivojlantirish, kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini yaratish, maxsus ta'lim sharoitida raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida



nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

– har bir bolaning qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan shug'ullanish.

– o'quvchilar bilan bilan yakka tartibda ishlash, individual rejalardan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o'quv rejalarga moslashishga yordam berish, o'qitish va baholash.

– pedagog-o'qituvchilar o'quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish.

– muntazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyatlarini muhokama qilish va baholash.

– pedagog xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

– zarurat tug'lsa, o'quvchilarni boshqa yordam ko'rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga).

– o'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish.

– standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish;

– mavjud barcha resurslar (o'quv adabiyotlar, o'qitish qurilmalari va boshqa asboblarni hujjatlashtirish va ular ro'yxatini tuzish.

Inklyuziv ta'lim doirasida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda interaktiv usul va ta'lim shakllarini ishlab chiqildi:

– nogiron bolalarni ta'lim sohasiga jalb qilish nuqtai nazaridan o'qitish metodologiyasi va metodikasini ishlab chiqish;

– uzluksiz inklyuziv (integral) ta'limni rivojlantirishning mavqei va rivojlanish tendensiyalariga yillik monitoring o'tkazish;

– umumiy ta'lim nogiron bolalarni, shu jumladan ilmiy-tadqiqot olib borish uchun O'zbekiston Respublikasi xalqaro tajribasini o'rganish;

– ta'lim sohasiga integratsiyalashuv yoki inklyuzivlik sharoitida bolalarni tarbiyalash va o'qitish metodikasini ishlab chiqish;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va interaktiv usullarini inklyuziv ta'lim doirasida amalga oshirish uchun uslubiy asoslarini yaratish;



– uslubiy dasturiy ta'minot, ta'lim standart talablarini ishlab chiqish, davlat ta'lim standartlari (talablari) va eksperimental tekshirish muvofiq adaptiv o'zgaruvchan dasturlarini o'rganib chiqish;

– umummilliy va qamrovchi tuzilmalarning inklyuziv (integral) ta'lim mazmunini ko'rib chiqish (o'quv dasturlari);

– talabalarning malakasi va qobiliyatlarini bilish uchun ta'lim standartlari (talablari) bo'yicha bilimlarni va nazorat vazifalarini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, sifatli ta'lim va tarbiya berishda ta'lim jarayonining asosiy boshqaruvchi vakillari bo'lgan pedadgog kadrlar har qanday jismoniy holatdagi bolani tushunishi, unga dunyo eshiklari ochishda ularga yo'l ko'rsatuvchi mayoq vazifasini sabr va alohida mehr bilan vazifalarini bajarishlari talab qilinadi. Bu esa o'z o'rnida pedagog kadrlarni inklyuziv kompetensiyalarini yanada rivojlantirishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'limni butun mamlakat bo'ylab rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bunga amaliy misol bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ядов В.А «Саморегуляция прогнозирование социального поведения личности: диспозиционная концепция» второе расширенное издание. М. 2013

2. Болеев. Т.К. «Формирование готовности учителя к деятельности по профилактике аутоагрессии учащихся» автореферат. Тараз. 2004

3. Ларионов О.А. «Профессионально-ориентированная иноязычная одготовка будущих специалистов нефтегазовой отрасли на основе интегративного подхода» автореферат. Казань 2017.

4. Середенко П.В. «Психолого-педагогическое исследование»: методология и методы. Южно-Сахалинск. 2010

5. Середенко П.В. «Подготовка учителя – исследователя в вузе»: УДК 378.018. 181-189 «Oriental Art and Culture» Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020 ISSN 2181-063X 219 <http://oac.dsmi-qf.uz>



ФОРМИРОВАНИЕ БАЗОВЫХ И ПРЕДМЕТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ КАК ОСНОВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ

Е.А.ЛАГАЙ,

д.п.н.(DSc), доцент УзГУМЯ

Maqolada kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy kompetentsiyasining tarkibiy qismi sifatida kommunikativ kompetentsiyaning mazmuni ochib berilgan. Ilmiy nutq madaniyatini o'qitishda filolog talaba egallashi kerak bo'lgan asosiy va fan kompetentsiyalari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya, asosiy va fan kompetentsiyalari, ilmiy nutq madaniyati, filologiya talabalari.

The article reveals the content of communicative competence as a component of the professional competence of future specialists. The basic and subject competencies that a philologist student should master when teaching the culture of scientific speech are determined.

Keywords: professional competence, communicative competence, basic and subject competencies, culture of scientific speech, philology students.

Статья раскрывает содержание коммуникативной компетенции как составляющей профессиональной компетентности будущих специалистов. Определяются базовые и предметные компетенции, которыми должен овладеть студент-филолог при обучении культуре научной речи.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, коммуникативная компетенция, базовые и предметные компетенции, культура научной речи, студенты-филологи.

Социально-экономические преобразования, происходящие в нашей республике, высокие темпы развития информационных и коммуникационных технологий обусловили необходимость модернизации образовательной системы. Особую актуальность приобретают вопросы повышения уровня подготовки студентов высших образовательных учреждений. Современная действительность выдвигает новые требования к образованию и воспитанию студентов: это подготовка специалиста, обладающего не только глубокими профессиональными знаниями, но и способного к адаптации и творческому решению возникающих проблем в меняющихся условиях. Учитывая изменяющиеся условия труда и требования к специалистам, в современном мире приоритет отдается работникам, способным проявлять инициативу, творческие способности, профессионально мобильным, готовым к самообучению и самообразованию.



В настоящее время высшее образование направлено на формирование профессиональной компетентности будущих специалистов. Профессиональную компетентность студентов-филологов следует рассматривать как владение совокупностью ключевых, базовых и специальных компетенций. При обучении языку специальности студентов языковых вузов на первое место выходит задача формирования их коммуникативной компетенции.

Иноязычная коммуникативная компетенция согласно «Общеввропейским компетенциям владения иностранным языком: изучение, обучение и оценка» (CEFR) основывается на формировании лингвистической, прагматической и социолингвистической компетенций [1,5].

«Лингвистическая компетенция подразумевает знание языкового материала (фонетики, лексики, грамматики) и владение видами речевой деятельности (аудирование, говорение, чтение, письмо) в достаточной степени для общения с представителями культуры изучаемого языка.

Социолингвистическая компетенция позволяет выбирать нужную лингвистическую форму, способ выражения в зависимости от ситуации, коммуникативной цели и намерения говорящего. Социолингвистическая компетенция включает в себя социокультурную компетенцию, обеспечивающую способность распознавать национальные особенности страны изучаемого языка и вести себя соответственно в ситуациях иноязычного общения и при общении с носителями языка.

Прагматическая компетенция обеспечивает способность к общению на иностранном языке в соответствии с развитием коммуникативной ситуации и стратегии, способствующей эффективности общения, например, стратегии прерывания, уточнения, компенсации в ситуациях затруднительного общения. В прагматическую компетенцию включена и так называемая дискурсивная компетенция. Она развивает способность соединять идеи последовательно, с использованием соответствующих языковых средств в устном и письменном общении, а также предполагает способность понимать и интерпретировать лингвистические сигналы в связанной устной речи или в письменной форме» [2].

Нам видится, что формирование вышеназванных компетенций актуально не только при обучении иностранному, но и родному языку.

В процессе профессиональной подготовки студентов языковых высших образовательных учреждений на первое место выходит задача формирования их коммуникативной компетенции, которая может быть отнесена как к ключевым компетенциям (в силу ее необходимости и важности для профессиональной деятельности специалистов всех отраслей), так и к пред-



метным (поскольку для специалиста-филолога владение всеми видами речевой деятельности, культурой вербального и невербального общения, умениями и навыками правильного выбора и целесообразного использования разноуровневых языковых средств в типовых и нестандартных ситуациях общения при решении профессиональных задач является основной целью и результатом обучения).

Однако современный образовательный процесс, в том числе и в области изучения языков, должен быть ориентирован на формирование у студентов не только профессиональных, предметных (языковых), но и базовых, ключевых компетенций ввиду того, что целью современного языкового образования является не просто формирование коммуникативной компетенции, а подготовка конкурентоспособного специалиста с творческим отношением к профессиональной деятельности, способного реализовать личностный потенциал, научно информированного, коммуникабельного, умеющего общаться на межкультурном уровне, способного к непрерывному саморазвитию и профессиональному росту.

Реализация крупномасштабных комплексных социально-экономических программ в рамках сотрудничества со специалистами зарубежных стран актуализировала проблему качественного владения русским языком, который, будучи одним из мировых языков, продолжает оставаться средством межкультурного общения для достижения образовательных и профессиональных целей. Вышесказанное обуславливает необходимость формирования у студентов умений эффективно общаться с коллегами по профессиональным вопросам; вести диалог и добиваться успеха в коммуникации; уметь грамотно выражать свои мысли и аргументированно отстаивать свою точку зрения; работать с научной, профессионально значимой информацией - всего того, что является важнейшими составляющими профессиональной компетенции специалиста в любой сфере деятельности. В настоящее время, когда научная деятельность (в тех или иных формах) приобретает масштабный характер, как никогда актуальна задача воспитания культуры научного мышления, а она неразрывно связана с задачей воспитания культуры научной речи.

На основе анализа разных классификаций ключевых компетенций, мы сформулировали основной набор базовых и предметных компетенций, которыми должен овладеть студент языкового высшего образовательного учреждения при обучении культуре научной речи:

1) коммуникативная компетенция, включающая в себя лингвистическую (знание языкового материала и владение видами речевой деятельнос-



ти); социокультурную (умение выбирать нужные языковые конструкции и способы выражения для решения коммуникативных задач); прагматическую (умение интерпретировать и продуцировать самостоятельные высказывания в соответствии с особенностями коммуникативной ситуации, выбирая определенные стратегии, способствующие эффективности общения); стилистическую компетенцию – владение изобразительно-выразительными средствами языка, принципами наиболее целесообразного их отбора и использования в конкретных речевых ситуациях; дискурсивную компетенцию – умение продуцировать связные высказывания в соответствии с особенностями построения и жанрового своеобразия текста, владея способностью выбирать вариантные формы лексико-грамматических конструкций с учетом условий речевой ситуации;

2) учебно-познавательная компетенция, включающая компоненты исследовательской деятельности: планирование, моделирование, прогнозирование, исследование, ориентацию в разных видах деятельности; постановку и решение познавательных задач; создание и разрешение проблемных ситуаций и т.д.;

3) информационная компетенция – способность самостоятельного поиска, отбора, анализа и интерпретации необходимой информации; компьютерная грамотность.

Таким образом, необходимость повышения качества подготовки студентов языковых высших образовательных учреждений обуславливает воспитание будущего специалиста, обладающего комплексом ключевых и предметных компетенций, обеспечивающих успешное осуществление профессиональной деятельности.

Литература:

1. A Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. - Strasbourg, 1996. - Общеввропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, обучение, оценка. - <http://www.linguanet.ru>. - (Русский перевод Московского государственного лингвистического университета). - 2003.

2. Постановление Кабинета Министров РУз № 124 «Об утверждении Государственного образовательного стандарта по иностранным языкам системы непрерывного образования» от 8 мая 2013 года (Электронный ресурс). - URL: <https://lex.uz/docs/2165724>. Дата обращения: 15.05.2022 г.



IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARINING FANGA DOIR KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI OMMALASHTIRISH

M. Y. BEGMATOV

O'zPFITI mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda intensiv o'qitish metodlari, usullari, ta'lim platformalari va ta'limiy web-saytlardan faol foydalanilib kelinmoqda. Shu bois, ushbu maqola doirasida xorijiy umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili fanini o'qitishdagi holati tahlil etildi.

Kalit so'zlar: muammoli vaziyati, uzviylik, integratsiya, zamonaviy pedagogika, kommunikativ til.

Сегодня для повышения эффективности преподавания предметов, формирования и развития компетенций учащихся активно используются интенсивные методы обучения, методики, образовательные платформы и образовательные сайты. Поэтому в рамках данной статьи было проанализировано состояние преподавания английского языка в зарубежных общеобразовательных школах.

Ключевые слова: проблемная ситуация, связность, интеграция, современная педагогика, коммуникативный язык.

Today, in order to enhance the effectiveness of teaching subjects, intensive teaching methods, techniques, educational platforms, and educational websites are actively being used to shape and develop students' competencies. In addition, the use of intensive teaching is also crucial in the teaching and education process of the English language in various subjects.

Key words: problem situation, coherence, integration, modern pedagogy, communicative language.

Xorijiy mamlakatlarda o'quvchilarning ingliz tili darslarida intensiv o'qitish tizimi shakllanish darajasi o'rganib chiqildi. Xususan, asosiy tili ingliz tili bo'lgan Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi Angliya davlatidagi umumiy o'rta maktablarida ingliz tili darslarini olib borilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadigan bo'lsak, ularda axborot texnologiyalari va muhitlari hamda o'quvchilarning axborot ko'nikmalaridan foydalanish jihatdan muammolari mavjud emas. Angliya ixtisoslashgan maktablarda 9-sinf o'quvchilari uchun ingliz tilini intensiv o'qitish ko'pincha o'quvchilarning til bilimlarini oshirish va ularni yuqori darajadagi ta'limga yoki kelajakdagi akademik faoliyatga tayyorlashga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Ixtisoslashgan maktablarda 9-sinf o'quvchilari uchun ingliz tilini intensiv o'qitishning bir qismi bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi xususiyatlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Ilg'or til o'quv dasturi: O'quv dasturi, ehtimol, ilg'or til darajasida talabalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi mumkin. Unda murakkab



grammatik tuzilmalar, ilg'or lug'at va o'quvchilarni til ko'nikmalarini oshirishga undaydigan chuqur o'qish va yozish topshiriqlari bo'lishi mumkin.

2. Tanqidiy fikrlash va tahlilga e'tibor qaratish: Ushbu darajadagi intensiv ingliz tilini o'qitish tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini ta'kidlashi mumkin. O'quvchilar ingliz tilida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, murakkab matnlarni tahlil qilish, fikr bildirish va ishonchli dalillarni ishlab chiqishni talab qiladigan faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin.

3. Nutq va taqdimot tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirish: Intensiv ingliz tilini o'qitish o'quvchilarning og'zaki muloqot ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bu o'quvchilarda ingliz tilida o'z fikrlarini ravon va aniq ifoda etishda ishonchni mustahkamlash uchun munozaralar, bahslar, taqdimotlar va notiqlik mashqlarini o'z ichiga olishi mumkin.

4. Madaniyatshunoslik va tilni o'rganish bo'yicha tadbirlar: Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyati, tarixi va an'alarini chuqurroq tushunishga yordam berish uchun madaniyatshunoslik o'quv dasturiga kiritilishi mumkin. O'quvchilarga real hayotiy kontekstlarda ingliz tilidan amaliy ma'lumot berish uchun til lagerlari, almashinuv dasturlari yoki interfaol madaniy tadbirlar kabi tilni o'rganish tadbirlari ham tashkil etilishi mumkin.

5. Standartlashtirilgan til imtihonlariga tayyorgarlik: Intensiv ingliz tilini o'qitish Kembrij ingliz tili imtihonlari (masalan, FCE, CAE) yoki IELTS imtihonlari kabi standartlashtirilgan til bilish imtihonlariga tayyorgarlikni o'z ichiga olishi mumkin. O'quvchilar imtihon formati bilan tanishish va ushbu baholashda ustunlik qilish uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maqsadli ko'rsatmalar va amaliyot olishlari mumkin[1].

Eng qiziq jihati shundan iboratki, tilga ixtisoslashtirilgan maktablarda ham turli xil aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarida ham bir xil muvozanatni saqlaydigan dasturdan foydalanishadi. Bitta farqi shundaki, tilga ixtisoslashtirilgan maktablarda aniq va tabiiy fanlardan tashqari, tarjimonlik, filologik nazariya hamda o'qituvchilikka oid fanlar ham o'qitiladi, lekin barcha Angliya maktablarida yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarga albatta erishiladi. Ya'ni har qanday o'quvchi maktabni tugatish jarayonida albatta til imtihonlariga topshirishlari kerak va ularda til bo'yicha daraja sertifikatini mavjud bo'lishi kerak[2].

Amerika qo'shma shtatlarida ingliz tilini o'qitish tarjibasi haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, ingliz tili Qo'shma Shtatlardagi asosiy til sanaladi, ammo ushbu davlatdagi odamlar aksariyati chetdan kelganligi sababli ular uchun ingliz tilini o'rganish juda muhim va bu albatta farzandlari maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur davlatda asosiy e'tibor nutq, tinglash, o'qish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'qitish usullari ko'pincha interfaol faoliyatni, multimedia vositalarini va muloqot qobiliyatlariga katta e'tiborni o'z ichiga oladi. E'tiborli jihati notiqlik san'ati uchun alohida o'quv dasturlari mavjud. Dasturda ingliz tilidagi ta'lim odatda o'qishni tushunish, grammatika, imlo va lug'atni rivojlantirish



kabi komponentlarni o'z ichiga olgan kengroq til san'ati o'quv dasturining bir qismidir. O'quv dasturi ingliz tilini har tomonlama tushunish va undan akademik va kundalik kontekstda foydalanishni rivojlantirish uchun mo'ljallangan[3].

Umuman olganda, Qo'shma Shtatlardagi ingliz tili ta'limi talabalarni kuchli til ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va madaniy xabardorlik bilan jihozlash, ularni turli holatlarda akademik muvaffaqiyat va samarali muloqotga tayyorlashga qaratilgan.

Yaponiyada ingliz tili ta'limi ko'pincha grammatika va lug'atga e'tibor qaratgan holda o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u berishgan. Til o'rgatishning ko'proq kommunikativ usullariga intilish bo'lib, o'quvchilarni suhbat va munozaralarda faol ishtirok etishga undaydi. Ba'zi maktablar o'quvchilarga amaliy til amaliyotini taqdim etish uchun ingliz tiliga moslashuvchan dasturlarini ham taklif qiladi. Ingliz tili o'rta maktablarda majburiy fan sifatida o'qitiladi, bunda kommunikativ til ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. O'quv dasturida ko'pincha lug'at, grammatika, o'qish va tinglab tushunishga urg'u beriladi, bunda umumiy tilni bilish darajasi yaxshilanadi. An'anaviy grammatikaga yo'naltirilgan o'qitishdan ko'proq kommunikativ va interfaol yondashuvlarga o'tuvchi o'qitish usullaridan samara olishgan. O'qituvchilar o'quvchilarni ingliz tilidan faol foydalanishga undaydigan, masalan, guruh muhokamalari, rolli o'yinlar va interaktiv til o'yinlari kabi usullardan foydalangan holda ta'lim berishadi. Yaponiya almashinuv va o'qitish (JET) dasturi maktablarda ishlash va ingliz tilini o'qitishda yordam berish uchun chet el ingliz tili yordamchilarini jalb qiladi. Yordamchi til o'qituvchilari (ALT) ko'pincha yapon o'qituvchilari bilan birgalikda ingliz tilini qamrab oluvchi muhitni ta'minlash va o'quvchilarga ona tilida so'zlashuvchi bilan ingliz tilini mashq qilish imkoniyatini taklif qilish uchun ishlaydi[5].

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish jarayonida shuni alohida ta'kidlash joizki, rivojlangan g'arbiy va sharqiy davlatlarning barchasi zamonaviy yondashuv va metodlar orqali bir xil konsepsiya asosida ta'limni ilg'or holatga chiqarishga harakat qilishmoqda. Yurtimizda ham ushbu tamoyillardan foydalangan holda til o'qitish metodikalaridan foydalanilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alderson J.C. Bands and Scores // Language Testing in the 1990 / ed. by C. Alderson and B. North. Modern English Publications in Association with the English Council, 1998. -P. 71-87.
2. Емельянов Ю.Н., Кузьмин Е.С. Теоретические и методологические основы социально-психологического тренинга. Л.: ЛГУ, 1983.-103 с.;
3. Ahn, K., 2008. Teaching as one has been taught: The impact of teacher socialization on The implementation of English curricular reform. English Teaching, 63(3), 91-117.
4. Borg, S., 2011. The impact of in-service teacher education on language teachers' beliefs. Science Direct, System 39, 370-380
5. Chang, K., Jung, K., and Choi, B., 2008. A study on the curriculum for training pre-service secondary English teachers. English Language Teaching, 20(2), 213-241



AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TASHKIL ETISHNING METODIK TIZIMI

M.N. IBODOVA,

*Navoiy davlat pedagogika instituti,
Biologiya kafedrasi dotsenti*

Ushbu maqolada akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishda integrativ texnologiyalardan foydalanish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Inegatsiya, kompetensiya, tayanch kompetensiya, texnologiya, kompyuterli ta'lim, an'anaviy o'qitish, kognitiv, kontseptual, interoektsiya, sinektika, tafakkur.*

В данной статье представлена информация об использовании интегративных технологий в обучении биологии в академических лицеях.

Ключевые слова: *Интеграция, компетентность, базовая компетентность, технология, компьютерное образование, традиционное обучение, когнитивное, концептуальное, взаимодействие, синектика, мышление.*

This article describes information about the use of integrative technologies in teaching biology in academic lyceums.

Key words: *electronic educational resources, natural sciences, multimedia presentations, Internet resources, electronic encyclopedias, didactic materials, video, audio, information technologies.*

Koinotda, jamiyat hayotida, turmushda va ishlab chiqarishda, ta'limda, ya'ni mikro olamdan tortib, to makro olamgacha integratsiya katta ahamiyat kasb qiladi. Integratsiya – juda keng ma'noli tushuncha. Ayniqsa, yosh avlodning ilmiy dunyoqarashi, ularning ekologik, axborot madaniyatini shakllantirishda ta'limda integratsiya jarayonining zarurligi dunyo olimlari tomonidan alohida qayd qilinmoqda. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashga oid pedagogik tadqiqotlarda uni mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida mujassam rivojlanayotgan shaxsga nisbatan pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyati sifatida qarash lozim. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'quv fanlariaro aloqadorlikning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv fanlariaro aloqadorlik ta'minlangan pedagogik sharoitda o'qitish jarayonida tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda o'qituvchining tutgan o'rmini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

Integrativ yondashuv – turli fanlardan olingan bilimlar, ko'nikma, malaka va tajribalarni hisobga olish, tayanish, birlashtirish va kompetentsiyalarni baravar rivojlantirishini nazarda tutadi. Psixologik turkum fanlarida barcha insonlarga xos bo'lgan fikrlash operatsiyalari bilish faoliyatining yaxlit qismi sifatida fikrlash strategiyalarining ko'p miqdordagi qismini tashkil qiladi hamda sintez orqali turli darajadagi va tavsifdagi



tizimlarni birlashtiradi. Integratsiya bilish mexanizmi asosida yotadigan qismlarni yaxlit sintezlash nuqtai nazaridan bilish strategiyalari kabi farqlanadi va natijada ko'zlangan maqsadga erishiladi. Dunyoda fan, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika fanlarini chuqur o'rganishga asoslangan (STEAM) ta'limni keng joriy etish asosida tabiiy fanlar, jumladan, biologiya fanini o'qitish jarayoniga integrativ texnologiyalarni tatbiq qilish, o'quvchilarda tabiiy-ilmiiy savodxonlikni rivojlantirishga doir xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish, «kompyuterli ta'lim»ni ta'lim amaliyotiga joriy qilish biologiya fanini o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, axborot-ta'lim muhitida integrativ yondashuvni amalga oshirish vazifasini qo'yimoqda. Integratsiyalashgan texnologik yondashuvlar barcha ijtimoiy jarayonlarni umumiy tavsifini yoritish hamda ularning istiqbollari belgilashga xizmat qiladi. Akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish jarayoni o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishida uzviylik printsiptiga amal qilish, ta'lim jarayonini tashkil qilish va o'tkazishda pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, bugungi kun davr talabi hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarning qo'llanishi bir qancha didaktik, metodik va kognitiv omillarga bog'liq. Integrativ bilimlarni shakllantirish jarayoni uch yo'nalishda kognitiv, kontseptual, integrativ model asosida shakllanadi.

Interoektsiya – o'quvchining individual imkoniyatlari asosida o'zlashtirayotgan bilimlarini o'z ichki dunyosiga integrativ motivlar bilan qabul qilishi sanaladi. Bu jarayonda o'quvchilarning tafakkuri muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirishda shaxsning tafakkuri muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Tafakkur – inson aqliy faoliyati, aql-zakovati, ongli xatti-harakatining yuksak shakli hisoblanib, mazkur jarayonda insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va uning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur xotirada yig'ilgan axborotni qayta ishlashi, umumlashtirishi natijasida voqealarning rivojlanishi, takomillashishi to'g'risida taxmin qilish, oldindan aytib berish uchun shart-sharoitlar tug'iladi.

Biologiya fanini o'qitishda integrativ texnologiyalardan foydalanish tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirishda o'quvchilarning aqliy faoliyati, aql-zakovatini rivojlantirish, ongli xatti-harakatga yo'naltirish ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi. Biologiya fanini o'qitishda foydalanilgan keys-stadi, amal va hato, aqliy hujum, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari, fanga oid kompetentsiyalarni baholash maqsadida shakllantirilgan test topshiriqlari axborotni qayta ishlash, tahlil, sintez, qiyoslash, abstraktsiyalash orqali umumlashtirish, xulosalash, o'quv muammosining echimini topish yangi g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi.

Sinektika – turli fanlar bo'yicha amalga oshirilayotgan o'quv-bilish faoliyatining kontseptual xususiyatlarini umumlashtirish. Ayrim faoliyat turlarida bu jarayon «integratsiya» ham deb ataladi. 1-2-kurslarda biologiya fanini o'rganishda turli bilimlar



majmui bir ilmiy-kognitiv yoʻnalishga birlashadi. Sinektika – turli rejali (turli sifatlari va turli modallikdagi) bilimlarni yangi sifatlari sintezlash qobiliyati. U inson qobiliyatlarining hech qanday umumiy bogʻliqlikka ega boʻlmagan (daryolar oqimi, insonlar oqimi, axborotlar oqimi va h.k.) turli-tuman jarayonlarda simultan fikrlashiga asoslanadi.. Biologiya fanini oʻqitishda oʻrganilayotgan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda tabiiy fanlar: fizika, informatika, kimyo, biologiya, geografiya sohalarida oʻzaro aloqador tabiiy-ilmiy gʻoya, qonuniyat va tushunchalar va ilmiy bilish metodlaridan foydalaniladi. Masalan, Novda. Poyaning ichki tuzilishi mavzusini oʻrganishda, poya tapkibi unga xos xususiyatlar, kimyo fani bilan, uning funksiyasini oʻrganishda esa fizika fanida oʻrganilgan qonuniyatlardan foydalaniladi. Oʻquvchilarning tabiiy fanlardan oʻrgangan bilim, koʻnikma va malakalarini yangi vaziyatda foydalanish sinektika qoidalariga mos keladi.

Kogerentlik integrativ va moslashuvchan didaktik jarayonlar asosan biolo-giya fanlaridagi barcha elementar printsiplarning bir-biri bilan ketma-ketlikda ilmiy-kognitiv jihatdan joylanishini taqozo qiladi. Shuningdek, amaliy fanlarning rivojlanishi, fanlar oʻrtasida differentsiatsiya va integratsiya jarayonlarining vujudga kelishi obʻektiv qonuniyat sifatida, biologiya, kimyo va fizika kabi fanlar oʻrtasida fanlararo bogʻlanishni amalga oshirishni talab qiladi. Kogerentlik – yangi tizimlarning strukturalarini chidamli, tartibli yaratish jarayonida kichik tizimlarning oʻzaro muvofiqlikdagi harakati. Oʻqitishda kogerent integratsiya hozirgi davrda oʻquv jarayonida integratsiyalashning eng koʻp tarqalgan turi hisoblanadi. Kogerent model umumiy oʻrta taʼlimda: biologiya va kimyo, biologiya va texnologiya, biologiya va fizika kabi integratsiyalashgan kurslarda taqdim qilinadi. Bunday integratsiyalash asosida, bir tomondan, tabiat, madaniyat va fan olami haqida yaxlit tasavvurlarning shakllanishiga erishilsa, boshqa tomondan, oʻquv vaqti tejaladi. Bunday integratsiya nafaqat biologiya fanlararo (vertikal), balki fanlararo (gorizontal) muhim tabiiy-ilmiy va madaniy hodisalarni sinxronlashgan oʻrganish, pedagogik jarayonni yuqori darajada intensivatsiyalash, mazmunli fanlararo aloqalarni oʻrnatish, oʻquv materialini koʻchirmaslik imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.O. Tolipova «Biologiyani oʻqitishda innovatsion texnologiyalar» Pedagogika oliy oʻquv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - «Choʻlpon» - 2011 y.

2. Джураев Р.Х. ва бошқ. Педагогика. - Тошкент. 2013.

3. Берулова Г.А. Влияние современных информационных технологий на коммуникативные характеристики личности // Гуманизация образования. - Москва. 2013 № 6. - С.

4. M. N. Ibdova. Академик лицей ва касб -хунар коллежларида умумий биологияни ўқитишда инновацион технологиялардан фойдаланиш. Гармонично развитое поколение – условие стабильного развития, благополучия и процветания общества . Тошкент -2013 й.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 26.12.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 7-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**